

# JAHON TARIXI



*Umumiy o'рта ta'lim maktablarining 10-sinfi  
uchun darslik*

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan*

Yangi nashr

---

**Toshkent – 2022**

UO'K 94(100)(075.3)  
 KBK 63.3(0)ya72  
 J 39

### MUALLIFLAR:

**Shuhrat Ergashev, Begzod Xodjajev, Jamshid Abdullayev, Nurhayot Hakimov**

### TAQRIZCHILAR:

**S. Shodmonova** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti sharq mamlakatlari tarixi va antropologiya kafedrasida professori, tarix fanlari doktori.

**B. Pasilov** – TDPU jahon tarixi kafedrasida dotsenti.

**Sh. Abdullayeva** – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi.

**M. Axrolov** – Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 266-umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi.

### SHARTLI BELGILAR:



– faollashtiruvchi savol va topshiriqlar.



– atamalar mazmuni.



– yodda tuting.



– esga oling.



– bilib oling.



– ijodiy ish topshirig'i.



– o'ylab ko'ring va mantiqiy xulosa chiqaring.



– tarixiy mushohada.



– internet bilan ishlash.



– savol va topshiriqlar.



– badiiy asar bilan ishlashga doir topshiriq.



– mustaqil ish.



– yo'naltiruvchi savollar.

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 978-9943-8380-9-3

© Respublika ta'lim markazi, 2022

## KIRISH

**A**ngliyadagi sanoat inqilobi, boshqa Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi Osiyo va Afrika xalqlari hayotida ham jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Mustamlaka va qaram mamlakatlar sanoat mahsulotlari bozori va xomashyo bazasiga aylantirildi. Yevropa mamlakatlari Turkiya, Eron va Xitoy kabi rasman mustaqil davlatlar rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. XIX asrning oxirlarida boshlangan tarixiy davr fanda *imperializm* nomini oldi. XX asr boshiga kelib Afrika qit'asining 90 foiz hududi yetakchi Yevropa davlatlarining mustamlakalariga aylantirilgan edi. Ammo mustamlakalar uchun kurash davom etdi, qurollanish poygasi avj oldi. Bu voqealar muqarrar ravishda 1914–1918-yillardagi Birinchi jahon urushiga olib keldi. Urush insoniyat tarixida buyuk geografik kashfiyotlardan boshlangan yangi davrga yakun yasadi.

Birinchi jahon urushidan keyingi davr "**Eng yangi tarix**" deb ataladi. U Birinchi jahon urushining yakuni – 1918-yildan boshlanib, hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Eng yangi tarixga kishilik jamiyati rivojlanishining industrial sivilizatsiyadan postindustrial sivilizatsiyaga o'tish davri sifatida qaraladi.

Eng yangi davr tarixida nisbatan mustaqil bo'lgan uchta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi bosqich – 1918–1945-yillar oralig'ida industrial jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimi inqirozining boshlanish davri. Bu inqiroz ikkita jahon urushida, sotsialistik inqiloblar va milliy-ozodlik harakatlarida, Germaniya, Italiya, Yaponiya, SSSRda totalitar tuzumlarining qaror topishida, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvida namoyon bo'ldi. Bu bosqichning mazmunini jamiyat taraqqiyotining ikki asosiy modeli – liberal-demokratik va totalitar tuzum o'rtasidagi kurash tashkil etadi.

Ikkinchi bosqich 1945–1991-yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqich mazmunini mustamlaka tizimining qulashi va ko'plab mustaqil davlatlarning tashkil topishi, "sovuq urush", dunyoni yadroviy halokat yoqasiga olib kelgan qurollanish poygasi tashkil qiladi. Bu davr asosan sovetlar totalitar tuzumi va liberal demokratiya o'rtasidagi global qarama-qarshilik bilan tavsiflanadi.

1991-yildan boshlangan uchinchi bosqich xalqaro munosabatlarda shakllangan ikki qutbli dunyo tizimining inqirozi, sotsialistik tuzumning barbod bo'lishi, SSSRning parchalanib ketishi va sobiq sovet respublikalarining mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi bilan boshlanadi. Bu davr globallasuv, "uchinchi dunyo" mamlakatlari rivojlanishining jadallasuvi, sivilizatsiyalar o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi bilan xarakterlanadi.



Mazkur darslikda yangi davrning so'nggi bosqichi va eng yangi davrda sodir bo'lgan muhim voqealar bayon qilinishi bilan birga jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi, shuningdek, bugungi kunda dunyo sahnida ro'y berayotgan ayrim voqealarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish imkonini beruvchi hamda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar jahon xalqlari madaniyatining har biri o'ziga xos va noyob ekanligini, insonparvarlik va vatanparvarlik tamoyillari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat g'oyalariga asoslangan umuminsoniy qadriyatlarni anglashga ko'maklashadi. Dunyo va jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlari va o'ziga xos yo'llarini bilib olish va kelajak haqida tasavvurlarga ega bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, ilg'or mamlakatlarning tarixiy tajribasini O'zbekistonda ijodiy qo'llashga imkon beruvchi bilimlarni shakllantiradi.



## Radioning kashf etilishi

1896-yil 24-martda rus olimi Aleksandr Popov Rossiya fizika-kimyó jamiyati yig'ilishida dunyoda birinchi marta radiotelegramma uzatdi.

1897-yil 2-iyulda italyan olimi Guglielmo Markoni radio signallarni uzoq masofalarga uzatishga qodir qurilmaga patent oldi.



## Cho'g'lanma lampaning kashf etilishi

Turli materiallarda mingdan ortiq sinov o'tkazgan amerikalik ixtirochi Tomas Edison 1879-yilda va nihoyat 40 soat yonib turuvchi uglerod tolali lampochkani yaratishga muvaffaq bo'ldi.



## Parovozning kashf etilishi

1804-yili ingliz muhandisi Richard Trevitik tarixda ilk parovozni konstruksiyaladi va amalda yasab ham ko'rdi. Trevitik loyihalagan ushbu parovoz ikki o'qda muvozanatlangan silindrik bug' qozonidan iborat bo'lgan. Og'irligi 5 tonna atrofida ekaniga qaramay, ushbu parovoz har birida 25 tonnadan yuk bo'lgan 5 ta vagonni 8 km/soat tezlik bilan tortib, manzili-ga elta olgan.







# **XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA JAHON MAMLAKATLARI: INDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING QAROR TOPISHI**



# 1- mavzu

## Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yangi davrning eng asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Industrial sivilizatsiya qaror topishi arafasida Sharq va G'arb mamlakatlari orasidagi tafovutlar nimalarda namoyon bo'ladi?



1895-yilda muhandis V. I. Lopushinskiy ishlab chiqqan yuk lokomotivi

**XVIII** asrning oxirlarida boshlangan **sanoat to'ntarishi** faqat sanoatning emas, qishloq xo'jaligining ham rivojini belgilab berib, butun XIX asr davomida ko'plab mamlakatlar taraqqiyotining asosiy mohiyatiga aylanib qoldi. Dastlab Angliya, uning ortidan Fransiya, biroz keyinroq AQSH, Germaniya, Avstriya-Vengriya, Italiya, Rossiya har xil tezlik bilan bo'lsa-da, shu yo'ldan bordilar. Shunday qilib, olimlar **industrial sivilizatsiya** deb atagan, bosh qadriyatlari texnik taraqqiyot va inson erkinligi bo'lgan sivilizatsiya XIX asrda Yevropa va AQSHda uzil-kesil qaror topdi hamda qariyb ikki asr mobaynida jahon xalqlari taraqqiyotining mazmuniga aylanib qoldi.

Fan va texnika sohasida erishilgan yutuqlar xo'jalik hayotining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Asrlar davomida dengiz va okeanlarda suzib yurgan yelkanli kemalar bilan bir qatorda **paroxodlar** paydo bo'ldi. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarining shaharlari **temiryo'l** tizimi bilan bog'landi va bu sanoat hamda savdning rivojlanishiga katta turtki berdi.

1870-yillari **elektrdvigatel, elektrlampa, telefon**, sal keyinroq **radio** kashf etildi. 1880-yillar – 1890-yillar boshlarida **elektr energiyasini** simlar orqali uzoq masofaga yetkazib berish imkoniyati paydo bo'ldi; benzinda ishlaydigan dastlabki **ichki yonuv dvigatellari** yaratilib, shundan so'ng dastlabki **avtomobillar**, keyinroq **samolyotlar** paydo bo'ldi.

O'sha davr iqtisodiyotining yetakchi sohalari – **metallurgiya, mashinasozlik, transport** shiddat bilan rivojlandi. **Elektrotexnika, kimyo sanoati** kabi yangi sohalar paydo bo'ldi hamda kishilarning kundalik turmushini o'zgartira boshladi.





**ESGA OLING**

*Kapitalizm bu – ...*

Sanoat ishlab chiqarishi sur'atlarining o'sishida ayniqsa tez rivojlanayotgan metallurgiyaning salmog'i katta bo'ldi. Fransuz metallurgi **Pyer Marten** va ingliz ixtirochisi **Henri Bessemer**lar joriy etgan po'lat eritishning yangi usullari uni ishlab chiqarishni keskin oshirib, tannarxini arzonlashtirdi. Ingliz metallurgi **Sidney Tomas** kashf etgan suyuq cho'yanni tozalash usuli esa fosfatlarga boy temir rudalaridan foydalanish imkonini yaratdi va mahsulotning sifatini keskin oshirdi. Natijada 1870-yildan 1900-yilgacha jahonda po'lat ishlab chiqarish 56 barobar o'sdi. Sanoatda **temir davri** o'rniga **po'lat davri** boshlandi.

XIX asrning so'nggi o'ttiz yili yirik sanoat ishlab chiqarishining jadal taraqqiyot




*Birinchi telefon apparati*

davri bo'ldi. Taraqqiyotning yangi bosqichi sanoatni tashkil qilishning yangi shakllarini talab qildi. Bu yirik ishlab chiqarishning keskin rivojlangan davri ulkan moliyaviy sarf-xarajatlarni talab qilardi. Bunday katta mablag'larni bir joyga to'plash uchun **aksionerlik kompaniyalari** tashkil qilindi. Bu kompaniyalar yirik banklar va sanoatchilarga o'z mablag'larini bir joyga jamlash imkonini berdi. Ammo shu tariqa paydo bo'lgan **moliya oligarxiyasi** tezda jamiyatning tor **elita qatlamiga** aylanib, industrial sivilizatsiya qaror topgan ilg'or mamlakatlarda XX asr boshiga kelib iqtisodiy va siyosiy yetakchilikni qo'lga oldi. Bunday jarayonlar keyinchalik kapitalistik rivojlanish yo'liga o'tgan bir qator sobiq sotsialistik mamlakatlarda XX asr oxiri – XXI asr boshlarida ham kuzatildi.



## O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQRING

*Yevropada qanday asosga tayanilib ilmiy-texnika inqilobi natijalari sanoat ishlab chiqarishi sur'atlarining o'sishi bilan uyg'unlashtirildi?*



Bu o'zgarishlar jamiyat hayotida, kishilarning kundalik turmushida qanday aks etdi?

Avvalo, yangi davr kishisi shakllandi. XVIII asrda paydo bo'lgan insonning tabiiy va uzviy huquqlari to'g'risidagi ta'limot jamiyat hayotida yanada kengroq namoyon bo'la boshladi. Siyosiy tuzumlar o'zgardi, absolyut monarxiyalar o'tmishda qolib ketdi va o'rnini cheklangan (konstitutsion) monarxiyalar va respublikalarga bo'shatib berdi.

*Birinchi paroxod*



## YODDA TUTING



*XIX asrning 70-yillarida elektrdvigatel, elektrlampa, telefon, sal keyinroq radio kashf etildi.*

*P. Marten va H. Bessemerlar po'lat eritishning yangi usulini kashf qildi.*

Parlament faoliyati qonunchilik, ijro va sud hokimiyatlari bir-biridan ajratilgan huquqiy davlatning shakllanishiga ko'maklashdi. Bunday davlatlarda shaxs huquqi kafolatlandi, fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi o'rnatildi.


Huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining rivojlanishini ta'minladi. U odamlar hayotiga quyidagi o'zgarishlarni olib keldi: a) shaxsiy erkinliklar kengaydi; b) feodal qaramlikdan ozod bo'lish jarayoni davom etdi; d) mahalliy boshqaruv organlari shakllandi; e) ittifoqlar va siyosiy partiyalar tashkil qilindi; f) ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligini ta'minlash uchun kurash olib borildi; g) vijdon erkinligi e'lon qilindi va kafolatlandi.

Ilm-fanda juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Uni ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirishning uzoq davom etgan jarayoni XX asrda **ilmiy-texnik inqilob**ga olib keldi. Shu tariqa ilm-fan jamiyatni olg'a harakatlantiruvchi qudratli kuchga aylandi.

Fandagi ixtirolar sanoat va qishloq xo'jaligiga joriy qilindi. Temiryo'llar, paroxodlar, avtomobillar, samolyotlar, elektr yoritkichlar, telefon, telegraf va boshqa ko'plab ixtirolar insonlar hayotini tubdan o'zgartirib yubordi.

Ilm-fan yutuqlaridan ilhomlangan bu davr kishilari tabiatni bo'ysundirishga, insonning cheksiz imkoniyatlarini ishga solishga, inson tabiatining o'zini mukammallashti-





*Korxonadagi ish jarayoni*

rishga intilib yashadilar. Natijada dinning inson ongiga ta'siri susaydi, ko'plab mamlakatlarda dunyoviy ta'lim yo'lga qo'yilib, diniy muassalar davlatdan, ta'lim jarayoni dindan ajratildi. Dunyoviy davlat, maktab, fan va madaniyat shakllandi. Dunyoviy yondashuv, **sekulyarlik**, vijdon erkinligi inson dunyoqarashining, ozod shaxs sifatida o'zini anglashining asosini tashkil qildi.

Industrial davlatlar mustamlaka imperiyalarini yaratib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasini ta'sir hududlariga bo'lib olish uchun intildilar. Bu davr G'arb sivilizatsiyasining **ekspansiyasi** davri, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi xalqlarining faqat siyosiy va iqtisodiy emas, sivilizatsiyaviy qaramligining ham boshlanish davri bo'ldi.

Bu davrda G'arb jamiyatining tarkibi o'zgardi, aholining yangi qatlamlari paydo bo'ldi. Insonning o'zi, ichki dunyosi va turmush tarzi ham o'zgardi. Uning asosiy qadriyatlari ozodlik va shaxsiy erkinlik bo'lib qoldi.



## ATAMALAR MAZMUNI

**Industrial sivilizatsiya** – ijtimoiy hayot uchun muhim rol o'ynaydigan jamiyat. Yangi davrda shakllangan bozor munosabatlari, siyosiy va ijtimoiy tenglik, huquqiy davlat, diniy bag'rikenglik, inson huquqlari, umuminsoniy qadriyatlar kabi tushunchalar industrial sivilizatsiyaning asosiy belgilari hisoblanadi.

**Sekulyarlik** – hukumat va boshqa huquq manbalari dinning har qanday turidan alohida bo'lishi kerakligi haqidagi tushuncha.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub o'zgarishlar nimalardan iborat?
2. XIX asr oxiri va XX asr davomida ilmiy-texnik inqilobga olib kelgan kashfiyotlarni tartib raqami, davlat, yili, kashfiyot turi tarzida jadval holatiga keltiring.
3. Qanday omillar XX asrda ilmiy-texnik inqilobga olib keldi?





## 2- mavzu

# “Yanada Buyuk Britaniya” uchun: yangi iqtisodiy va mafkuraviy tizimning paydo bo‘lishi



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Dunyo tarixida birinchi parlament qay tariqa vujudga kelgan?
2. “Qit’a qamali” siyosati Buyuk Britaniya uchun qanday oqibatlarga olib keldi?
3. Buyuk Britaniyada barqaror fuqarolik jamiyatini shakllantirgan omillarga misollar keltiring.

**N**apoleon urushlarining yakunlanishi Yevropada taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi.

Angliya uzoq yillar jahon siyosatida yetakchi o'rinni egallab keldi, "jahon ustaxonasi" degan nom oldi, birinchi davlatga, dunyoning moliyaviy markazi va liberal jamiyatning namunasiga aylandi.

XIX asrning o'rtalariga kelib Angliyada barqaror fuqarolik jamiyati shakllandi. Inqilob tarafdorlari bo'lgan radikal kuchlar siyosiy jarayonlardan chetlatildi – Angliya taraqqiyotning **evolyutsion yo'lini** tanladi.

Bu davrdagi iqtisodiy yuksalish ishchilarga o'z ahvollarini yaxshilash uchun kurashish imkonini berdi. Kasaba uyushmalarining ish vaqtini qisqartirish va o'z faoliyatlarini legallashtirish uchun kurashi ular saflarining sezilarli kengayishiga olib keldi. O'sha davrda ko'pchilik ishchi tashkilotlari muammolarni hal qilish yo'llarini inqilobiy harakatdan emas, islohotchilikdan izlash lozim deb hisoblashardi.



*Xalqaro sotsialistik ishchilar va kasaba uyushmalari kongressi, London, 1896-yil*



## ESGA OLING

*Fuqarolik jamiyati – ...*

Ammo XIX asrning 70-yillariga kelib Angliya sanoatning rivojlanish sur'atlari bo'yicha Germaniya va AQSH kabi yosh sanoat mamlakatlaridan ortda qola boshladi. Sanoatning yangi sohalari bo'lgan kimyoviy ishlab chiqarish va elektrotexnikada ham Germaniya va AQSH Angliyadan o'zib ketgandi.

Angliya sanoati nisbatan sekin rivojlanishining asosiy sababi uning texnik qo'loqligi edi. Yosh kapitalistik mamlakatlar – Germaniya va AQSHda sanoat korxonlari o'z davrining eng ilg'or texnikasi asosida qurilayotgan, Angliyada esa sanoat ancha oldin paydo bo'lganligi sababli ko'plab zavod va fabrikalarning uskunlari eskirib qolgan edi.

XX asr boshlariga kelib AQSH dunyoning birinchi sanoat mamlakatiga aylandi. Germaniya sanoati ham bir qator muhim sohalar, masalan, metallurgiya bo'yicha katta tezlik bilan Angliyani quvib o'ta boshladi. Germaniya savdo sohasida ham katta raqobatni vujudga keltirdi. XIX asr oxirlaridayoq nemislarning arzon tovarlari Angliya va uning mustamlakalari bozorlariga kirib keldi.

Shu tariqa Angliya dunyoning birinchi sanoat mamlakati maqomini yo'qotdi va birinchi jahon urushi arafasida **Pax Britanica** (*Paks Britanika* – "Britaniya dunyosi") davri o'z yakuniga yetdi.

Ammo XX asr boshlarida ham Angliya dunyoning eng boy mamlakati bo'lib qolayotgan edi. Bu davrda sanoati rivojlangan boshqa mamlakatlar Angliya singari yirik kapitalga ega emasdi.

Birinchi jahon urushi arafasida beshta yirik bank moliya bozorida yetakchilik qilardi, ular Londonning markaziy dahasi – Sitida joylashgan bo'lib, butun dunyo bo'ylab filiallariga ega edi. Bu banklar o'z kapitallarini butun dunyo bo'ylab foydali sohalarga joylashtirdi va bu jarayon **kapital eksporti** deb ataldi. Angliya sanoat ishlab chiqarishida ortda qolgan sari kapital eksporti katta ahamiyat kasb etib, foyda olishning muhim manbalaridan biriga aylanib bordi.

Bu davrda ham Buyuk Britaniya iqtisodiyoti mustamlakachilik xarakteriga ega bo'lib qolaverdi. Britaniya imperiyasining hududi 1884-yildan 1900-yilgacha 30% ga kengaydi, aholisi bir yarim marta ko'paydi. Birinchi jahon urushi arafasida ingliz mustamlakalarida 400 mln kishi yashardi.

Mustamlakalar uchun bo'lgan urushlarning eng yirigi 1899–1902-yillardagi ingliz-bur urushi bo'ldi. *Burlar* gollandiyalik mustamlakachilarning avlodlari bo'lib, ular Janubiy Afrikada Transvaal va Oranj nomli ikkita respublika tuzishgan edi. Burlar asosan chor-




## BILIB OLING

*XIX asrning 70-yillarida...*

*Birinchi sanoat mamlakati maqomi – ...*

*XX asr boshlarida...*




*Ip yigirish korxonasi*



## O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQRING

*Qanday sabablar  
tufayli Buyuk Britani-  
ya dunyoning birinchi  
sanoat mamlakati  
maqomini yo'qotdi?*

*Sanoat inqilobi  
davrida korxonalar  
ishchilari*



vachilik bilan shug'ullanishardi. Angliya uzoq davom etgan urushdan so'ng, 1902-yili bu ikki respublikani ham o'ziga bo'ysundirdi. Angliyaning mustamlakachilik intilishlarini jahon jamoatchiligi qoraladi. Bu esa xalqaro maydonda uning nufuzi tushib ketishiga olib keldi.

Mustamlakalarda mahalliy aholi dahshatli ekspluatatsiya qilinar, ularning yerlari tortib olinib, o'zlari mustamlakachilar foydasiga ishlashga majbur etilar edi. Og'ir soliqlar, o'ta past ish haqi aholining qashshoqlashuviga va butun boshli xalqlarning qirilib ketishiga olib keldi. Ko'plab ingliz mustamlakalarida mahalliy aholi to'liq qirilib ketdi. Bu yerlarning aholisini endi yevropaliklar, asosan inglizlar tashkil eta boshlagandi. Bunday mustamlakalar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida avtonomiyalarga ega bo'ldi. Ular endi **dominion**lar deb atala boshlandi. Kanada, Yangi Zelandiya, Avstraliya ana shunday dominionlar edi.

Angliya rivojlanishning evolyutsion yo'lini tanlagani uchun parlament va saylov islohotlari davom ettirildi. 1868-yili shaharlarda ishchilarning bir qismi saylov huquqiga ega bo'ldi. Tez orada bu barcha grafliklarda joriy qilindi. XX asr boshiga kelib jamoa palatasining ustuvorligi aniq belgilab qo'yildi, lordlar palatasining huquqlari esa cheklanib bordi.

Imperiyaga 64 yil hukmronlik qilgan qirolicha **Viktoriya** 1901-yili vafot etdi va taxtga uning katta o'g'li **Eduard VII** keldi. Eduard VII ingliz diplomatiyasida hukmronlik qilgan "ajoyib izolyatsiya" siyosatini tugatdi. Qirol siyosatining muvaffaqiyati deb Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi munosabatlarning iliqlashuvini aytish mumkin. Rossiya bilan ham kelishuv imzolandi. Eduard VII davri Angliya tarixida **ajoyib davr** deb ataldi.

Viktoriya davrining "unutilgan mashhur" yozuvchisi **Jozef Redyard Kipling** "yanada Buyuk Britaniyani yaratish" tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. "Madaniyatdan orqada qolgan" xalqlarga faqat oq tanlilar yordam berishi mumkinligiga Kipling chin dildan ishonadi. Yozuvchining bu qarashlari "Oq tanlilar yuki" deb nomlangan she'rida o'z



## TARIXIY MUSHOHADA

*Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik yurishlari va uning natijalari qanday oqibatlarga olib keldi?*

ifodasini topadi. Kipling o'zining bu she'ri, hayotiy falsafasi va inglizlarning sivilizatsiyachilik missiyasiga qat'iy ishonchi bilan Charlz Dilk, Jon Sili va Sesil Rods singari imperiya maddohlari qatoridan joy oladi.

Ular imperiya haqidagi mifni yaratdilar. Bu mifning markazida britaniyaliklar boshqaruvi eng yaxshi boshqaruv usuli ekanligi haqidagi tasavvur yotadi. O'sha davr inglizlarining fikricha, osiyolik va afrikaliklar o'z mamlakatlarini mustaqil boshqarish va rivojlantirishga qodir emaslar. Osiyo va Afrika davlatlarining ichki ishlariga inglizlarning aralashuvi, hokimiyatlarni ag'darishi ko'pincha bu davlatlardagi siyosiy tizimning kamchiliklarini bartaraf qilish sifatida qaraladi.

Xullas, bu davrda Angliya dunyoning yetakchi imperiyalaridan biri bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, imperiyaning avvalgi qudrati so'nib borayotgani, yangi davrlar boshlanayotganligini ingliz jamiyati ham his qilayotgan edi.



## ATAMALAR MAZMUNI

**Pax Britanica** (lotincha, Paks Britanika – “Britaniya dunyosi”) – Buyuk Britaniyaning 1815-yilgi Vaterloo jangidan boshlab Birinchi jahon urushiga qadar dengizdagi va xalqaro munosabatlardagi hukmronlik davri.

**Dominion** (qaram yer) – ingliz qiroli (qirolicha)ni davlat boshlig'i deb tan oladigan va Britaniya imperiyasi tarkibida bo'lgan davlat.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. XX asr boshlarida Buyuk Britaniya sanoatining rivojlanish sur'atlari nima sababdan sekinlashdi?
2. Kapital eksporti tushunchasining mohiyati nimalardan iborat edi?
3. Qirolicha Viktoriya va uning katta o'g'li Eduard VII hukmronligi yillarida Buyuk Britaniya tashqi siyosatida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
4. Jozef Redyard Kipling o'z asarlarida Buyuk Britaniya tarixining qaysi xususiyatlarini aks ettirgan?





## 3- mavzu

# Fransiya va Germaniya: Yevropada yetakchilik uchun kurash



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. General shtatlar qachon vujudga kelgan?
2. Germaniya uchun Vena kongressi qanday oqibatlarga olib keldi?
3. “Fransiya tarixida Napoleon Bonapart” mavzusida esse yozing.





*Parij xalqining qo'zg'olon ko'tarishi*

## FRANSIYA

**F**ransiyada Ikkinchi imperiya 1870-yilgacha yashadi. Shu yili boshlangan Fransiya-Prussiya urushi dastlabki janglardan oq Fransiya armiyasining urushga yaroqsizligini ko'rsatdi. Bir necha og'ir janglardan so'ng fransuzlar taslim bo'ldi, imperator **Napoleon III** asir olindi.

Bu halokat butun Parijni oyoqqa turg'azdi. Hokimiyat o'zlarini "milliy mudofaa hukumati" deb atagan bir guruh siyosatchilar va harbiylar qo'liga o'tdi. Yangi hukumat o'zining butun e'tiborini Prussiya bilan kelishishga qaratdi, chunki iqtisodiy vayrongarchilik, ommaning qashshoqligi natijasida vujudga kelgan inqilobiy holatdan qo'rqqan hukumat har qanday yon berishlar evaziga bo'lsa ham kelishishga tayyor edi.

Olti oydan buyon prusslar armiyasi tomonidan qamal qilinayotgan Parij shahrining ishsizlik va ochlikdan azob chekayotgan aholisi 1871-yil martda qo'zg'olon boshladi. Milliy gvardiyaga birlashgan proletariat **Kommunani** ta'sis qildi va unda o'zlarining azaliy orzulari – ijtimoiy respublika tamoyillarini o'rnatmoqchi bo'ldilar.



### ESGA OLING

*Yangi davrda  
G'arbiy Yevro-  
pada Fransiya  
va Germaniya  
munosabatlari  
keskinlashuviga  
nima sabab  
bo'lgan?*



Kommuna doimiy armiyani bekor qildi. Burjua sudi ham bekor qilindi. Cherkov davlatdan ajratildi. Rahbar organlarning saylab qo'yilishi haqidagi dekret qabul qilindi. Kommunani tan olmagan eski amaldorlarning hammasi lavozimlaridan ozod qilindi.

Kommuna Fransiyaning davlat tuzilishini qayta qurish rejasini ishlab chiqdi va e'lon qildi. Rejaga ko'ra, Fransiya Parij kommunasi tipidagi erkin kommunalarni birlashtirgan respublika bo'lishi lozim, shaharlar va eng kichik qishloqlar ham o'z-o'zini boshqarishning to'la huquqiga ega bo'lishi va bu huquqlar qo'shni kommunalarning shunday huquqlari va mamlakat manfaatlari bilangina chegaralanishi mumkin edi.

Barcha urinishlarga qaramasdan, fransuz va pruss armiyalari tomonidan qurshab olingan Parij kommunasi 72 kunlik qizg'in faoliyatidan so'ng 28-may kuni quladi. O'n minglab kishilar o'ldirildi, qamaldi, surgun qilindi. Umumiy hisobda Parij o'zining 100 ming o'g'il-qizidan ayrildi.

*Fransiya imperatori  
Napoleon III*

Parij kommunasidan keyin Fransiyada respublika tuzumi uzil-kesil o'rnatildi. Monarxiyaga qaytish endi mumkin emasdi: xalq va burjuaziyaning katta qismi biron-bir shakldagi monarxiyani boshqa xohlamasdi. Shu sababli Fransiyada 1870-yil 4-sentyabrda e'lon qilingan Uchinchi respublika Ikkinchi jahon urushigacha mavjud bo'ldi.

1875-yilgi Fransiya konstitutsiyasining xarakteri oxir-oqibatda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar bilan belgilandi. Bu o'zgarishlar orasida yirik mashina sanoatiga o'tishning yakunlanganligi alohida ahamiyat kasb etib, u yangi tarixiy davrning kirib kelayotganligidan darak berardi.



### **O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQRING**

*Fransiya-Prussiya  
urushi hamda Parij  
kommunasining 72  
kunlik faoliyati Yev-  
ropa tarixida qanday  
o'rin tutadi?*


Butun XIX asr davomida Fransiya sanoat ishlab chiqarishining darajasi bo'yicha Angliyadan keyin – ikkinchi o'rinni egallab keldi. Asr oxiriga kelib esa yosh kapitalizm mamlakatlari bo'lgan AQSH va Germaniyadan ham ortda qolib ketdi. Taraqqiyot darajasining sekinlashuvi Fransiya iqtisodiyotining belgilaridan biriga aylandi. Shunga qaramasdan, Fransiya banklari asr oxirida juda katta moliya kapitaliga egalik qilardi. Bu holat banklarning *konstratsiyalashuvi*, ularning sanoat bilan qo'shilib ketishi va moliya kapitalining shakllanishiga olib keldi. Moliya oligarxiyasi mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida asosiy kuchga aylandi.



## YODDA TUTING

*Parij kommunasi  
72 kunlik qizg'in  
faoliyat olib bordi.*

*1870-yil 4-sen-  
tyabrda Fransiyada  
Uchinchi respublika  
e'lon qilindi.*



### *Parij kommunasi yig'ilishi*

XX asr boshlariga kelib Fransiya dunyoning eng qudratli davlatlari qatoriga kirsada, inqiloblar va urushlardagi juda katta yo'qotishlar tufayli rivojlanish sur'atlari tobora pasayib borayotgan edi.

## GERMANIYA

**F**ransiya-Prussiya urushi prussiyaliklarning g'alabasi bilan yakunlangandan so'ng, 1871-yil yanvarda Prussiya imperatori **Vilgelm I** Versal saroyining serhasham oynaband zalida Germaniya imperatori deb e'lon qilindi. Mamlakatni birlashtirish uchun olib borilgan uzoq yillik kurash yakunlandi.

Nemislar tantana qilardi. Bismark mamlakatni birlashtirishni uddaladi. Janubiy german davlatlari bilan shartnomalar imzolandi. 1871-yil bahorida birinchi imperiya reyxstagi konstitutsiya qabul qildi. Konstitutsiya Prussiyaning imperiyadagi yetakchilik rolini mustahkamladi. Germaniya jadal rivojlanayotgandi, uning sanoat mollari barcha qit'alardagi bozorlarga kirib borgandi. Xo'sh, bunday muvaffaqiyat siri nimada edi?

Eng avvalo, bu mamlakatning birlashtirilishi va natijada yagona ichki bozorning shakllanishi bilan bog'liq edi. Bojxona chegaralari yo'q bo'ldi, yagona pul birligi, og'irlik va uzunlikning yagona o'lchov tizimi joriy qilindi. 1871-yildan 1875-yilgacha mamlakatda juda ko'plab sanoat kompaniyalari va banklar paydo bo'ldi.

XIX asrning 90-yillarida Germaniya katta iqtisodiy sakrashni amalga oshirdi. Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo'yicha agar 1870-yili jahonda to'rtinchi o'rinda bo'lsa, 1880-yili uchinchi, 1913-yili esa AQSHdan keyingi – ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Yirik sanoat banklari va korporatsiyalarni tashkil qilish jarayoni davom etdi. Ulardan ba'zilari monopoliyalarga aylandilar. Yirik korporatsiyalar eng avvalo og'ir sanoatda tashkil qilindi. Sanoatning bitta yoki bir nechta sohasini nazorat qiluvchi sanoat magnatlari va uddaburon bankirlar paydo bo'ldilar.

Qishloqlarda tabaqalashuv jarayoni jadal davom etdi. Ko'plar shaharlarga ketishga majbur bo'ldi. Agar 1871-yili Germaniya aholisining 1/3 qismi shaharlarda yashagan bo'lsa, 1910-yilga kelib 2/3 qismi shaharlarda istiqomat qilardi.

Germaniya industrial mamlakatga aylandi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Germaniya faol mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Imperator **Vilgelm II** "yangi kurs"ni e'lon qildi. Yevropada hukmronlikka intilish, Afrika, Osiyo va Okeaniyada ta'sir doiralarini qayta bo'lish bu kursning asosini tashkil qildi. Germaniya mustamlakalar "adolatsiz" bo'lingan deb hisoblardi. U eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egalladi va mustamlakalardan o'z iqtisodiy qudrati va siyosiy mavqeyiga mos ulush talab qila boshladi. Buni esa katta urushsiz hal qilishning iloji yo'q edi.

Shu tariqa Germaniya katta urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi.



*Napoleon III ning taslim bo'lishi*



### TARIXIY MUSHOHADA

*XIX asrning 70-yillarida Germaniyaning jadal rivojlanishi qanday omillar sabab yuz berdi?*



Germaniya imperatori Vilgelm I



## ATAMALAR MAZMUNI

**Parij kommunasi** – 1871-yilning 18-martidan 28-mayigacha Fransiyani boshqargan muvaqqat hukumat.

**Dekret** – oliy hokimiyat yoki boshqaruv organi chiqargan va qonun kuchiga ega bo'lgan muhim qaror.

**Konsentratsiya** (lotincha *con* – “birga” va *centrum* – “markaz”) – biror narsaning muayyan joyda to'planishi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fransiya-Prussiya urushi har ikki davlat uchun qanday yakunlandi?
2. Parij kommunasi amalga oshirgan islohotlar Fransiyaning keyingi rivojlanishi uchun qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
3. Qaysi tarixiy voqea bilan Germaniyani birlashtirish uchun olib borilgan uzoq yillik kurash yakunlandi?
4. Imperator Vilgelm II e'lon qilgan “yangi kurs”ning mazmun-mohiyati nimalardan iborat edi?





# 4 - mavzu

## Sharqiy Yevropa va Rossiya: jamiyatni isloh qilish muammolari



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sharqiy Yevropa davlatlariga qaysi davlatlar kiradi?
2. Avstriya-Vengriya imperiyasining zaiflashuviga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat?
3. Yangi davrda Rossiya imperiyasining ichki va tashqi siyosati haqida nimalarni bilasiz?





Avstriya-Vengriya imperatori Frans Iosif I va uning oilasi

## SHARQIY YEVROPA MAMLAKATLARI

**XIX** asr oxirida Sharqiy Yevropaga Bolqon mamlakatlari, shuningdek, Avstriya-Vengriya va Rossiya imperiyalarining bir qismi kirardi.

XIV–XV asrlarda Bolqon mamlakatlarida oʻrnatilgan Usmoniylar imperiyasi hukmronligi XIX asrgacha, baʼzi hududlarda XX asrgacha saqlanib qoldi. 1878-yili Rossiya yordamiga tayangan **Serbiya** oʻz mustaqilligini eʼlon qildi. Shundan soʻng Serbiya jadal rivojlandi va Rossiyaga yanada yaqinlashib bordi. Ammo aholisi serblardan iborat va Serbiya bilan birlashish azaliy orzusi boʻlgan ikkita yirik viloyatlar – **Bosniya** va **Gersegovina** 1908-yili Avstriya tomonidan anneksiya qilindi.

**Avstriya-Vengriya** imperiyasi 1867-yili ikki davlat – Avstriya va Vengriya hukmron doiralari kelishuvi asosida tashkil topgan edi. Ungacha **Chexiya**, **Moraviya**, **Galitsiya** va **Bukovina** Avstriya tarkibiga, **Slovakiya**, **Xorvatiya** va **Transilvaniya** Vengriya davlati tarkibiga kirar edi.

Shu yili imperiya konstitutsiyasi qabul qilinib, unga binoan Avstriya imperatori birlashgan imperiya hukmdori boʻldi. Gabsburglar sulolasi 1918-yilgacha taxtda oʻtirdi.

XIX asrning oxirgi choragida Avstriya-Vengriya imperiyasi Yevropaning eng qoloq mamlakatlaridan biri boʻlib, saqlanib qolgan feodal munosabatlar sanoat taraqqiyotiga toʻsiq boʻlayotgan edi. Asr oxiriga kelib aholisining faqat uchdan bir qismi shaharlarda yashardi.



### ESGA OLING

*Rossiya imperiyasi qachon tashkil topgan?*



## O‘YLAB KO‘RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Avstriya-Vengriya imperiyasi Yevropaning eng qoloq mamlakatlaridan biri bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan omillarni toping. Fikringizni mantiqiy izchillikda infografika ko‘rinishida ifodalang.*

Bu davrda Sharqiy Yevropaning imperiya tarkibiga kirgan xalqlari orasida milliy-ozodlik harakatlari ham avj oldi. 1912-yili boshlanib ketgan iqtisodiy inqiroz imperiya-ning ahvolini yanada og‘irlashtirdi. Shunday holatda Avstriya-Vengriya Birinchi jahon urushiga kirib keldi.



### ROSSIYA

Rossiyada XIX asrning 60–70-yillarida o‘tkazilgan islohotlar – krepostnoy huquqning bekor qilinishi, yer islohoti, moliya, universitet, maktab, matbuot islohotlari va boshqalar mamlakatning yangi – burjuacha taraqqiyot kursini belgilab berdi.


XIX asrning 80–90-yillarida Rossiya sanoat ishlab chiqarishida bir qator yutuqlarga erishdi. XIX asrning 90-yillariga kelib sanoat to‘ntarishi yakunlandi va mamlakat ishlab chiqarishning umumiy hajmi bo‘yicha dunyoning beshta eng yirik industrial davlatlari qatoriga qo‘shildi.

*Rus imperatori Aleksandr II*

### 1905–1907-yillardagi Birinchi rus inqilobi

**1905**–1907-yillardagi Birinchi rus inqilobi Rossiyada rivojlanayotgan kapitalistik jamiyat bilan mustabid podsho tuzumi o‘rtasida katta ziddiyat mavjudligini, xalq endi eskicha yashashni istamasligini ko‘rsatdi.

Inqilob o‘z oldiga qo‘ygan vazifalariga ko‘ra burjua inqilobi bo‘lib, avvalo krepostnoylik qoldiqlarini yo‘q qilishga qaratilgan edi. Bu vazifalar juda muhim, zero, ular Rossiya aholisining barcha qatlamlari manfaatlariga to‘liq mos edi. Shu sababli inqilob jarayonida aholining juda keng qatlamlari ishtirok etdi.



### 1905–1907-YILLARDAGI INQILOB NATIJALARI

Tuzum va ijtimoiy ahvol	Inqilobgacha	Inqilobdan so'ng
<b>Samoderjaviye</b>	Hech kim va hech narsa bilan cheklanmagan edi.	Davlat Kengashi va Davlat Dumasi bilan cheklandi.
<b>Aholining asosiy qatlamlari</b>	Siyosiy erkinliklardan mahrum edi.	Siyosiy erkinliklarga, jumladan, shaxs daxlsizligiga ega bo'ldi.
<b>Mehnat sharoitlari</b>	Ishchilarni ekspluatatsiya qilish yuqori darajada edi.	Ish haqi oshirilib, ish vaqti 9–10 soatgacha qisqartirildi.

### Tashqi siyosat

**1905**–1907-yillardagi inqilob yakunlanmay qoldi. U o'z oldiga qo'ygan jiddiy muammolarni hal qilolmadi: podsho hokimiyatda qoldi, hukmron qatlam o'zgarmadi, byurokratiya yo'q bo'lmadi, korrupsiya yanada kuchaydi, odamlarning yashash darajasi tushib ketdi va hokazo. Ammo bu inqilob Rossiyadagi ikkinchi – 1917-yilgi fevral inqilobi uchun muqaddima bo'ldi, zero, ikkinchi inqilobning natijalari birinchi inqilobning davomi edi.



#### BILIB OLING

*Gabsburglar sulolasi...*

*Rossiyada XIX asrning 60–70-yillarida o'tkazilgan islohotlar – ...*

*Yevropa yo'lini takrorlash...*

## Madaniyat

Rossiya hayotida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuz bergan barcha o'zgarishlar: islohotchilikka urinish, mamlakatni sanoatlashtirish uchun harakat, krepstnoy huquqqa qarshi kurash va uning bekor qilinishi, ijtimoiy ziddiyatlar va inqilobiy harakatlar – bularning barchasi adabiyot va san'atda o'z aksini topdi. Agar qolgan barcha sohalarda Rossiya Yevropaning ortidan borayotgan bo'lsa, XIX asrda rus adabiyoti va san'ati butun dunyoga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Bu davrda adabiyotda **F. M. Dostoyevskiy**, **L. N. Tolstoy** va **A. P. Chexov** singari daholar ijod qildi. Shu davrdagi rus kompozitorlari – **M. P. Musorgskiy**, **P. I. Chaykovskiy** va **N. A. Rimskiy-Korsakov**larning asarlari jahon musiqa san'atining durdonalaridan hisoblanadi.

Xullas, bu davrda Rossiya jamiyatidagi hal etilmagan dolzarb muammolar uni Birinchi jahon urushida ishtirok etishga undadi. Bu esa Rossiyaning demokratik rivojlanish yo'lidani borish imkoniyatini yo'qqa chiqardi va yetmish yil davom etgan kommunistik rejimga yo'l ochib berdi.



### ATAMALAR MAZMUNI

**Anneksiya** – boshqa bir davlat hududini butunlay yoki qisman egallab olish yoki o'z davlatiga qo'shib olish siyosati.

**Byurokratiya** – dastlab hukumat idoralarining rahbarlari va amaldorlari hokimiyatini, keyinchalik jamiyatning turli sohalarida paydo bo'lgan yirik tashkilotlardagi xizmatchilar qatlamini ham ifodalagan.

**Samoderjaviye** – Rossiyada podshoning cheklanmagan mustabid hokimiyati va shunday hokimiyat asosiga qurilgan davlat tuzumi.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Serbiya qachon va qaysi mamlakat ko'magiga tayanib o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi?
2. Avstriya-Vengriya imperiyasida iqtisodiyotning qaysi sohalari jadal rivojlandi?
3. 1905–1907-yillardagi rus inqilobiga sabab bo'lgan asosiy omillar nimalardan iborat?
4. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya madaniy hayotida yuz bergan asosiy o'zgarishlar haqida so'zlab bering.



## 5- mavzu


# Ikki xil Amerika: Shimoliy va Janubiy Amerikada taraqqiyot yo'nalishlari



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. AQSH qachon o'z mustaqilligini e'lon qilgan?
2. Janubiy Amerika mamlakatlari qaysi Yevropa davlatlarining mustamlakalari hisoblangan?
3. Nima deb o'ylaysiz: nega Shimoliy va Janubiy Amerikada taraqqiyot yo'nalishlari bir-biridan tubdan farq qiladi?





AQSH prezidenti  
Vudro Vilson

## AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

**A**QSHda 1861–1865-yillarda bo'lib o'tgan fuqarolar urushi o'z mohiyatiga ko'ra burjua-demokratik inqilob edi. U AQSHning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti masalalarini, ular ichida eng muhimlaridan biri bo'lgan qulchilikning taqdirini burjuacha ruhda hal qildi. Natijada sanoat jadal rivojlandi, qishloq xo'jaligida esa kapitalizm rivojlanishining erkin fermerlikka asoslangan “amerikacha” yo'li qaror topdi.

Fuqarolar urushidan so'ng G'arbdagi keng hududlarni o'zlashtirish va bu jarayon bilan bog'liq temiryo'l va shosse yo'llar, kanallar va portlar qurilishi sanoatning o'sishiga, keng ichki bozorning shakllanishiga olib keldi. Amerika burjuaziyasi Yevropa kapitali va ilg'or mamlakatlarning texnik yutuqlaridan unumli foydalandi. Yevropa va Osiyodan kelayotgan millionlab immigrantlar sanoatni zarur ishchi kuchi bilan ta'minlab turdi. Sanoat mahsulotlarining umumiy hajmi bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlari 1894-yili barcha rivojlangan mamlakatlarni quvib o'tdi va dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi.



### ESGA OLING

AQSH “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning muallifi...

### AQSH “progressiv era” yillarida

**Y**angi asrga AQSH iqtisodiyotning ko'plab sohalarida birinchilikka intilayotgan, jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida kirib keldi. 1901-yili AQSHda prezidentlik lavozimini **Teodor Ruzvelt** egalladi. Ko'p vaqtdan beri mamlakatni bunday dadil, yorqin va zabardast shaxs boshqarmagan edi. U o'z faoliyatini mamlakatda islohotlar o'tkazish zarurligiga xalqni ishontirishdan boshladi.

1912-yilgi saylovlarda demokratlar vakili, taniqli tarixchi, davlatchilik va xalqaro munosabatlar bo'yicha mutaxassis **Vudro Vilson** g'olib chiqdi. U qat'iy islohotlar tarafdori sifatida juda tez tanildi, jamiyatga o'zining **yangi erkinlik** deb atalgan siyosiy dasturini taklif qildi.

V. Vilson dasturining muhokamasi Yevropada Birinchi jahon urushi boshlanishiga to'g'ri keldi. AQSH hali urushga bevosita jalb qilinmagan bo'lsa-da, urush omili ichki siyosatga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.





## O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*AQSH taraqqiyotiga sabab bo'lgan asosiy omillarni toping. Fikringizni mantiqiy izchillikda chizma ko'inishda ifoda eting.*

## Tashqi siyosat

O'zining katta ichki imkoniyatlari va Rossiyadan sotib olingan Alyaska yarimorolini o'zlashtirish bilan band bo'lgan AQSH mustamlakalarni egallash va o'z ta'sir doirasini kengaytirishga Yevropa davlatlaridan keyinroq kirishdi. Bunda AQSH o'z e'tiborini Lotin Amerikasi, Karib dengizi va Tinch okean qirg'oqlarida joylashgan mamlakatlarga qaratdi.

1889-yili AQSH tashabbusi bilan Vashingtonda **I Panamerika konferensiyasi** chaqirildi. Konfe-

rensia yakunida Amerika respublikalari yig'ini xalqaro assotsiatsiyasi tashkil qilindi. Shu tariqa AQSHning G'arbiy yarimshar mamlakatlari ustidan yagona hukmronligiga qaratilgan panamerika siyosati shakllandi.

Shundan so'ng AQSH Tinch okeandagi Osiyoga eltuvchi yo'llarning chorrahasida joylashgan **Gavayi orollarini** bosib oldi va XIX asr oxirida jahonning yirik dengiz mamlakatiga aylandi. 1898-yili Ispaniya bilan bo'lgan urushda g'olib chiqib, Puerto Riko, Guam orollarini o'ziga qo'shib oldi, shuningdek, Filippin AQSH mustamlakasiga aylandi, Kuba ustidan ham AQSH nazorati o'rnatildi.

## Madaniyat

AQSHda madaniyat mamlakatning etnik xilmaxilligiga mos ravishda shakllandi. Unga Irlandiya, Germaniya, Italiya, Polshadan kelgan emigrantlar, Afrikadan keltirilgan qullarning avlodlari, shuningdek, Amerika hindulari va Gavayi orollari aholisi katta ta'sir ko'rsatdi. Ammo AQSH madaniyatining asosini inglizabon aholi belgiladi. Ularning tili, huquq tizimi va madaniy yutuqlari bu yerda keng tarqaldi va Amerika sivilizatsiyasi shakllanishida asosiy omilga aylandi.

XIX asrning 60–90-yillari Amerika madaniyati rivojlanishining ikkinchi bosqichi bo'lib, bu davrda adabiyotda **Uolt Uitmen** va **Mark Tvenlar**, tasviriy san'atda **Uinslou Homer**, **Tomas Ikins** va **Jeyms Uistler** kabi buyuk ijodkorlar faoliyat yuritdi. XX asrdan boshlab Amerika madaniyatining o'ziga xos jihati unda *ommaviy madaniyat*ning ustuvorligi bo'lib qoldi.

*1880–1890-yillarda Nyu York shahrining ko'inishi*



## LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI

**XIX** asr oxiri – XX asr boshlarida Lotin Amerikasi iqtisodiyotiga chet el kapitalining kirib kelishi keskin faollashdi. Bu borada XIX asrda Angliya yetakchilik qilgan bo'lsa, asr oxiriga kelib Germaniya va ayniqsa AQSH investorlari juda faollashdilar.

XIX asr oxirida Lotin Amerikasi mamlakatlari-ning ko'pchiligi, jumladan, mintaqaning eng katta davlati **Braziliya** ham o'ta qoloq ijtimoiy tuzumga ega edi. Plantatsiyalardagi ishlab chiqarish asosan qullar mehnatiga asoslangan bo'lib, Braziliyada qulchilik faqat 1888-yili bekor qilindi va 1891-yili Braziliya respublika deb e'lon qilindi.

Lotin Amerikasi jamiyatining rivojlanishi va xarakteriga bu yerdagi etnik jarayonlar katta ta'sir ko'rsatdi. Turli xalqlar – hindular, qora tanlilar, yevropaliklar madaniyati va an'analari o'rtasidagi o'zaro ta'sir bu mamlakatlarda juda xilma-xil va o'ziga xos **etnopsixologik jamoalarning** shakllanishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, siyosiy madaniyatning, butun siyosiy jarayonlarning xarakterini belgilab berdi va ular jamiyatdagi siyosiy beqarorlikka, tez-tez bo'lib turadigan davlat to'ntarishlariga, qo'zg'olonlarga, inqiloblarga, siyosiy kurashning g'irrom usullaridan keng foydalanishga olib keldi. Ko'plab davlatlarda o'z faoliyatida armiyaga tayangan *avtoritar rejimlar* o'rnatildi.




### TARIXIY MUSHOHADA

*XIX asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishi bilan bog'liq muammolarga nimalar kiradi?*

## Meksika inqilobi (1910–1917)

**1910**-yilda boshlangan inqilob Lotin Amerikasining eng yirik davlatlaridan bo'lgan Meksikaning keyingi taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Inqilob oldingi tuzumdan saqlanib kelayotgan qoloq ijtimoiy munosabatlarni bartaraf etib, Meksika jamiyatining gurkirab o'sishida, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida, mintaqadagi yetakchi davlatga aylanishida hal qiluvchi rol o'ynadi.

1911-yili Meksikada diktator **Dias** hokimiyati ag'darildi. Shu yili oktyabrda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida **Madero** g'olib chiqdi. Ammo ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda hukumatning qat'iyatsizligi va unga qarshi kuchlarning AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlanishi Madero hukumatining inqiroziga olib keldi. 1913-yili fevralda boshlangan qo'zg'olon natijasida hokimiyatga general **Uerta** keldi. Madero qamoqqa olinib, otib tashlandi. Bu voqea fuqarolar urushining qaytadan avj olishiga sabab bo'ldi.



1916-yili AQSH hukumati chegaradagi tushunmovchilikni bahona qilib Meksikaga qo'shin kiritdi. Tashqi xavf oldida barcha inqilobiy kuchlar birlashdi, hukumatning Meksika hududidagi chet elliklar, avvalo amerikaliklar mulkiga nisbatan munosabati keskinlashdi. Interventlar bilan kurash qariyb bir yilga cho'zildi va 1917-yil fevralda AQSH qo'shinlarining Meksikadan olib chiqilishi bilan yakunlandi. Inqilob g'alaba qozondi.

## Madaniyat

**M**intaqa mamlakatlarida mahalliy hindular va afrikaliklar avlodlarining to'liq mifologik tasavvurlariga asoslangan madaniy qarashlari bilan yevropaliklarning ratsionalistik madaniyati aralashib, o'ziga xos Lotin Amerikasi madaniyatini shakllantirdi. XX asr boshlarida adabiyotda **Sezar Valyexo, Gabrila Mistral**, tasviriy san'atda **Diyego Rivera, Xose Orosko, David Sikeyros** kabi ijodkorlar faoliyat yuritdi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, XX asr boshlariga kelib Lotin Amerikasida mustamlakachilik davrida yaratilgan xo'jalik asta-sekin kapitalistik xo'jalikka aylanib bordi. Yirik shaharlar – sanoat va madaniyat markazlari paydo bo'ldi. Jamiyatda industrial sivilizatsiya belgilari yaqqol ko'rina boshladi.



## ATAMALAR MAZMUNI

**Avtoritar rejim** – siyosiy hokimiyat birgina hukmdor shaxs yoki bir guruh shaxslarning irodasi, markazlashgan hokimiyatiga asoslangan davlat boshqaruvi usuli.

**Intervent** – intervensiya uyushtiruvchi yoki unda qatnashuvchi. Intervensiya – bir yoki bir necha davlatning boshqa bir davlat ichki ishlariga zo'rlik bilan aralashuvi, uning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligiga qarshi qaratilgan harakatlari.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1861–1865-yillarda AQSHda bo'lib o'tgan fuqarolar urushi qanday natijalar bilan yakunlandi?
2. AQSH tashabbusi bilan chaqirilgan Vashingtondagi I Panamerika konferensiyasi Amerika xalqlari uchun qanday ahamiyat kasb etgan?
3. XIX asrning oxirgi choragida Lotin Amerikasining eng katta davlati bo'lgan Braziliyada qanday muhim voqealar sodir bo'ldi?



6-  
mavzu

## Yaponiya, Xitoy va Hindiston: islohotlarning osiyocha yo'li



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yaponiyaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat edi?
2. Xitoy tarixidagi qaysi sulolalarni bilasiz?
3. Hindiston tarixida Boburiylar sulolasi qanday o'rin tutadi?





**XIX** asr oxiri – XX asr boshlari “Osiyo uygʻonishi” davri boʻlib, unda Sharqning anʻanaviy jamiyatlarida sanoatlashtirish kurtaklari koʻrina boshladi. Bu bir tomondan sharqona anʻanalar saqlanib qolgan, boshqa tomondan Sharq mamlakatlari iqtisodiyotni modernizatsiyalash boshlangan ziddiyatli davr edi.



**ESGA OLING**

*Modernizatsiya – ...*

Bu davrdagi “gʻarblashish”, yaʼni yevropa-amerikacha davlat boshqaruviga, qonunchilik, taʼlim tizimi, kiyinish va yurish-turish madaniyati modeliga taqlid qilish, ularni koʻchirish – bularning barchasi Sharq mamlakatlarini mustamlakalashtirishning oqibatlar edi.



*Meydzi inqilobining sodir boʻlishi*

## YAPONIYA

**Y**aponiya ikki asr davomida Gʻarb mamlakatlari uchun “yopiq” boʻlib qolayotgan edi. Gʻarb mamlakatlarining savdo aloqalarini yoʻlga qoʻyish uchun qilgan barcha urinishlari *syogunlik* tomonidan qatʼiy rad etildi. 1868-yili harbiy-feodal hukumat – **Tokugava syogunligi** agʻdarildi. **Syogun** qoʻshinlari jangsiz taslim boʻldi va oʻzining otameros mulkiga joʻnab ketdi. Biroq Tokugava tarafdorlariga qarshi harbiy harakatlar davom ettirilib, 1869-yili syogunlik butunlay tugatildi. Bu yillardagi voqealar Yaponiya tarixida **Meydzi inqilobi** nomini oldi. Bu nom shuning bilan bogʻliqki, imperator **Mutsuxito** hukmronligi rasman **Meydzi** deb atalib, u **maʼrifatli boshqaruv** maʼnosini anglatadi. Meydzi davri 1868–1912-yillarni oʻz ichiga oladi.

## Meydzining burjuacha islohotlari



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Meydzi – “ma’rifatli boshqaruv” davrida Yaponiyada amalga oshirilgan barcha islohotlar yapon jamiyati uchun qanday yakun topdi?*



**1871**-yilda mamlakatning yagona davlatga birlashish jarayoni yakunlandi. Feodal yer mulklari tugatildi va to'g'ridan to'g'ri markaziy hukumatga bo'ysunuvchi prefekturalar joriy qilindi, tabaqalar soni uchtagacha qisqartirildi: unvonli aslzodalar, zodagonlar va oddiy xalq.

“Yangi Yaponiya”ni qurish aynan imperator hokimiyatining tiklanishi bilan bog'liq. Bu inqilobni amalga oshirganlar jadallik bilan mamlakatni qayta qurishga kirishdilar. Yaponlar o'ziga xos mo'jiza yaratdilar: ular aholi bir paytning o'zida ham G'arbda, ham Sharqda yashaydigan – ikki xil sivilizatsiyaga asoslangan mamlakatni qurdilar.

Iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchayishi bilan Yaponiyaning mustamlakachilik intilishlari ham avj olib bordi. 1904–1905-yillardagi rus-yapon urushidan keyin Yaponiya Janubiy Manchjuriya va Koreya ustidan o'z hukmronligini o'rnatib, Koreyaning tashqi siyosatini ham belgilay boshladi. 1910-yildan Koreya rasman Yaponiyaning mustamlakasi bo'lib qoldi.

*Yapon imperatori Mutsuxito (Meydzi)*

## Madaniyat

**M**odernizatsiya jarayonida G'arb madaniyatiga taqlid qilish, undan ilg'or fan va texnika yutuqlarini qabul qilish mamlakatning umumiy madaniy darajasini oshirishga xizmat qildi. Hukumatning madaniyatni yanada yevropalashtirish talabi aholining bir qismi, ayniqsa, ziyolilar o'rtasida norozilikni keltirib chiqardi. San'at namoyandalari orasida yapon milliy madaniyatini, o'ziga xos san'atini tiklash g'oyasi kuchaydi.

## XITOIY

Ikkinchi **afyun urushi** (1856–1860)dagi magʻlubiyatdan keyin Xitoyning hukmron doiralari mamlakatni Gʻarb davlatlarining daromad manbai-ga aylanib qolish xavfidan xalos qilishga yana bir bor urinib koʻrdilar. Natijada “oʻz-oʻzini kuchaytirish” (“szi syan”) nomini olgan taraqqiyotning yangicha yoʻli ishlab chiqildi. Bu yoʻl jiddiy oʻzgarishlarsiz 1895-yilgacha amalga oshirildi.

Shunga qaramasdan, aholi soni jihatidan dunyoning eng katta mamlakati chet davlatlarning yarim mustamlakasi boʻlib qolayotgan edi. XX asr boshlarida mamlakatning 400 mln aholisidan 90% i savodsiz edi.

Ana shunday murakkab tarixiy vaziyatda **Sun Yatsen** boshchiligida **Sinxay inqilobi** boshlanadi. U xitoyliklar taqvimini boʻyicha “sinxay” yilida boshlangani uchun shunday nom oladi. 1911–1912-yillardagi inqilob natijasida manchjurlar sulolasi taxtdan agʻdariladi, Xitoy respublika deb eʼlon qilinadi, ammo mamlakat siyosiy tarqoq holga tushib qoladi. 1912-yili Sun Yatsen **Gomindan** (“Milliy partiya”) partiyasiga asos soladi.

Respublika tuzumiga oʻtgan Xitoyda burjuacha taraqqiyot jadallashti. XIX asr oxirlarida madaniy sohada bir-biriga zid yoʻnalishlar paydo boʻldi. Bir tomondan adabiyotda, ayniqsa, sheʼriyatda mumtoz namunalarga taqlid qilish kuzatilsa, boshqa tomondan jamiyatning faqat oʻqimishli qismigagina tushunarli boʻlgan **venyan** – eski adabiy tilni asta-sekin siqib chiqarayotgan, aholining keng qatlamlariga tushunarli boʻlgan **bayxua** adabiy tilining tobora keng tarqalishi yuz berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida xitoy tilida oʻnlab gazeta va jurnallar paydo boʻldi.

Xullas, XIX asrning boshlarida hali buyuk davlat sanalgan Xitoy asr oʻrtalariga kelib Gʻarb davlatlari, soʻng esa AQSH, Rossiya va Yaponiyaning ham mustamlakachilik manfaatlari kesishgan eng muhim hududga aylandi. Xitoyning iqtisodiy va harbiy jihatdan qoloqligi, uning oʻz-oʻzicha saqlanib qolayotgan buyuk davlat maqomiga qaramasdan, uni Gʻarb davlatlarining yarim mustamlakasiga aylantirdi.



Sun Yatsen



### YODDA TUTING

*1889-yil boshlarida qabul qilingan Yaponiya konstitutsiyasiga binoan mamlakat konstitutsion monarxiyaga aylandi.*

*Xitoy tarixida ikkinchi “afyun urushi” 1856–1860-yillarda boʻlib oʻtgan.*



Faylasuf Svami Vivekananda

lanish mafkurasining dastlabki vakillari sifatida **Ramakrishna Paramahansa** va uning shogirdi **Svami Vivekananda** Hindistonda va chet ellarda ham mashhur edi. Hindiston milliy-ozodlik harakati g'oyasini targ'ib qilishda Vivekanandaning o'rni beqiyos. U hozirgi zamon Hindiston milliy harakatining asoschilaridan biri edi.

1885-yil dekabrda Bombeyda mamlakat tarixida birinchi nodiniy, umummilliy, amalda parlament tashkiloti – **Hindiston milliy kongressi** (HMK) tashkil qilindi. Hind vatanparvarlarining forumida Britaniya hukumati va parlamentiga kongresschilarning asosiy talablari shakllantirildi.

1906–1907-yillari hind musulmonlarining partiyasi – **Musulmon ligasi** ham tashkil qilindi. XX asr boshlarida mavjud Hindistonning siyosiy maqomi va parlament islohotlari masalasida ushbu partiya va HMK o'rtasida jiddiy kelishmovchilik mavjud emasdi.

## HINDISTON

**XIX** asrning oxirlariga kelib Hindistonda Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik zulmi yanada kuchaydi. Mustamlakachilar hind iqtisodiyotini Angliyaning industrial jamiyati ehtiyojlari uchun moslashtirishga harakat qildilar. Inglizlarning bevosita ishtirokida hind qishloq jamoasi barham topdi va Hindistonda kapitalistik munosabatlar yangi asosda rivojlana boshladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan Hindistonga ingliz kapitali kirib kela boshladi. Birinchi yirik sarmoya kiritilgan soha temiryo'l qurilishi bo'ldi. Temiryo'l qurilishiga sarmoya sarflagan kompaniyalar juda katta daromad oldilar.

Kapital kiritishning keyingi sohasi plantatsiya xo'jaligi bo'ldi. Angliya hukumati Hindistonda choy, qahva, kauchuk plantatsiyalarini ko'paytirish va turli imtiyozlar orqali qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratdi. Ingliz kapitalistlari fabrika-zavodlar qurilishi va tog'-kon sanoatiga ham yirik sarmoyalar kiritdilar.

Kapitalizm bilan birga Hindistonda milliy mafkura ham shakllanib bordi. Milliy yangi-



### TARIXIY MUSHOHADA

*XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yaponiya, Xitoy va Hindiston uchun umumiy bo'lgan islohotlarning osiyocha yo'lining kamchilik va yutuqlari nimalardan iborat?*

*Islohotlar Yaponiya, Xitoy va Hindiston jamiyati uchun nima berdi?*

## Madaniyat

**B**u davrdagi Hindiston madaniyati o'zining ko'p ming yillik an'alarini davom ettirish bilan birga ayni paytda ingliz madaniyatining ta'sirini ham o'zida aks ettirdi. Hindlar sevadigan musiqa, qo'shiqchilik, raqs san'atida ko'proq xalq an'analari saqlanib qolgan bo'lsa, adabiyot, tasviriy san'at kabi sohalar juda tez zamonaviylashib bordi. Hind adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri **Rabindranath Thakur** ham shu davrda ijod qildi. U "Gitanjali" ("Qurbonlik qo'shiqlari") turkum she'rlari uchun 1913-yili adabiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Shunday qilib, XIX asr oxiri – XX asr boshlari Hindistonning iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Sekinlik bilan bo'lsa-da, kapitalizm rivojlandi. Milliy-ozodlik harakati paydo bo'ldi va ingliz mustamlakachiligi hukmronligiga qarshi kurash yagona g'oyasi ostida birlashdi.



### BILIB OLING

*"Yopiq" mamlakat – ...  
1912-yili Sun Yatsen...*



Rabindranath Thakur



### IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Mustaqil tarzda Rabindranath Thakur ijodi bilan tanishing. Uning ijodida Hindistondagi hayotning qaysi jihatlari qamrab olingan? Fikringizni esse tarzida yozing.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sharq mamlakatlarida boshlangan iqtisodiyotni modernizatsiyalashning qanday ziddiyatli tomonlari mavjud edi?
2. Meydzi islohotlari Yaponiya uchun nimalar berdi? Mazkur islohotlarni sohalarga ajratib, jadval holatiga keltiring.
3. Xitoyda Sun Yatsen boshchiligidagi inqilob qanday yakunlandi?
4. Hindiston milliy kongressi mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashish uchun asosiy e'tiborini qaysi jihatlarga qaratdi?






## 7- mavzu

# Islom sivilizatsiyasi mamlakatlarda an'anaviylik va islohotchilik o'rtasidagi kurash



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qaysi jahon dinlarini bilasiz?
2. Islom dini qachon va qayerda vujudga kelgan?
3. Jahon madaniyatiga islom sivilizatsiyasi nimalar bergan?




Islom sivilizatsiyasi tarixida XIII–XIV asrlardan boshlangan intellektual tushkunlik XVI asrga kelib iqtisodiy va siyosiy inqirozni ham boshlab berdi. Bir paytlar jahon taraqqiyotining yalovbardori bo'lgan islom sivilizatsiyasi XVII asrga kelib chuqur intellektual inqirozga yuz tutdi va islom mamlakatlaridagi ta'lim va madaniyat markazlarining ko'pchiligi tor fikrli mutaassiblar va murosasiz jaholatparastlar o'chog'iga aylanib qoldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib islom sivilizatsiyasi mamlakatlari G'arbdan ancha orqada qolib ketgan edi.



### ESGA OLING

*Tarix fanidagi bilimlaringizga tayanib an'anaviylik va islohotchilik tushunchalariga ta'rif bering.*



Sulton Abdulhamid II

## TURKIYA



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Usmoniylar imperiyasining o'z davrida islom dunyosining eng qudratli davlatiga aylanishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat edi?*

**B**ir vaqtlar Usmoniylar imperiyasi islom dunyosining eng qudratli davlati bo'lib, u sultonning yakka hukmronligiga asoslangan monarxiya edi. Iqtisodiyotining asosini juda qoloq qishloq xo'jaligi tashkil qilganligi uchun ocharchiliklar bo'lib turardi. Usmoniylar hukumatining islohotchilik kursi ham puchga chiqdi. Barcha harakatlarga qaramasdan, XIX asrning oxirgi choragiga kelib Turkiya yarim mustamlaka, chet el kapitaliga qaram mamlakatga aylanib qolgan edi.

Ana shunday vaziyatda jamiyatning ilg'or qatlamlari orasida mavjud holatga qarshi norozilik kayfiyati kuchaya boshladi. 1865-yili Istanbulda maxfiy siyosiy tashkilot tuzilib, uning a'zolari o'zlarini “yangi usmoniylar” deb atadilar. Yevropada bu tashkilot “Yosh Turkiya”, uning ishtirokchilari “yosh turklar” nomini oldi. Ularning harakati tufayli Turkiyada islohotlar boshlandi.

1876-yili taxtga **Abdulhamid II** keldi, **Midhat posho** esa buyuk vazir lavozimini egalladi va bo'lg'usi konstitutsiya loyihasini tayyorlashga ruxsat oldi. Yosh turklarga bunday yon berilishi imperiyaning o'sha davrlardagi og'ir ahvolidan kelib chiqqan zarurat edi. Sulton Abdulhamid II ham shu sababli konstitutsiyani qabul qilishga majbur bo'ldi.

**1876-yil dekabrda** qabul qilingan "**Midhat konstitutsiyasi**" Turkiyani **konstitutsion monarxiya** deb e'lon qildi. Unda ikki palatali parlament tuzilishi ham ko'zda tutilgandi. Imperiyaning barcha fuqarolari usmoniyalar deb atalib, qonun oldida teng hisoblanadi. Bu konstitutsiya o'zining barcha kamchiliklariga qaramasdan, agar hayotga tatbiq qilinganida, o'sha davrdagi Turkiya uchun progressiv ahamiyatga ega bo'lishi mumkin edi.

**1877-yil bahorda** Rossiya-Turkiya urushi boshlandi. 1878-yil boshida Turkiyaning harbiy holati og'ir, armiya tor-mor qilingan, ruslar imperiya poytaxtiga yaqinlashayotgan edi. Sulton Abdulhamid II esa bu halokatli vaziyatdan foydalanib parlamentni tarqatib yubordi va "Midhat konstitutsiyasi"ni bekor qiladi. Deputatlarning bir qismini qamoqqa olib, mamlakatni yakka o'zi boshqarishini e'lon qildi. 1878-yil martda Istanbul yaqinidagi San Stefano nomli joyda ruslar bilan sulh imzolandi. Sulhning asosiy sharti mustaqil Bolgariya davlatini tuzish bo'ldi.



*Birinchi Usmoniyalar imperiyasi parlamentining ochilishi*



**Sulton Abdulaziz**




## YODDA TUTING

*1871-yili sulton Abdulazizning bosh vaziri Mahmud Nadim posho ta'qib qilingan "yosh turklar"ning afv etilishiga erishdi.*

*1876-yil dekabrda Turkiya konstitutsion monarxiya deb e'lon qilindi.*

1908-yili "Yosh turklar" partiyasidan bo'lgan zobitlar qo'zg'olon ko'tardi. **Yosh turklar inqilobi** nomini olgan bu inqilobiy voqealar Turkiyada feodal-mustabid tuzumni ag'darib tashladi va konstitutsiyani tikladi. Shu tariqa 1908-yilgi Turkiya inqilobi g'alaba qozondi.

Bir necha harbiy to'ntarishlardan so'ng 1913-yili hokimiyatga "Yosh turklar" partiyasining vakillari – **Anvar posho**, **Tal'at posho** va **Jamol posholardan** iborat uchlik keldi. Ular Birinchi jahon urushi arafasidagi murakkab xalqaro sharoitda Antantaga zid ravishda Germaniya bilan yaqinlashish siyosatini olib borishdi. 1914-yil avgustda o'ta maxfiy holatda Germaniya bilan shartnoma imzolandi. Mazkur shartnomaning imzolanishi Usmoniyalar imperiyasi halokatining muhim sabablaridan bir bo'ldi.



## FORS DAVLATI

**XIX** asrning ikkinchi yarmi Yevropa davlatlarining, birinchi navbatda, Angliya va Rossiyaning Forsda faol mustamlakachilik ekspansiyasi davri bo'ldi. Hokimiyatda turgan **qojarlar sulolasi** vakillari o'z xalqining talabidan ko'ra chet davlatlarning talabini bajarishni afzal ko'rdi. Forsni qaram qilishda chet el kapitali evaziga turli xil **kon-sessiyalar** olish va Tehronga pul qarz berish kabi usullardan keng foydalanildi. Natijada Fors Yevropa davlatlarining xomashyo bazasiga aylanib bordi.

Mamlakat iqtisodiyotidan tashqari davlat boshqaruvining ba'zi sohalari ham chet elliklarning nazoratiga o'tib ketdi. 1879-yili rus ofitserlari boshchiligida tuzilgan kazaklar polki keyinchalik brigadaga aylantirildi va Fors armiyasining yagona jangovar qismi sifatida shoh rejimining Rossiyaga qaramligini kuchaytirishga xizmat qildi.

Mamlakatdagi og'ir ahvol va **Muzaffariddin** shohning siyosati 1905–1911-yillardagi burjuademokratik inqilobiga olib keldi va u milliy-ozodlik harakati bilan qo'shilib ketdi. Inqilob jarayonida majlis (parlament) tuzildi, konstitutsiya qabul qilindi. Bu o'zgarishlarga qaramasdan, oxir-oqibatda qojarlar hokimiyati tiklandi va mamlakat Rossiya hamda Angliya tomonidan ta'sir hududlariga bo'lib olindi. Natijada Fors kuchli davlatlarning yarim mustamlakasiga aylantirildi.

Xullas, XIX asr oxiri – XX asr boshlari Yevropa davlatlari, AQSH va Yaponiyaning mustamlakachilik ekspansiyasi eng avj olgan davr bo'ldi. Islom dunyosi ham yirik hududlarga egalik qilayotgan metropoliyalar tomonidan deyarli to'liq bo'lib olindi; Turkiya, Fors singari mamlakatlar iqtisodiy zulm ostida qoldi, yarim mustamlakalarga aylantirildi.



### TARIXIY MUSHOHADA

*Bu davrda Turkiya va Fors davlati uchun umumiy bo'lgan an'anaviylik va islohotchilik o'rtasidagi kurash jamiyat rivoji uchun qanday ahamiyat kasb etgan?*

*Mazkur kurashlar Turkiya va Fors davlati uchun nimalar berdi?*



## IJODIY ISH TOPSHIRIG‘I

*Mustaqil tarzda dunyo sivilizatsiyalari tarixi bilan tanishing. Har bir sivilizatsiyaning kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun qo‘shgan hissasini tahliliy qamrab oling. Fikringizni esse tarzida yozing.*

Bu davrda boshqa mustamlakalar singari islom mamlakatlarida ham iqtisodiy hayotning nisbatan barqarorlashuvi yuz berdi. Infratuzilmalarni yaratish faol olib borildi: temiryo‘llar, dengiz portlari, irrigatsiya inshootlari qurildi. Islom mamlakatlarida mustamlakachi hukumatlar tomonidan bir qator eskirgan urf-odat va holatlar (qul savdosi, bolalar savdosi, ko‘pxotinlik) bekor qilindi. 1870–1914-yillari mustamlakalar, jumladan, islom mamlakatlariga investitsiyalar kiritish

ham keskin ortdi. Turkiya, Misr va Yaqin Sharq mamlakatlariga kiritilgan investitsiyalar hajmi barcha investitsiyalarning 50–60% ini tashkil qildi.

Islom mamlakatlarining madaniy rivojlanishida an’anaviylik bilan modernizm o‘rtasidagi keskin kurash asosiy rol o‘ynadi. Agar bir qator boshqa mamlakatlar, masalan, Yaponiyada an’anaviylik va modernizmni uyg‘unlashtirgan o‘ziga xos muhit shakllangan bo‘lsa, islom mamlakatlarida G‘arbning madaniy ta’siriga qarshi kuchli harakatlar olib borildi.



## MUSTAQIL ISH

*Xaritadan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiya va Eron hududlarini toping.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. “Yosh turklar” partiyasi qachon tashkil etildi? Partiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini sanab o‘ting.
2. Forsda 1905–1911-yillardagi burjua-demokratik inqilobi qanday yakunlandi?
3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Fors uchun umumiy bo‘lgan belgilar nimalardan iborat edi?
4. Bu davrda Fors davlatiga nisbatan chet el davlatlarining ta’siri qanday bo‘ldi?





## 8- mavzu

# Afrika mamlakatlari mustamlakachilik va taraqqiyot muammolari



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR


1. Afrika mamlakatlarining hududi asosan qaysi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan?
2. O'rta asrlar Afrika mamlakatlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat edi?
3. Yangi davr boshlarida Afrika mamlakatlari taraqqiyotining orqada qolish sabablarini sanab o'ting.

## XIX ASR OXIRIDA AFRIKA

Yangi davrning eng sharmandali hodisalaridan biri qulchilik va qul savdosi bo'ldi. Qul savdosi Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH kabi davlatlarda rasman XIX asrning birinchi yarmidayoq taqiqlangan edi. 1889–1890-yillardagi Bryussel konferensiyasi qul savdosini taqiqladi va Afrikadan qullarni maxfiy olib ketishga qarshi kurash boshlandi.

Qul savdosi u bilan shug'ullanuvchilar va savdogarlarga juda katta foyda keltirardi. Yevropa va Amerikadagi shaharlar – Bristol, Liverpul, Manchester, London, Nant, Ruan, Amsterdam, Nyu York, Yangi Orlean, Rio de Janeyro va boshqalarning jadal rivojlanishi va gullab-yashnashi qul savdosi bilan bog'liq edi. Qariyb to'rt asr ichida yevropaliklar Amerikaga 15–16 million qul olib kelishdi. Atlantika okeani orqali amalga oshirilgan qul savdosi jarayonlarida taxminan 60–70 million kishi halok bo'ldi. Qul savdosi Afrikaning sillasini quritish evaziga Yevropa va Amerika mamlakatlarining iqtisodiy gullab-yashnashiga xizmat qildi.

XIX asrning 70-yillarigacha davom etgan qul savdosining Afrika uchun eng og'ir oqibatlaridan biri psixologik holat bo'ldi: inson hayoti qadrsizlandi, quldorlar va qullarning degradatsiyasi (tanazzulga uchrashi) yuz berdi. Qulchilikning eng g'ayriinsoniy ko'rinishi – **rasizm** (irqchilik) mafkurasi shakllandi. To'rt asr davomida ko'pchilikning, avvalo yevropaliklarning tasavvurida qul deganda afrikalik, ya'ni qora tanli odam aks etadigan bo'lib qoldi. Ko'plab avlod Gana, Songay, Benin, Monomotapa kabi o'ziga xos sivilizatsiyalar haqida ma'lumotga ega ham bo'lmasdan, Afrikani faqat qul savdosi va qul tushunchalari orqaligina tasavvur qildi. Qul savdosi Afrika xalqlarining notarixiyligi, yuqori aqliy qobiliyatga ega emasligi to'g'risidagi g'ayriilmiy konsepsiyalarni keltirib chiqardi. Yevropaliklar Afrikani zabt etish va mustamlakalarga bo'lib olishdagi o'zlarining g'ayriinsoniy va axloqsiz harakatlarini oqlash uchun bu konsepsiyalardan ustalik bilan foydalandilar.



Berlin konferensiyasi

### 1884–1885-yillardagi Berlin konferensiyasi



#### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQRING

*Sizningcha, qul savdosining Afrika uchun eng og'ir oqibatlari qaysi jihatlarda ko'rinadi?*

**1884**–1885-yillardagi Berlin konferensiyasi Afrikani mustamlakaga aylantirish davridagi muhim voqealardan biri bo'ldi. Konferensiya Yevropa davlatlari ishtirokida “Qora qit'a” taqdirini muhokama qilishga bag'ishlangan birinchi maxsus yig'ilish bo'ldi. Yig'ilish Germaniya va Fransiya tashabbusi bilan chaqirilib, unda 12 ta Yevropa davlati hamda AQSH va Turkiya qatnashdi. Konferensiyada Afrikaga Yevropa davlatlari mustamlakachilik



va iqtisodiy ekspansiyasining obykti sifatida qaraldi.

Afrikaliklar nuqtayi nazarida Berlin konferensiyasi xalqlarning huquqlarini poymol qiluvchi imperialistik siyosatning namoyishi bo'ldi. Tropik Afrikadagi gazetalardan biri "Lagos observer" 1885-yili: "Dunyo hali hech qachon bunday katta miqyosdagi va surbetlarcha qilingan talonchilikka guvoh bo'lmagan edi. Biroq Afrika qarshilik qilishga ojiz", – deb yozgan edi.



## YODDA TUTING



*Yevropa va Amerikadagi shaharlar – Bristol, Liverpool, Manchester, London, Nant, Ruan, Amsterdam, Nyu York, Yangi Orlean, Rio de Janeyro va boshqalarning jadal rivojlanishi va gullab-yashnashi qul savdosi bilan bog'liq edi.*

*Berlin konferensiyasida Afrika Yevropa davlatlari mustamlakachilik va iqtisodiy ekspansiyasining obykti sifatida qaraladi.*

## AFRIKANING BO'LIB OLINISHI

Qit'ani mustamlakalarga bo'lib olish XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada kapitalizm taraqqiyotining natijasi bo'ldi. 1876-yilgacha Yevropa davlatlari tomonidan Afrika qit'asining faqat 10% i egallangan edi. 1900-yilga kelib Afrika qit'asining 9/10 qismi mustamlakachi bosqinchilar qo'liga o'tdi. Buyuk Britaniya qit'aning katta qismini bosib olgan bo'lib, bu hududlarda Afrika umumiy aholisining qariyb yarmi istiqomat qilardi.

Fransiya ham Afrika qit'asining katta qismini egallab olgan bo'lib, bu hududlarda Afrika aholisining qariyb uchdan bir qismi yashardi. Fransiya mustamlakalarining asosiy qismi G'arbiy va Ekvatorial Afrikada joylashgan va ancha qismi Sahroyi Kibirga to'g'ri kelardi. Qolgan hududlar Belgiya, Portugaliya, Ispaniya, Germaniya va Italiya o'rtasida taqsimlangan edi.

Barcha mustamlakalardagi yevropaliklar faoliyatining umumiy belgisi Afrika xalqlarini shafqatsiz ekspluatatsiya qilish va bu yerdagi boyliklarni talash bo'ldi.

## AFRIKA XALQLARINING MUSTAMLAKACHILIKKA QARSHI KURASHLARI

**M**ustaqillik uchun kurash yillarida Afrika vatanparvarlarining ajoyib qobiliyatlari namoyon bo'ldi. Qarshilik ko'rsatish harakatlariga asosan katta-kichik davlatlar va davlat birikmalarining hukmdorlari, qabilalar boshliqlari rahbarlik qildilar. Ular orasida, ayniqsa, **Samori, Behanzin, Raboh, Muhammad ibn Abdulla** kabilar o'z jasoratlari va ud-daburonliklari bilan mashhur bo'lganlar.



### TARIXIY MUSHOHADA

*Bu davrda Afrika mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan mustamlakachilik va taraqqiyot muammolarining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?*



XIX asr oxirida Tunis aholisi

Tropik Afrika mamlakatlarida milliy mafkuraning shakllanishida yangi, o'qimishli ijtimoiy qatlamning paydo bo'lishi katta rol o'ynadi. Odatda bu qatlamni mustamlaka rejimiga xizmat qilayotgan kichik amaldorlar, o'qituvchilar, ruhoniylar, shifokorlar va yuristlar tashkil qilardi. Ko'p hollarda bu afrikaliklar an'anaviy shakllangan ajdodlar dinidan voz kechishardi. Xristianlikni qabul qilganlaridan so'ng ularni bog'lab turgan qabilaviy aloqalar susayib, yevropacha madaniyatga intilish kuchayib borardi. Ana shu yangi qatlam doirasida milliy intelligentsiya (ziyolilar) shakllanib bordi.



### BILIB OLING

*XIX asrning 70-yillarigacha ...*

*1884–1885-yillardagi Berlin konferensiyasi ...*

*1876-yilgacha Yevropa davlatlari ...*



Xullas, Birinchi jahon urushi arafasida imperialistik davlatlarning Afrikani bo'lib olish jarayoni yakunlandi. O'z vatadini va mustaqilligini himoya qilgan yuz minglab afrikaliklar mustamlakachilar bilan bo'lgan tengsiz janglarda halok bo'ldilar. Mustamlakachilar esa qit'aning tabiiy boyliklarini talash, aholisini shafqatsiz ekspluatatsiya qilish evaziga cheksiz boyliklar orttirib, Yevropani yuksaltirishga hissa qo'shdilar.



### IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Afrika tarixida o'z jasoratlari va uddaburonliklari bilan mashur bo'lgan Samori, Behanzin, Raboh, Muhammad ibn Abdulla kabi xalq rahnamolari faoliyatidan hozirgi voyaga yetgan avlod nimalar o'rganishi mumkinligi haqida fikr yuriting.*

*Mazkur shaxslar faoliyatiga bag'ishlangan o'quv loyihasi yarating.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qul savdosi Afrika mamlakatlariga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. Berlin konferensiyasi Afrika mamlakatlari uchun qanday ahamiyat kasb etdi?
3. Afrika xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashlari qanday yakun topdi?
4. Birinchi jahon urushi arafasida Afrika xalqlari taraqqiyotida qanday jarayonlar kuzatildi?






F. Ferdinand

## Birinchi jahon urushi


(1914-yil 28-iyul – 1918-yil 11-noyabr)

Bosniyalik serb yigit – Gavrilo Prinsip tomonidan Avstriya-Vengriya taxti vorisi – Frans Ferdinand va rafiqasining o'ldirilishi urushga bir bahona bo'ldi. Urushayotgan mamlakatlar armiyalariga 74 milliondan ortiq kishi safarbar etildi. 1919-yil 28-iyun kuni g'olib davlatlar tomonidan tashkil etilgan Parij tinchlik konferensiyasida Germaniya Birinchi jahon urushini rasman yakunlagan Versal shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi.



## Holokost

Holokost Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniya va uning ittifoqchilari hududida, ular tomonidan bosib olingan hududlarda yashovchi yahudiylarning ta'qib va omma-viy qirg'in qilinishidir. Qirg'in natijasida 6 millionga yaqin odam o'lim lagerlarida halok bo'lgan.



## Ikkinchi jahon urushi

(1939-yil 1-sentyabr – 1945-yil 2-sentyabr)

Insoniyat tarixidagi fashistik Germaniya, Italiya va militaristik Yaponiya hamda antifashistik koalitsiya mamlakatlari o'rtasidagi eng yirik urush. Urushda 62 davlat qatnashdi. 40 davlat hududida janglar olib borildi.





**JAHON URUHLARI  
ORALIG'IDA SIVILIZATSIYA  
RIVOJINING IKKI  
YO'NALISHI: LIBERAL  
DEMOKRATIYA VA  
TOTALITAR-AVTORITAR  
DIKTATURA**



# 9- mavzu

## Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Demokratiya va monarxiya atamalariga misollar bilan ta'rif bering.
2. Totalitar va avtoritar diktatura nima?
3. Xalqaro ziddiyatlar keskinlashuvining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?



**XX** asr boshlariga kelib dunyo taraqqiyotining asosiy belgilaridan biri ilg'or industrial davlatlarning notekis rivojlanishi, tashqi siyosatda kapitalistik monopoliyalar va moliya oligarxiyasi manfaatlarining ustuvorligi hamda dunyoni qaytadan bo'lib olish uchun davlatlar o'rtasida kurashning kuchayishi bo'lib qoldi.



### ESGA OLING

*“Respublika” atamasiga ta’rif bering.*

*Uchlar ittifoqi imperatorlari: yuqorida Viktor Emmanuel III, chapda Vilgelm II, o’ngda Frans Iosif I*

## UCHLAR ITTIFOQI VA ANTANTANING VUJUDGA KELISHI

**XIX** asrning oxirgi 30 yilida rivojlanish sur’atlari keskin tezlashgan AQSH va Germaniya ilg'or industrial davlatlar qatoriga kirib oldilar. Bu davlatlarning jadal rivojlanishi natijasida ularning harbiy-iqtisodiy imkoniyatlari bilan dunyoning ta'sir doiralarga bo'linishi o'rtasida nomutanosiblik vujudga keldi. Dunyoni qaytadan bo'lib olish uchun kurash jahon siyosatining mazmunini belgilovchi eng muhim omilga aylandi.

1882-yili Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya **Uchlar ittifoqi** harbiy-siyosiy blokini tashkil qildi. Bu Yevropaning qarama-qarshi lagerlarga bo'linishini boshlab berdi va Birinchi jahon urushining boshlanishida alohida rol o'ynadi.

1904–1907-yillari Germaniya blokiga qarshi Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya o'rtasida harbiy-siyosiy blok shakllandi va u **Antanta** nomi bilan tarixga kirdi. Birinchi jahon urushi asosan shu ikki harbiy-siyosiy ittifoqlar o'rtasida bo'ldi.



### YODDA TUTING



*1882-yili Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya **Uchlar ittifoqi** harbiy-siyosiy blokini tashkil qildi.*

*1904–1907-yillari Uchlar ittifoqiga qarshi Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya o'rtasida harbiy-siyosiy blok shakllandi va u **Antanta** nomi bilan tarixga kirdi.*



*Gavrilo Prinsipning qo'lga olinishi    Frontdagi askarlar*

## BIRINCHI JAHON URUSHINING BOSHLANISHI

**1914**-yil 28-iyunda Avstriya-Vengriya taxtining vorisi – shahzoda Frans Ferdinand va uning xotini Bosniyaning Sarayevo shahrida “Mlada Bosna” (“Yosh Bosniya”) tashkilotining a’zosi Gavrilo Prinsip tomonidan otib o’ldirildi. Gavrilo Prinsipning bu qilmishi mudhish oqibatlarga olib keldi. Avstriya-Vengriya imperatori Vilgelm II o’z hukumatidan bu qotillikka javoban urush e’lon qilishni talab qildi. 23-iyulda Avstriya-Vengriya Serbiyaga ultimatum e’lon qildi, uni qabul qilish Serbiya uchun o’z mustaqilligini yo’qotish bilan barobar edi. Shunga qaramasdan, Serbiya deyarli barcha talablarni qondirishga rozi bo’ldi, ammo **28-iyul** kuni Avstriya-Vengriya Serbiyaga urush e’lon qildi.

Serbiyani aniq halokat holatiga tashlab qo’yish Rossiyaning imperiyachilik manfaatlariga zarar yetkazardi hamda slavyan va pravoslav birdamligi an’analariga xilof edi. Shu sababli Rossiyada umumiy safarbarlik e’lon qilindi. Germaniya hukumati Rossiyaga ultimatum e’lon qilib, safarbarlikni to’xtatishni talab qildi. Rossiya bu ultimatumga javob bermadi. Shundan so’ng Germaniya **1-avgust** kuni Rossiyaga, **3-avgust** kuni esa Fransiyaga urush e’lon qildi. **4-avgust** kuni Angliya Germaniyaga urush e’lon qildi.

Urush umumyevropa xarakteriga ega bo’lib, tezda Yevropa chegaralaridan chiqib ketdi. Yaponiya urushdan Xitoyni bo’ysundirishda, Tinch okeandagi Germaniya mustamlakalarini egallab olishda hamda Uzoq Sharqda o’z hukmronligini o’rnatishda foydalanmoqchi bo’ldi. **1914-yil avgustda** Yaponiya Germaniyaga urush e’lon qildi. Germaniya va uning ittifoqchilari tomonida Turkiya ham urushga qo’shildi. Urush shu tariqa kengayib, Yevropa, Osiyo va Afrika davlatlarini qamrab oldi va jahon urushiga aylandi.



Birinchi jahon urushi o'zining kelib chiqishi, xarakteri va natijalariga ko'ra, Serbiya, Chernogoriya, Belgiya va ozodlik uchun kurashyotgan boshqa xalqlardan tashqari barcha unda qatnashayotgan davlatlarning g'arazli manfaatlarini ifodalovchi imperia-listik, bosqinchilik xarakteridagi urush edi. Bunday xarakter urush olib borayotgan davlatlarning bosqinchilik maqsadlaridan kelib chiqardi.

### 1916–1918-yillardagi urush harakatlari

**1916**-yilning boshiga kelib cho'zilib ketgan urush Germaniyani muqarrar halokatga olib kelayotganligi aniq bo'lib qoldi. Mamlakat ichkarisida ham norozilik kayfiyati hukm surardi.

Bunday holatda Germaniya butun e'tiborini yana G'arbga qaratishga majbur bo'ldi. Ammo butun front bo'ylab umumiy operatsiya o'tkazish uchun endi Germaniyaning kuchi yetarli emasdi. Shunda nemislar bitta muhim joyda fransuzlarga zarba berishga qaror qildilar.



### IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Mustaqil tarzda adabiyotlardan Birinchi jahon urushida ishtirok etgan davlatlarning ichki va tashqi siyosati bilan tanishing. Ishtirokchi davlatlar ichki va tashqi siyosatda qaysi jihatlarga e'tibor qaratgan?*

*Fikringizni esse tarzida yozing.*



Shunday joy fransuzlar himoyasining muhim bo'g'ini bo'lgan **Verden** edi. Verdenda katta kuchlarini to'plagan nemislar 1916-yil fevralda hujum boshladilar. Bu yerda Germaniya 600 ming kishidan ayrildi, fransuzlar esa 360 ming kishini yo'qotdi. Verdendagi o'n oylik jang maqsadsiz qirg'inning ramziga aylanib qoldi.

## Urushning yakuniy bosqichi



### TARIXIY MUSHOHADA

*Birinchi jahon urushiga oid muhim ma'lumotlar qayd qilingan quyidagi jadvalga yana nimalarni qo'shimcha qilish lozim deb hisoblaysiz?*

**1917**-yil bahorda Antanta davlatlari urushda burilish yasash uchun samarasiz harakat qildilar. Urushayotgan tomonlarning holdan toyganligi aniq bo'lib qolgan edi. Germaniyada urushga qarshi chiqishlar boshlanib ketdi. Rossiya armiyasida 1917-yil Fevral inqilobidan so'ng jangovarlik susayib ketdi. 1917-yil yozda Fransiya armiyasida ham tartibsizliklar boshlandi. Angliya, Fransiya, Italiyada ishchilar urushga qarshi shiorlar bilan chiqa boshladilar.

Bunday vaziyatda AQSHning Antanta tomonidan urushga kirishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1918-yilning o'rtalariga kelib AQSH Yevropaga 1 mln ga yaqin qo'shin kiritgan edi. Avgust oyida Antanta davlatlari tashabbusni o'z qo'llariga olib, barcha frontlarda hujumga o'tdilar. Germaniya taslim bo'ldi.

**1918-yil 11-noyabr** kuni Germaniya delegatsiyasi Antanta davlatlari tomonidan qo'yilgan shartlarni imzoladi va urush yakunlanganligi e'lon qilindi.

1914–1918-yillardagi Birinchi jahon urushi shu tariqa yakunlandi. Germaniya va uning ittifoqchilari mag'lub bo'ldi. G'olib davlatlar tomonidan Germaniyaning talanishi, uni tiz cho'ktirish uchun qilingan harakatlar – bularning hammasi ularga qarshi reaksiya sifatida revanshizmning paydo bo'lishiga olib keldi va fashistlarning hokimi-

## BIRINCHI JAHON URUSHIGA OID MUHIM KO'RSATKICHLAR

<b>Urushning davomiyligi</b>	4 yil-u 3,5 oy	<b>Safarbar qilingan kishilar soni</b>	74 mln dan ortiq
<b>Urushda qatnashgan davlatlar soni</b>	38 ta	<b>Halok bo'lganlar soni</b>	13,6 mln dan ortiq
<b>Urushayotgan davlatlar aholisining umumiy soni</b>	1,5 mlrd	<b>Yaralangan va nogiron bo'lganlar soni</b>	20 mln dan ortiq



yatga kelishini osonlashtirdi. Aslida millionlab odamlarning o'limiga sabab bo'lgan, ulkan halokatga olib kelgan urushdan deyarli hech bir davlat to'g'ri xulosa chiqarmagan edi. Bu esa birinchisidan ham dahshatli gumanitar halokatga – Ikkinchi jahon urushining sodir bo'lishiga olib keldi.



### IJODIY ISH TOPSHIRIG' I

*Dunyo hamjamiyati uchun urushlarning, xususan, Birinchi jahon urushining salbiy oqibatlarini o'zida aks ettiruvchi videorolik tayyorlang.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birinchi jahon urushi boshlanishiga qanday voqea bahona bo'ldi? Urushning boshlanish sabablari nimalardan iborat edi?
2. Yaponiya birinchi jahon urushida qay tariqa ishtirok etdi?
3. 1916–1918-yillardagi urush harakatlarining asosiy jihatlari haqida so'zlab bering.
4. Birinchi jahon urushi qanday oqibatlar bilan yakunlandi?




10-  
mavzu

# Liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Liberalizm haqida nimalarni bilasiz?
2. “Demokratiya” atamasi qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
3. Liberal-demokratik mamlakatlarga qaysi davlatlar kiradi?



## ESGA OLING

*Birinchi jahon urushi insoniyat uchun qanday oqibatlarga olib keldi?*

**B**irinchi jahon urushi dunyoning siyosiy xaritasini o'zgartirib yubordi va xalqaro munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatdi. Germaniya, Avstriya-Vengriya, Rossiya va Usmoniylar imperiyalari tarqalib ketdi. Urush tugashi bilan g'olib davlatlar xalqaro munosabatlarda yangi tartib o'rnatish, urushdan keyingi dunyoning qiyofasini belgilash uchun Parijga yig'ildilar.

*Versal shartnomasi*



## O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Sizningcha, jahonda tinchlikni saqlash, xalqlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va xavfsizlik masalalari asosiy vazifalari qilib belgilangan Millatlar Ligasiga qanday vakolatlar berilishi lozim edi?*

Parij yaqinidagi Versal saroyida **1919-yil 18-yanvardan 1920-yil 21-yanvargacha** 27 davlat vakillari ishtirokida tinchlik konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiya jarayonidagi uzoq kurashdan so'ng Germaniya bilan sulh shartlari kelishildi. **1919-yil 28-iyunda** Germaniya **Versal tinchlik shartnomasini** imzoladi. Shartnomaga ko'ra, Germaniya Birinchi jahon urushi boshlanishi uchun yagona javobgar davlat deb e'lon qilindi.

Urush liberal-demokratik davlatlar mavqeyini kuchaytirib yubordi. "Urushning maqsadi – dunyoni demokratiya uchun xavfsiz qilish", deya ta'kidlashdi. Shundan kelib chiqib, 1919-yili xalqaro tashkilot – Millatlar Ligasi tashkil qilindi. Jahonda tinchlik uchun kurash, xalqlar o'rtasida hamkorlik va xavfsizlik masalalari Millatlar Ligasining asosiy vazifalari qilib belgilandi.

Mag'lub davlatlar – Germaniya va Turkiyaning mustamlakalari g'olib davlatlar tomonidan bo'lib olindi. Buni qonuniylashtirish uchun **Millatlar Ligasi Ustaviga mandat** tushunchasi kiritildi.



Uzoq Sharq va Tinch okeandagi bahsli muammolarni hal qilish va dengizdagi qurollarni cheklash maqsadida **1921-yil noyabr – 1922-yil fevral** oylarida **Vashington konferensiyasi** bo'lib o'tdi. Vashington konferensiyasida AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya o'rtasida shartnoma imzolandi.

1919–1923-yillari imzolangan shartnomalar va jahondagi kuchlarning yangi nisbati xalqaro munosabatlarning **Versal-Vashington tizimi** nomini oldi. Versal-Vashington tizimi bir guruh davlatlarning dunyoga hukmronligini, dunyo siyosatida AQSH ta'sirining sezilarli kuchayganligini aks ettirdi.

## AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

**B**irinchi jahon urushidan keyin liberal demokratiya mamlakatlarining yetakchisi AQSH bo'lib qoldi. Ammo amerikacha gullab-yashnashning va ilg'or kapitalistik mamlakatlar iqtisodiyotining bo'sh tomoni ham bo'lib, u doimiy yuz beradigan inqirozlarda namoyon bo'ladi. 1929-yil 24-oktyabrda Nyu York fond birjasida boshlangan inqiroz tufayli barqaror rivojlanish davri tugadi. AQSHning ortidan butun kapitalistik dunyo jahon iqtisodiy inqirozi girdobiga sho'ng'idi. Bu inqiroz kapitalistik xo'jalik shaklining XIX asr oxiri – XX asr boshlari uchun xos bo'lgan tarixiy evolyutsiyasini yakunladi.



## YODDA TUTING



*Parij yaqinidagi Versal saroyida **1919-yil 18-yanvardan 1920-yil 21-yanvargacha** 27 davlat vakillari ishtirokida tinchlik konferensiyasi bo'lib o'tdi.*

***1919-yil 28-iyunda Germaniya Versal tinchlik shartnomasini imzoladi.***

*Uzoq Sharq va Tinch okeandagi bahsli muammolarni hal qilish va dengizdagi qurollarni cheklash maqsadida **1921-yil noyabr – 1922-yil fevral** oylarida **Vashington konferensiyasi** bo'lib o'tdi.*

1930-yillarning boshiga kelib AQSH kapitalistik dunyoning tan olingan yetakchisiga, texnik taraqqiyotning yalovbardoriga aylandi. Iqtisodiy inqirozning butun qudrati ham shu yerda namoyon bo'ldi. Xo'jalikning an'anaviy tipi o'z imkoniyatlarini yakunladi. **1929–1932-yillari** sanoat ishlab chiqarish hajmi **50%** ga qisqardi, **13 millionga** yaqin kishi o'z ish joylaridan mahrum bo'ldi.

1932-yil noyabrdagi saylovlarda Amerika xalqiga yangi kurs va'da qilgan **Franklin Ruzvelt** g'olib chiqdi. "**Yangi kurs**" Amerika kapitalizmining xarakterini o'zgartirib yubordi. U AQSH iqtisodini yangi, buyuk davlatchilik intilishlari avj olgan davrga mosladi. Shu tariqa 1930-yillarning ikkinchi yarmida AQSH va uning ortidan butun kapitalistik dunyo iqtisodiy inqirozdan chiqib oldi.



*Parij tinchlik konferensiyasi*



**BILIB OLING**

*Versal-Vashington tizimi bu – ...*

*1929-yil 24-oktyabrda ...*

*1932-yil noyabrda ...*

*1933-yili ...*

Tashqi siyosatda AQSH **1933-yili** SSSR bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi; 1935–1936-yillari neytralitet haqida hamda urushayotgan davlatlarga qurol yetkazib berish va kredit ajratishni taqiqlash to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Ikkinchi jahon urushi boshlanguncha **izolyatsionizm** AQSH hukumatining ustuvor siyosati bo'lib qoldi.

**BUYUK BRITANIYA**

**B**irinchi jahon urushidagi g'alaba Buyuk Britaniya uchun juda qimmatga tushdi. Urushdan oldin kreditor bo'lgan Buyuk Britaniya AQSHdan va o'z dominionlaridan qarzdor bo'lib qoldi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari juda past bo'lib, inqiroz va turg'unlik odatiy holga aylandi. Ishtashlash harakati jiddiy tus oldi. Ishchilar ish haqining oshirilishi va ish kunining qisqartirilishini talab qildilar.

Shunday sharoitda boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga unchalik katta ta'sir qilmadi. 1934-yildan boshlab mamlakat inqirozdan chiqqa boshladi.

1937–1940-yillari hukumatga konservatorlar yetakchisi **Nevill Chamberlen** keldi. **1938-yili Myunxen kelishuvining** imzolanishi natijasida Nevill Chamberlen 1940-yili hukumat boshlig'i lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Hukumatni XX asr Buyuk Britaniya tarixida juda katta rol o'ynagan siyosatchi **Uinston Cherchill** boshqardi.

**FRANSIYA**

**B**irinchi jahon urushida erishilgan g'alaba Fransiyaga ham qimmatga tushdi. Bevosita urush harakatlari bo'lib o'tgan Fransiya hududining uchdan bir qis-midagi sanoat korxonalarini vayron bo'ldi. Pul keskin qadrsizlandi, Fransiya AQSHdan qarzdor bo'lib qoldi.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Mustaqil tarzda AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiyaning o'рта asrlar tarixi bilan tanishing. Har bir davlatning taraqqiyotiga xos bo'lgan jihatlarni tahliliy qamrab oling. Fikringizni kichik esse tarzida yozing.*

Ammo, boshqa tomondan, Versal shartnomasiga binoan Fransiya Elzas va Lotaringiyani qaytarib oldi, Saar ko'mir havzasini egalladi, Germaniya mustamlakalari hisobiga o'z imperiyasi hududini kengaytirdi.

Inqiroz yillari Fransiya ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari susayib, sanoat ishlab chiqarishi keskin pasayib ketdi. Sanoat ishlab chiqarishi 1930-yillar oxirida ham inqirozdan oldingi darajasiga yetmadi. Fransiya hokimiyatga o'nglar kelgandan so'ng fashistik rejim o'rnatilishi real xavfga aylandi. Mamlakatda fashistlar faollashgan bir paytda hukumat aralashmaslik siyosatini olib bordi. Bu siyosatni o'sha davr fransuz siyosiy elitasining katta qismi qabul qildi. Aynan shu hol Uchinchi respublikani halokatga olib kelgan asosiy omillardan biri bo'ldi.



## ATAMALAR MAZMUNI

**Izolyatsionizm** bu – boshqa davlatlar, millatlar, xalqlar, etnik guruhlarining ishlariga aralashmaslik g'oyasiga asoslangan tashqi siyosat yo'nalishini belgilash.

**Mandat** – biror shaxsning vakolatini, muayyan narsaga huquqini tasdiqlovchi hujjat.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Versal tinchlik shartnomasi Yevropa xaritasida chegaralarning qanday o'zgarishiga olib keldi?
2. Versal-Vashington tizimi nima sababdan rejalashtirilganidek mustahkam emas edi?
3. Nyu York fond birjasida boshlangan inqiroz shu davr iqtisodiyoti uchun qanday oqibatlarga olib keldi?
4. Bu davrda AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya uchun tashqi siyosatda yo'l qo'yilgan eng katta kamchiliklar nimalardan iborat edi?



## 11- mavzu

# Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari: yangi urush o'chog'ining paydo bo'lishi



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Avtoritar diktatura mamlakatlari qanday sabablar tufayli vujudga kelgan?
2. Birinchi jahon urushiga qadar bo'lib o'tgan dunyo ahamiyatiga molik qanday urushlarni bilasiz?

**XX** asrda modernizatsiya jarayonini boshlagan ko'pchilik mamlakatlarda yangi tipdagi siyosiy rejimlar shakllandi va ular **totalitarizm** nomini oldi. Bu mamlakatlar jamiyat hayotida davlatning roli juda yuqoriligi, jamiyatda yagona qadriyatlar tizimi, mafkura, siyosiy dasturlar mavjudligi bilan ajralib turadi.

XX asrda bir-biriga qarama-qarshi turgan ikkita totalitar mafkuralar – **fashizm** va **bolshevizm** asosida totalitar davlatlar vujudga keldi.



## ESGA OLING

*Davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, davlatlar boshqaruv shakliga ko'ra qanday turlarga bo'linishini aniqlang. Mazkur tushunchalarga ta'rif bering.*

## ROSSIYADA BOLSHEVIKLAR HOKIMIYATINING O'RNATILISHI



*Oktyabr inqilobi*

**1917-yili Fevral inqilobi** natijasida Rossiyada monarxiya ag'darildi, ammo bu mamlakatda demokratik tartiblar o'rnatilishiga olib kelmadi. **1917-yil 7-noyabrda** amalga oshirilgan davlat to'ntarishi natijasida sovet hokimiyati o'rnatildi. **V. Lenin** boshchiligida bolsheviklar hukumati – **Xalq komissarlari soveti** tuzildi.

1917-yili bolsheviklar hokimiyatga kelishi bilan boshlangan fuqarolar urushi 1922-yilgacha davom etdi va unda 1 milliongacha kishi halok bo'ldi. Turkistonda sovetlarga qarshi qurolli kurash 1930-yillarning o'rtalarigacha davom etdi. Fuqarolar urushi davrida Antanta davlatlarining Rossiyaga qarshi bosqinchilik harakatlari ham bo'lib o'tdi, u chet el intervensiyasi nomini oldi.

1918–1922-yillari Sovetlar respublikasida iqtisodni boshqarishning harbiy usuli – **“harbiy kommunizm”** siyosati o'rnatildi. U fuqarolar urushida g'alaba qozonish uchun mamlakatdagi barcha resurslarni safarbar qilishning favqulodda tizimi edi.

Bu davrda amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri **1922-yil 30-dekabr** kuni sobiq Rossiya imperiyasi hududida **Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR)**ning tashkil topishi bo'ldi. Dastlab SSSRga Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Kavkazorti respublikalari kirdi. 1924-yili Kavkazorti va O'rta Osiyoda *milliy-hududiy chegaralanish* siyosati o'tkazilib, milliy sovet respublikalari tashkil qilindi.





Bolsheviklar yetakchisi V. I. Lenin

1921-yili sovet davlati kuchli iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirdi. Mamlakatni og'ir inqiroz holatidan olib chiqish uchun bolsheviklar “harbiy kommunizm” siyosatidan voz kechib, **yangi iqtisodiy siyosat (YIS)** deb nom olgan kursga o'tishga majbur bo'ldi. YISning mohiyati bozor iqtisodiyotini qisman tiklash, uni iqtisodiy manfaatdorlik va xo'jalik hisobi asosida rivojlantirishdan iborat edi. YIS xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirdi, iqtisodning o'sishiga ko'maklashdi. YIS mamlakat xalq xo'jaligini tiklash, ishlab chiqarish va savdoni yo'lga qo'yish, og'ir iqtisodiy holatdan chiqib olish imkonini berdi. Ammo YIS SSSRda bozor munosabatlarining o'rnatilishiga olib kelmadi. 1920-yillarning o'rtalaridan asta-sekin YISni bekor qilish boshlandi.

### Sanoatlashtirish

**1920**-yillar oxiri – 1930-yillar boshida amalga oshirilgan eng muhim tadbir mamlakatni *sanoatlashtirish* bo'ldi. 1928–1932-yillarga mo'ljallangan birinchi besh yillik sovet rejali iqtisodiyoti davrini boshlab berdi. Shu yillari 1500 ta yirik sanoat korxonalari qurildi. Birinchi besh yillikda sovet og'ir sanoatining asoslari yaratildi.

### Kollektivlashtirish

**1928**–1933-yillari SSSRda *kollektivlashtirish* deb nom olgan siyosat amalga oshirildi. Buning natijasida qishloqdagi o'ziga to'q dehqonlar, yer egalarning barchasi mulkidan mahrum qilindi, ko'pchiligi quloq sifatida qamaldi, surgun qilindi, qatl etildi. 1933-yilgi dahshatli ocharchilikda Ukraina, Kuban, Volgabo'yi, Qozog'istonda 7 mln dan ortiq kishi vafot etdi.



### YODDA TUTING



**1917-yil** *Fevral inqilobi natijasida Rossiyada monarxiya ag'darildi.*

**1921-yili** *sovet davlati kuchli iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirdi.*

**1928–1933-yillari** *SSSRda kollektivlashtirish deb nom olgan siyosat amalga oshirildi.*

1933–1937-yillarni qamrab olgan ikkinchi besh yillikda sanoat gurkirab o'sib, SSSR sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha dunyoda AQSHdan keyin – ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

## MADANIY INQILOB

Savodsizlikni tugatish, yangi tipdagi sovet maktablari tizimini yaratish, xalq ziyoli kadrlarini tayyorlash, bolshheviklar nazorati ostida va markscha-lenincha mafkura asosida fan, adabiyot va san'atni rivojlantirish, xalqning turmush madaniyatini oshirish tarixda **madaniy inqilob** nomini oldi.

Madaniy inqilob, o'zining barcha ziddiyatlariga qaramasdan, ko'plab jiddiy muammolarni hal qildi. Aholining turmush madaniyatini oshirish sari muhim qadam tashlandi. Savodsizlikka qarshi kurashda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Ta'lim tizimi to'liq isloh qilinib, **1930-yili** majburiy boshlang'ich ta'lim joriy qilindi. Biroq bu jarayonlar aholi ongiga kommunistik mafkurani singdirish bilan qo'shib olib borildi.



Adolf Gitler (o'ngda)

## ITALIYA

Birinchi jahon urushidan keyingi umumiy inqiroz sharoitida **Benito Mussolini** boshchiligida **1919-yili** tuzilgan fashistlar partiyasi faollashib ketdi. 1921-yili fashistlar harakati bir qadar rasmiy tus olib, davlatning siyosiy qudratini mustahkamlashga qaratilgan millatchilik tashviqotlari olib bordi. Fashistlar 1921-yilgi parlament saylovlarida 30 ta o'ringa ega bo'ldi. 1922-yil oktyabrda fashistik guruhlarning mashhur Rimga yurishidan so'ng qirol **Viktor Emmanuel III** Mussolinini hukumat boshlig'i etib tayinladi.

Italyan fashizmi maxsus diktatura sifatida totalitar va avtoritar belgilarga ega edi. Uning mafkuraviy tizimi *katolitsizm, an'anaviylik, sotsializm* g'oyalari bilan yo'g'rilgan millatchilik poydevori ustiga qurilgandi.

Fashistlar barcha totalitar tuzumlarga xos bo'lgan tajovuzkor siyosatni avj oldirdi. 1935–1936-yillarda Efiopiya, Eritreya va Somalining bir qismi Italiya mustamlakasiga aylantirildi. **1937-yili** Italiya Millatlar Ligasidan chiqdi va Germaniya hamda Yaponiya bilan ittifoqqa birlashib, o'zining tajovuzkor siyosatini davom ettirdi va Ikkinchi jahon urushining sababchilaridan biriga aylandi.

Fashistik guruhlarning Rimga yurishi



## GERMANIYA

**G**ermaniya Birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchradi. Urushdan keyin bu yerda inqilobiy voqealar sodir bo'ldi. **1918-yil noyabrga** kelib g'alayonlar Germaniyaning barcha yirik shaharlarini qamrab oldi. Germaniya respublika deb e'lon qilindi. **1919-yil 31-iyul** kuni Veymar shahrida Ta'sis majlisi inqilobiy ommaning demokratik talablarini qondiruvchi konstitutsiyani qabul qildi. Germaniya tarixida yangi – **Veymar respublikasi** davri boshlandi.

**1919-yili Anton Dreksler** Germaniya natsional-sotsialistik ishchi partiyasiga asos soldi va shu yildan unga **Adolf Gitler** boshchilik qildi. **1923-yil noyabrda** Myunxen shahrida "**Pivo isyon**" nomini olgan isyon ko'tarildi. Bu Germaniyada natsistlarning hokimiyatga kelish uchun birinchi urinishi edi. Muvaffaqiyatsizlik bilan tugasa-da, aynan "Pivo isyon" natsistik partiyani Germaniya miqyosidagi siyosiy kuchga aylantirdi.



### TARIXIY MUSHOHADA

*Shu davrda Rossiya, Italiya, Germaniya va Yaponiya nima sababdan totalitar yoki avtoritar diktatura mamlakatlariga aylandi?*

*Totalitar yoki avtoritar diktatura boshqaruvi yuqorida nomlari qayd etilgan davlatlar tarixida qanday oqibatlariga olib keldi?*

1932-yili bo'lib o'tgan saylovlarda natsional-sotsialistlar g'olib chiqib, eng yirik parlament partiyasiga aylandi. **1933-yil 30-yanvarda** prezident **Paul fon Gindenburg reyxstag** (parlament)da eng katta fraksiyaga ega bo'lgan natsional-sotsialistlar yo'l boshchisi – Adolf Gitlerni **reyxskansler** (hukumat boshlig'i) lavozimiga tayinladi. Veymar konstitutsiyasi bekor qilindi. **1934-yili** prezident Gindenburg vafot etgandan so'ng Gitler Germaniyaning **fyureri** (dohiyisi) bo'lib oldi.

Gitler totalitar rejimining asosiy maqsadi "noraso irq larni" bo'ysundirish, katta hududlarni egallash uchun Germaniyani urushga tayyorlashdan iborat edi. 1936–1939-yillari Germaniya iqtisodiyoti to'liq urush maqsadlariga bo'ysundirildi, harbiy xarajatlar 10 barobar oshirildi, qo'shinlar soni 1914-yil darajasiga yetkazildi, harbiy-dengiz floti isloh qilindi. **1935-yili** umumiy harbiy majburiyat to'g'risidagi qonun kuchga kirdi. Germaniya katta urushga tayyorlana boshladi. Germaniya totalitar rejimiga Italiya va Yaponiyadagi shunday rejimlar ittifoqchi bo'ldi.

## YAPONIYA

**XX** asr boshlarida Yaponiya jahonning yetakchi davlatlariga qaram bo'lib qolmagan, nisbatan yuqori darajadagi iqtisodiy va harbiy rivojlanishga erishgan Osiyo mintaqasidagi yagona davlat edi. Yaponiyada shakllangan totalitar tizim o'ziga xos avtoritar-monarxistik shaklga ega edi.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Mustaqil tarzda  
“Berlin – Rim – Tokio  
uchburchagi” tarixi  
bilan tanishing.  
Mazkur ittifoqning  
faoliyatini tahlil qiling.  
Fikringizni kichik esse  
tarzida yozing.*

1920-yillar o'rtalariga kelib mamlakatda sanoat to'ntarishi yuz berdi. 1925-yili sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi 1919-yilgi darajasidan oshib ketdi. Ishlab chiqarishni konsentratsiyalash jarayoni davom etdi. Og'ir sanoatda “**Mitsubisi**” va “**Sumitomo**” konsernlari o'z pozitsiyasini mustahkamlab oldi.

1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi yapon iqtisodiyotiga katta zarar keltirdi. Yaponiya hukumati inqirozdan chiqishning yo'li sifatida iqtisodni militarizatsiyalash va tajovuzkorlikni tanladi. Yaponiya “Yosh ofitserlar” ta'siri ostida bosqinchilik yo'lidan jadal ketdi.

**1936-yili** Yaponiya va Germaniya “**Antikomintern pakti**” deb ataluvchi hujjatni imzoladilar. 1937-yili unga Italiya qo'shildi. Shu tariqa “**Berlin – Rim – Tokio uchburchagi**” deb ataluvchi tajovuzkor davlatlar ittifoqi

vujudga keldi. Bu ittifoq Ikkinchi jahon urushining boshlanishida asosiy rol o'ynadi.

Jahon urushlari oralig'ida totalitar davlatlarda ichki va tashqi siyosat, iqtisod va mafkura yagona maqsadga – Birinchi jahon urushidagi mag'lubiyat uchun o'ch olish va dunyoni qaytadan bo'lishga qaratildi. Bu yanada dahshatli fojia – Ikkinchi jahon urushiga olib keldi.



## ATAMALAR MAZMUNI

**Fashizm** (“to'da”, “birlashish”) – totalitar tipdagi siyosiy diktaturaga asoslangan hokimiyatning siyosiy konsepsiyasi.

**Sotsializm** (“ijtimoiy”) – xususiy mulkni ijtimoiy mulkka aylantirish orqali erkinlik va tenglik, baxt va farovonlikka erishish mumkin deb hisoblovchi ta'limot.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rossiyada 1917-yili bolsheviklar hokimiyatga kelishi bilan boshlangan fuqarolar urushi qanday yakunlandi?
2. Italiyada Benito Mussolini boshchiligidagi hukumatning asosiy maqsadi nimalardan iborat edi?
3. Gitler totalitar rejimining asosiy maqsadi qaysi jihatlarda aniq ko'rinadi?
4. Yaponiyada shakllangan totalitar tizimning o'ziga xos belgilari nimalarda namoyon bo'ldi?



## 12- mavzu

# Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Osiyo davlatlaridan qaysilarini bilasiz?
2. “Mustaqillik” tushunchasiga ta’rif bering.
3. Osiyo va Yevropa mamlakatlarining taraqqiyotidagi umumiy muammolar nimalardan iborat bo’lgan?





## ESGA OLING

*Yangi davrda G'arbiy Yevropada Fransiya va Germaniya munosabatlari keskinlashuviga sabab bo'lgan jihatlarni toping.*

**B**irinchi jahon urushidan so'ng Osiyoning Turkiya, Eron, Xitoy, Hindiston, Afg'oniston kabi mamlakatlarida milliy-ozodlik harakatlari kuchaydi. Bu davrda Turkistonda ham milliy-ozodlik harakati davom etdi. Milliy kuchlarning g'alabasi Osiyo geosiyosiy xaritasining jiddiy o'zgarishiga olib keldi. Yarim mustamlakachilik tizimi bekor qilindi, Usmoniylar imperiyasi parchalanib ketdi, o'rnida yangi davlatlar, jumladan, Turkiya Respublikasi paydo bo'ldi. Bir qator Osiyo mamlakatlarida G'arb andozasidagi modernizatsiya jarayonlari amalga oshirildi.

### TURKIYA

**U**smoniylar imperiyasi Birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchradi. Imperiya hududi *okkupatsiya* qilindi. Antanta mamlakatlari Usmoniylar imperiyasiga qarashli yerlarni bo'lib olish rejasini tuza boshladilar. Imperiyaning o'z hududidan tashqaridagi barcha yerlari *anneksiya* qilindi va Millatlar Ligasining mandati ostiga o'tdi. Mamlakatda qarshilik harakati boshlandi. Harakatga general **Mustafo Kamol posho** rahbarlik qildi.

Uzoq davom etgan janglardan so'ng **1922-yil oktyabrda** M. Kamol qo'shinlari butun Turkiya hududini ozod qildi. **1922-yil 1-noyabr** kuni Turkiya Buyuk Millat majlisi monarxiyani bekor qildi. **Sulton Mehmed VI** taxtdan ag'darildi va mamlakatni tark etdi. **1923-yili Lozannada** Bu-



*Sulton Mehmed VI Vahideddin*

yuk Britaniya, Fransiya va boshqa bir qator davlatlar bilan M. Kamol hukumati imzolagan yakuniy shartnomaga ko'ra, Turkiya o'z suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlab qoldi.

**1923-yil 29-oktyabrda** Turkiya respublika deb e'lon qilindi, M. Kamol respublika prezidenti etib saylandi. Mamlakatda uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan islohotlar boshlandi.



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Sizningcha, o'rta asrlar davrida va yangi davrda qudratli bo'lgan Usmoniylar imperiyasining Birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'lgan asosiy omillar nimalardan iborat edi?*

*Prezident Mustafo Kamol (Otaturk)*



“Islohotlarning bosh maqsadi – mamlakatni modernizatsiyalash”, deb e'lon qilindi. Bu Yevropa sivilizatsiyasining barcha taraqqiyparvar qadriyatlarini qabul qilish va ularni Turkiya sharoitiga moslashtirishni anglatar edi. Mentalitet, aqidaparastlik va jaholat islohotlar uchun asosiy to'siq ekanligini M. Kamol yaxshi tushunardi. U islohotlarni dindan boshladi.

1924-yil Buyuk millat majlisi xalifalikni tugatish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu bilan dunyo musulmonlarini birlashtirib turuvchi tizim yo'q qilindi, darveshlik ordenlari va darveshxonalar tarqatib yuborildi. Din va vaqf ishlari bo'yicha vazirlik tugatildi, vaqf mulklari davlat mulkiga aylantirildi. Shariat sudlari bekor qilindi. Madrasalar yopilib, barcha maktablar Maorif vazirligi ixtiyoriga o'tkazildi. Arab alifbosidan voz kechilib, lotin alifbosi joriy qilindi. Yevropacha nasab kiritilib, Buyuk millat majlisi M. Kamolga rasman “**Otaturk**” degan nasabni berdi.

Otaturk tashqi siyosatining asosiy vazifasi Turkiyaning xalqaro obro'sini oshirishga qaratildi. **1932-yili** Millatlar Ligasiga a'zo bo'lgan Turkiya barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga harakat qildi.

M. Kamol Germaniya bilan munosabatlarga alohida e'tibor qaratdi. Turkiya tashqi savdosining yarmidan ko'prog'i Germaniya hissasiga to'g'ri kelardi. **1941-yili** Germaniya bilan do'stlik shartnomasi imzolandi. Turkiya Ikkinchi jahon urushida rasman betaraf qolgan bo'lsa-da, hukmron doiralarning katta qismi Germaniyaga xayrixoh edi.

## XITOIY



*Sun Yatsenning prezidentlik lavozimiga kirishishi*

**1919**-yil Parij konferensiyasida Xitoy o‘z talablari bilan ishtirok etdi. Bu talablar yapon qo‘shinlari tomonidan Xitoy hududini bosib olishni to‘xtatish, Xitoyning suvereniteti va hududiy yaxlitligini tan olishdan iborat edi. G‘arb davlatlari bunga rozi bo‘lmadi va Xitoyga rasman rad javobi berildi.

Bundan g‘azablangan xitoylik talabalar **1919-yil 4-may** kuni Pekinda namoyish boshladilar. Talabalar harakati butun Xitoyni larzaga soldi va juda katta ijobiy natijalarga olib keldi.

**1920-yil iyulda** Pekindagi hukumat ag‘darilib, hokimiyatga Buyuk Britaniya va AQSH tomonidan qo‘llab-quvvatlangan **U Peyfu** keldi. Natijada 1921–1922-yillari Vashingtonda bo‘lib o‘tgan konferensiyada barcha ishtirokchi davlatlar Xitoyning suvereniteti va hududiy yaxlitligini kafolatladilar.

Xitoy inqilobini tashkil qilishda **Sun Yatsenning** roli beqiyos. 1921-yili u Xitoy Respublikasi prezidenti lavozimiga saylandi. Biroq mamlakat shimoli va chet el davlatlari Sun Yatsen hukumatini tan olmadilar. **1925-yili** Sun Yatsen vafot etgandan so‘ng mamlakatni tinch yo‘l bilan birlashtirish imkoniyati yo‘qqa chiqdi.



### TARIXIY MUSHOHADA

*Turkiya va Xitoy davlatlari yangi davlat boshqaruv shaklini tanlashning o‘ziga xos muammolari nimalardan iborat bo‘lgan?*

1925-yil bahorda shanxaylik burjuaziya, talabalar va ishchilar vakillari mamlakatdagi inglizlarga qarshi harakat boshladilar. Bu vatanparvarlik harakati “**30-may harakati**” nomini oldi va Xitoyning suverenitetini tiklash shiori ostida o‘tdi. Inqilobga **Gomindan partiyasi** rahbarlik qildi. 1928-yil oxiriga kelib butun mamlakat rasman Pekindagi Gomindan hukumati boshchiligida birlashdi.

Shu davrda gomindanchilar bilan kommunistlar o‘rtasida ajralish yuz berdi. Kommunistlar Xitoyda sotsializm qurish rejasini ilgari surdi. Ular **1931-yili Xitoy Sovet respublikasini** e‘lon qildi va **Mao Szedun** uning raisi etib saylandi. Gomindan bilan kommunistlar o‘rtasidagi kurash yigirma yil davom etgan fuqarolar urushiga aylanib ketdi.

## HINDISTON



*Hind yetakchisi Mahatma Gandi*

Inglizlarning mustamlaka hukumati Birinchi jahon urushi yillarida Hindistonga o‘zini o‘zi boshqarish huquqini va‘da qilgan edi. Ammo hind xalqining umidi ro‘yobga chiqmadi, Hindistonning maqomi o‘zgarmadi.

Shundan so‘ng 1920–1940-yillardagi hindlarning zo‘ravonliklarsiz ommaviy chiqishlarini tashkil qilishda hind xalqining buyuk farzandi **Mahatma Gandining** roli beqiyos bo‘ldi. Jahon urushlari oralig‘ida Gandi **Hindiston Milliy kongressi** (HMK) partiyasining g‘oyaviy rahbari, xalq harakatining yetakchisiga aylandi. U ishlab chiqqan **zo‘ravonliklarsiz qarshilik ko‘rsatish taktikasi** qurolli to‘qnashuvlardan, millionlab kishilarni o‘limdan saqlab qoldi.



### BILIB OLING

- M. Kamol – ...*
- 1941-yili ...*
- 1921-yili Xitoyda ...*
- 1931-yil sentyabrda ...*
- 1932-yil 1-martda ...*



**Mahatma Gandhi**

## IJODIY ISH TOPSHIRIG‘I

*Mustaqil tarzda Mahatma Gandhi faoliyati bilan tanishing. “Hindiston tarixida Mahatma Gandhi” mavzusida xronologiya tuzing. “Mahatma Gandhi” nomli o‘quv loyiha tayyorlang.*



## ATAMALAR MAZMUNI

**Okkupatsiya** (lotincha *occupatio* – “egallash”, “bosib olish”) – urush olib bora-yotgan tomon qurolli kuchlarining boshqa davlat yerlarini bosib olib, vaqtincha egallab turishi.

**Anneksiya** – boshqa bir davlat hududini butunlay yoki qisman egallab olish yoki o‘z davlatiga qo‘shib olish siyosati.

**Aqidaparastlik** – muayyan sharoitda biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat‘iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, vaziyatni hisobga olmagan holda ko‘r-ko‘rona qo‘llash yoki shunga urinish.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birinchi jahon urushi Turkiya uchun qanday yakunlandi?
2. 1921–1922-yillari Vashingtonda bo‘lib o‘tgan konferensiya Xitoy uchun qanday imkoniyatlarni taqdim qildi?
3. Xitoyda uzoq yillar davom etgan fuqarolar urushining kelib chiqish sabablari haqida so‘zlab bering.
4. Nima sababdan Hindistonda XX asrdan boshlab qo‘zg‘olonlar emas, balki hindlarning zo‘ravonliklarsiz ommaviy chiqishlari ommalashdi?





# 13- mavzu

## Afrikada milliy uygʻonish va mustaqillik gʻoyalarning paydo boʻlishi



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Oʻrta asrlarda Afrikada mavjud boʻlgan qaysi davlatlarni bilasiz?
2. Afrika taraqqiyotiga salbiy taʼsir koʻrsatgan omillar nimalardan iborat edi?



## ESGA OLING

*Shimoliy, Janubiy va Markaziy Afrika tushunchalariga izoh bering.*

**A**frika qit'asini keng ma'noda ikkita mintaqaga bo'lish mumkin: Shimoliy va Tropik Afrika. Afrika qit'asining shimoliy qismi arab-islom sivilizatsiyasining bir bo'lagiga aylandi. Bu hudud doim Yaqin Sharqqa intilib yashaydi va shu bilan Afrikaning qolgan qismidan farq qiladi. Shimoliy Afrikada Misr, Jazoir, Tunis, Marokash, Liviya joylashgan.

*Farhod Abbos*



## SHIMOLIY AFRIKA

**1922-yil fevralda** Buyuk Britaniya o'z protektoratini bekor qilib, **Misrning** to'liq mustaqilligini tan oldi. **1923-yili** qabul qilingan konstitutsiyaga ko'ra, Misr monarxiya deb e'lon qilindi.

**1941-yili** Misr hududiga Germaniya va Italiya qo'shinlari kiritildi.

**Jazoir, Tunis va Marokash** Fransiyaning mustamlakalari bo'lib, Birinchi jahon urushidan keyin ham shu holat saqlanib qoldi. Jahon urushlari oralig'ida Jazoirda **Farhod Abbos**, Tunisda **Habib Burg'iba**, Marokashda **Abdul Karim** boshchiligida milliy-ozodlik harakatlari avj oldi. Bu harakatlar g'alaba qozonmagan bo'lsa-da, mintaqaxalqlari milliy va siyosiy ongining o'sishida katta rol o'ynadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'plab musulmonlar Fransiyaning qo'llab-quvvatladi, fransuz armiyasi safiga kirdi. 1940-yili Fransiya mag'lubiyatga uchraganidan so'ng Jazoir va Tunis Germaniya va Italiyaning xomashyo bazasiga aylantirildi.

Birinchi jahon urushidan keyin Italiya **Liviya**ga ko'p ming kishilik qo'shin kiritdi. Liviya qarshilik harakati otryadlari Italiya qo'shinlariga qarshi kurash olib bordi. **1931-yili** qarshilik harakati bostirilib, uning rahbarlari qatl qilindi. Liviya Italiyaning mustamlakasiga aylantirildi.



## O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Birinchi va Ikkinchi jahon urushi Afrika qit'asi uchun qanday yakunlandi?*

## TROPIK AFRIKA

**XX** asrning boshlarigacha Afrika tarixi yevropaliklar nazarida faqat qul savdosi va iqtisodiy talonchilik bilan bog'liq edi. **1926-yili** Millatlar Ligasi tomonidan qabul qilingan **Qullik haqida** konvensiyada qullik va qul savdosiga ta'rif berilib, ular qoralandi.

Birinchi jahon urushidan so'ng Afrikaning janubiy va markaziy qismida joylashgan hududlar Buyuk Britaniyaga qarashli bo'lib, uning mustamlakalarida Afrika umumiy aholisining yarmidan ko'pi istiqomat qilardi.

Afrika qit'asining eng katta hududini Fransiya egallagan bo'lib, qolgan hududlarni Belgiya, Portugaliya, Ispaniya va Italiya o'zaro bo'lishib olgandi.



### BILIB OLING

*Afrikada metropoliyalar ...*

*Tropik Afrika bu – ...*

*1922-yil fevralda...*

*1931-yili ...*

## Afrikada metropoliyalar siyosatining o'ziga xos tomonlari

**B**irinchi jahon urushidan so'ng Afrikada infratuzilma obyektlari: temiryo'llar, bandargohlar, aloqa tizimi, shuningdek, Yevropa tipidagi ma'muriy tashkilotlar, maktablar, kasalxonalar qurildi. Missionerlik faoliyati orqali xristian dini tarqaldi. Afrikani modernizatsiyalash uchun intilishlar paydo bo'ldi, Afrika an'anaviy jamiyatiga yevropacha unsurlar kirib keldi.

Iqtisodda aholining katta qismi avvalgiday an'anaviy usulda kun kechirish bilan band edi, qishloq xo'jaligi ibtidoiy usulda olib borilardi, bir qism aholi hunarmandchilik, ovchilik bilan shug'ullanib, muntazam mehnat qilish malakasiga ega emasdi.

Ijtimoiy sohada eski tuzum (katta oila, urug', jamoa, qabila), qabila va jamoa boshliqlarining avvalgi iyerarxiyasi, urug'lar va qabilalar o'rtasidagi munosabatlarning murakkab tizimi, qulchilik saqlanib qoldi; mahalliy tabib va kohlarning obro'si hali ham juda yuqori edi.

Siyosiy sohada hatto yangi siyosiy institutlar paydo bo'lgan joylarda ham ular eski siyosiy tizim asosiga qurildi, ularda qabila boshliqlari, kohlilar va shu kabilar asosiy rol o'ynadi.

Madaniy sohadagi muvaffaqiyatlar ko'pincha faqat tashqi ko'rinish edi xolos: xristianlik rasmiyat uchun qabul qilindi, mahalliy aholining ongi va xulqida avvalgiday an'anaviy madaniyat va ibtidoiy tasavvurlar hukmron bo'lib qolaverdi.

Shu yillari ozodlik harakati mafkurasining shakllanishida, uning faollashuvida **panafrikanizm** katta rol o'ynadi. Birinchi Panafrika konferensiyasi 1900-yili Londonda bo'lib o'tgan edi, ammo harakat **1919-yili I Ta'sis kongressida** rasmiylashtirildi. Kongress Afrika xalqlarining siyosiy faollashuvida katta rol o'ynadi.

**1920-yili** Afrikada birinchi siyosiy partiya – **Afrika milliy kongressi (AMK)** tashkil topdi. Shundan so'ng qit'aning barcha hududlarida partiyalar va kasaba uyushmalariga o'xshash tashkilotlar paydo bo'ldi.



## YODDA TUTING

*1926-yili Millatlar Ligasi tomonidan Qullik haqida konvensiya qabul qilingan.*

*1920-yili Afrika milliy kongressi (AMK) tashkil topdi.*

1939-yili Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan Afrika urush ishtirokchilarining rejalarida muhim strategik ahamiyat kasb etdi. Yuz minglab afrikaliklar Shimoliy Afrika, G'arbiy Yevropa va boshqa hududlardagi urush harakatlarida qatnashdi. Afrikaliklardan tashkil qilingan milliy harbiy qismlar keyinchalik mustaqillik uchun kurashda muhim rol o'ynadi.

## Irqchilik rejimining qaror topishi

**1910**-yili Buyuk Britaniyaning o'zini o'zi boshqaruvchi dominioni sifatida **Janubiy Afrika Ittifoqi (JAI)** tuzilganligi e'lon qilindi. Janubiy Afrika to'g'risidagi akt Janubiy Afrika Ittifoqining konstitutsiyasi bo'ldi. U yana 50 yil amal qilib, dunyodagi eng irqchi konstitutsiya sifatida tarixda qoldi.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Mustaqil tarzda Afrika xalqlari sivilizatsiyalari tarixi bilan tanishing. Afrika xalqlari sivilizatsiyalarining kishilik jamiyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini tahlil qiling. Fikringizni asoslab esse yozing.*



## TARIXIY MUSHOHADA

*XX asr boshlarida Afrika xalqlari rivojlanishi uchun umumiy bo'lgan salbiy va ijobiy jihatlarni tasniflang.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Afrika xalqlarining XX asr boshlaridagi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Birinchi jahon urushi arafasida Afrika qit'asi asosan qaysi davlatlar o'rtasida bo'lib olingan edi?
3. Yevropaliklar kirib kelishi bilan Afrikada modernizatsiyalash tendensiyasining paydo bo'lishi nimalarda namoyon bo'ldi?
4. Aholi orasida an'anaviylik qoldiqlarining kuchliligi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda qanday aks etdi?
5. Afrika milliy kongressi va panafrika harakati haqida so'zlab bering.



# 14- mavzu

## Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Somma jangi haqida nimalarni bilasiz?
2. Verden jangi haqida bilganlaringizni soʻzlab bering.
3. Birinchi jahon urushi insoniyat uchun qanday yakunlandi?





## ESGA OLING

*Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat? Urushning boshlanishiga qaysi voqea bahona bo'lgan edi?*

**1933**-yil yanvarda Germaniyada Adolf Gitler boshchiligidagi natsional-sotsialistik ishchi partiyasi hokimiyatga keldi. U Germaniyaning Birinchi jahon urushidagi mag'lubiyati uchun o'ch olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan urush partiyasi edi.

*Adolf Gitler*

## 1938-yilgi Myunxen kelishuvi

**A**vstriya anshlyus (qo'shib olish) qilingandan so'ng Germaniya Chexoslovakiyani bosib olishga tayyorlana boshladi. **Chexoslovakiyaning Sudet viloyati** aholisining ko'pchiligi nemis millatiga mansub edi. Gitler bu viloyat Germaniyaga berilishini talab qildi.

Buyuk Britaniya va Fransiya bosimi ostida Chexoslovakiya hukumati Germaniyaning talabini bajarishga majbur bo'ldi. Chexoslovakiyaning kapitulyatsiyasi **1938-yil 29-sentyabr** kuni **Myunxenda** rasmiylashtirildi.

Myunxen kelishuvidan keyin Germaniya bilan SSSRning manfaatlari vaqtincha bir-biriga mos tushdi. Bu **1939-yil 23-avgustda** 10 yil muddatga **o'zaro urushmaslik to'g'risida Sovet-German paktining** (Molotov-Ribbentrop pakti) imzolanishiga olib keldi.

## Ikkinchi jahon urushining boshlanishi

**1939**-yil **1-sentyabr** kuni Germaniyaning **Polshaga** bostirib kirishi bilan Ikkinchi jahon urushi boshlandi va **1945-yil 2-sentyabrgacha** davom etdi. Polshaga yordam berishni va'da qilgan Buyuk Britaniya va Fransiya **3-sentyabr** kuni Germaniyaga urush e'lon qildi.

**1939-yil 17-sentyabr** kuni Polshaga sovet qo'shinlari kiritildi. Germaniya bilan SSSR o'rtasida do'stlik shartnomasi imzolanib, unda Polsha davlati siyosiy xaritadan butunlay o'chirib tashlandi.

**1939–1940-yillarda sovet-fin urushi** bo'lib o'tdi. Sovetlar juda katta yo'qotishlar evaziga **Kareliyani** SSSR tarkibiga qo'shib oldi. SSSR tajovuzkor davlat sifatida Millatlar

ATLANTIKA  
OKEANI

Portugaliya



## TARIHIY MUSHOHADA

*Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida insoniyat qanday harbiy qurollarni ixtiro qildi?*

Ligasi tarkibidan chiqarildi. 1940-yil martda SSSR Finlandiya bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi.

**1940-yil sentyabrda** Germaniya, Yaponiya va Italiya o'rtasida harbiy hamkorlik to'g'risida kelishuv – **Uchlar pakti** imzolandi. Tez orada bu paktga Vengriya, Ruminiya, Slovakiya va Bolgariya ham qo'shildi.



Stalingrad jangi

## Germaniyaning SSSRga bostirib kirishi



Germaniya bilan SSSR o'rtasidagi urush muqarrar bo'lib, G'arbiy Yevropaning egallanishini Gitler o'zining asosiy rejasini – Sharqqa yurish uchun tayyorgarlik sifatida qarayotgan edi. Gitler SSSRni shiddat bilan tor-mor qilishni ko'zda tutgan **“Barbarossa”** rejasini tasdiqladi.

**1941-yili 22-iyunda** Germaniya SSSRga hujum boshladi. Urushning to'satdan boshlanishi shunga olib keldiki, sovet aviatsiyasining katta qismi havoga ko'tarilishga ulgurmasdan aerodromlarda yo'q qilindi, qo'shinni boshqarish va ta'minlash tizimi izdan chiqdi.

## Antigitler koalitsiyasining tuzilishi



**G**ermaniya SSSRga hujum boshlashi bilan Buyuk Britaniya bosh vaziri **U. Cherchill** va AQSH prezidenti **F. D. Ruzvelt** sovetlar bilan birdamligini e'lon qildi.

**1941-yil avgustda** AQSH va Buyuk Britaniya urush payti va undan keyingi hamkorlik tamoyillari to'g'risida deklaratsiya – **Atlantik xartiyani** imzoladilar. Bu hujjatni imzolagan tomonlar hududiy va boshqa boyliklarni egalab olishga intilmaslik, xalqlarning o'z boshqaruv shaklini erkin tanlash huquqini hurmat qilish, zo'ravonlik yo'li bilan suverenitetidan mahrum qilingan xalqlarning o'z huquqlarini tiklashga intilishini qo'llab-quvvatlash majburiyatlarini o'z zimmasiga oldilar. **1941-yil sentyabrda** SSSR Atlantik xartiyaning asosiy tamoyillarini qabul qildi.

Tinch okeanda Yaponiya boshlagan jangovar harakatlari AQSHning urushga qo'shilishini va antigitler koalitsiyasining batamom shakllanishini tezlashtirdi.

*Qrim konferensiyasi (o'tirganlar: chapda U. Cherchill, o'rtada F. D. Ruzvelt, o'ngda I. V. Stalin)*

## Urushning borishi

**A**QSH urushga qo'shilishi bilan antigitler koalitsiya davlatlari moddiy va insoniy resurslarda so'zsiz ustunlikka erishdi. Biroq urushning borishida burilish birdaniga yuz bermadi. **1941-yil dekabrda** nemis qo'shinlari Moskva ostonalarida jangni boy berdi va urushdagi dastlabki jiddiy mag'lubiyatga uchradilar. Ammo ularning hujumkorlik ruhi hali sindirilmagan edi. **1942-yil bahor-kuzida** nemis qo'shinlari Volga daryosiga va Shimoliy Kavkazga yetib keldilar. Afrikada german-italyan qo'shinlari hamon Misrga xavf solib turardi. **Malayya, Birma, Filippin, Indoneziya** bosib olgan yapon qo'shinlari esa Hindiston va Avstraliya bo'sag'asida turardi.

**1942-yil noyabrda** sovet qo'shinlari Stalingrad ostonalarida qarshi hujumga o'tib, nemis qo'shinlarining katta guruhini qurshab oldi. Qurshovdagi nemis qo'shinlari 1943-yil fevralda taslim bo'ldi.

**1944-yili** Sovet Ittifoqi o'z hududini to'liq ozod qildi, sovet qo'shinlari Sharqiy Yevropaga kirib bordi.





O'sha yili ittifoqchilar Fransiyaning shimoli-g'arbga qo'shin tushirib, Fransiya va Belgiyani ozod qildi. Urush Germaniyaning o'z hududlariga yetib keldi.

Fashizmga qarshi kurashda italyan-german qo'shinlari tomonidan zabt etilgan hududlardagi milliy-vatanparvar kuchlar – general **Sharl de Goll** boshchiligidagi “Ozod Fransiya” qarshilik harakati, **I. B. Tito** boshchiligidagi Yugoslaviya ozodlik harakati katta rol o'ynadi.

Urush yillari gitlerchilarga qarshi koalitsiya davlatlarining o'zaro munosabatlariga oid asosiy masalalar SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya liderlarining uchrashuvlarida hal qilindi. Urush davomida shunday uchrashuvlar uch marta: Tehron (1943), Qrim (Yalta, 1945-yil fevral) va Potsdam shaharlarida (1945-yil iyul-avgust) bo'lib o'tdi.

*Reyxstag ustiga SSSR bayrog'ining o'rnatilishi*

## Germaniyaning taslim bo'lishi



### BILIB OLING

*Versal tinchlik shartnomasi...*

*Millatlar Ligasi...*

**1945**-yil **16-apreldan 2-maygacha** Berlin operatsiyasi amalga oshirilib, bu vaqt ichida Germaniya poytaxti o'rab olindi va shturm bilan zabt etildi. Reyxstag ustiga sovetlarning qizil bayrog'i o'rnatildi.


**1945-yil 8-may** kuni Oliy bosh qo'mondon o'rinbosari **G. K. Jukov** Sovet Ittifoqi nomidan Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lganligi to'g'risidagi akti imzoladi. **9-may SSSRda G'alaba kuni** deb e'lon qilindi.

## Yaponiyaning taslim bo'lishi va Ikkinchi jahon urushining yakunlanishi

**1945**-yil **6-avgust** kuni AQSH Yaponiyaning Xirosima va **9-avgust** kuni Nagasaki shaharlariga atom bombalarini tashladi. Atom bombalari portlashi natijasida yuz minglab tinch aholi halok bo'ldi.

1945-yili Sovet Ittifoqi Yaponiyaga qarshi urushga kirdi. **1945-yil 2-sentyabr** kuni Yaponiya so'zsiz taslim bo'lish to'g'risidagi pakti imzoladi. **Ikkinchi jahon urushi** tugadi. Asosini fashistik Germaniya, Italiya va militaristik Yaponiya tashkil qilgan tajovuzkor davlatlar bloki tor-mor qilindi.





## Ikkinchi jahon urushining oqibatlari

Ikkinchi jahon urushi qariyb olti yil davom etdi va insoniyatga juda katta kulfatlar keltirdi. 110 mln kishi urushga safarbar qilindi. 65–70 mln kishi halok bo‘ldi, ular orasida harbiy xizmatchilar bilan birga millionlab tinch aholi ham bor edi.



*Nyurnberg sudi*

## Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi

**M**a'lumki, Birinchi jahon urushidan so'ng jahonda tinchlikni saqlash uchun 1919-yili tuzilgan "Millatlar Ligasi" deb nomlangan xalqaro tashkilot Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida antigitler koalitsiyasi mamlakatlarning rahbarlari o'rtasida **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)**ni tuzish g'oyasi paydo bo'ldi. Bu g'oya dastlab to'rtta davlat – AQSH, Buyuk Britaniya, SSSR va Xitoy tomonidan 1942-yil imzolangan deklaratsiyada o'z aksini topdi. BMT Ustavi **1945-yil San Fransisko** (AQSH) shahrida tasdiqlandi va shu yil **24-oktyabr**da kuchga kirdi. Bu sana har yili BMT kuni sifatida butun dunyoda nishonlanadi.

O'zbekiston Respublikasi **1992-yili** BMTga a'zo bo'lgan.



## Nyurnberg va Tokio sud jarayonlari

**G**ermaniyaning **Nyurnberg** shahrida **1945-yil noyabrdan 1946-yil oktyabr-gacha** fashist hokimiyati rahbarlari ustidan sud jarayoni bo'lib o'tdi. Unda Germaniyaning asosiy siyosiy va harbiy rahbarlari jazoga hukm qilindi. Tribunal natsistlar partiyasining rahbariyatini, SS, SD kabi hujumkor otryadlarni va **gestaponi** (siyosiy politsiya) jinoyatchi tashkilotlar deb e'lon qildi.

**1946-yil maydan 1948-yil noyabrgacha** Yaponiya poytaxti **Tokio** shahrida yapon agressiyasidan aziyat chekkan davlatlar vakillaridan tashkil topgan Xalqaro harbiy tribunal urushda aybdor deb topilgan yapon harbiy jinoyatchilari ustidan hukm chiqardi.



### IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

1. O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan olingan quyidagi satrlarni o'qing hamda mavzu bilan bog'lagan holda esse yozing: "Urushda g'olib va baxtli podshoh, g'olib va baxtli qo'shin, g'olib va baxtli davlat, g'olib va baxtli tuzum bo'lishi mumkin. Ammo g'olib va baxtli odam bo'lmaydi. Negaki urush odamni odam o'ldirishga majbur qiladi. Odam o'ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo'lmaydi".
2. O'zingiz istiqomat qilayotgan hudud (shahar, qishloq, mahalla)dagi Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari haqida taqdimot tayyorlang.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fashistlarning tor-mor qilinishida dunyo davlatlari qanday o'rin tutdi?
2. Xirosima va Nagasaki shaharlariga tashlangan atom bombalari urushning yakuniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdimi?
3. Ikkinchi jahon urushi yakunlari bilan tanishing. Urush insoniyat uchun qanday oqibatlarga olib keldi?
4. BMTning tuzilishi urushdan keyin dunyoda tinchlikni saqlashda qanday rol o'ynadi?
5. Nyurnberg va Tokio xalqaro sudlarining qarorlari qanday siyosiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi?
6. "Ikkinchi jahon urushi oqibatlari" mavzusida videorolik tayyorlang.



## Sovuq urush

Sovuq urush bu – ochiq harbiy to‘qnashuvga erishmagan SSSR va AQSH boshchiligidagi ikki harbiy-siyosiy blok o‘rtasidagi global qarama-qarshilik. “Sovuq urush” tushunchasi 1945–1947-yillarda matbuotda paydo bo‘ldi va asta-sekin siyosiy lug‘atga kirib bordi.



## Karib inqirozi

Karib inqirozi 1962-yilning ikkinchi yarmida SSSR va AQSH o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashuvining bir ko‘rinishi bo‘lib, dunyoni yadro urushi xavfi ostiga qo‘ydi. Buning sababi AQSHning Turkiyada yadro qurolini joylashtirishiga javoban yadroviy bombalarga ega sovet raketalarining Kuba hududida yashirin tarzda joylashtirilishi edi.



## Berlin devori

Berlin devori GDRning G‘arbiy Berlin bilan mustahkamlangan davlat chegarasi bo‘lib, sovuq urush va temir parda ramzi hisoblanadi. U balandligi 3,6 m va umumiy uzunligi 106 km bo‘lgan beton panjara edi. Berlin devori bo‘ylab 302 ta qo‘riqchi-minoralar va boshqa chegara inshootlari qurilgan.





# 1945–1991-YILLARDA YEVROPA VA SHIMOLIY AMERIKA MAMLAKATLARI

# WORLD'S HIGHEST STANDARD OF LIVING



15-  
mavzu

## G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xaritadan barcha materiklarni toping.
2. Shimoliy Amerika mamlakatlari taraqqiyoti qachondan boshlandi?
3. G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan qaysilarini bilasiz?

## DEMOKRATIK ISLOHOTLAR

I kkinchi jahon urushidan keyin dunyoning eng rivojlangan qismida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jamiyat hayotining muhim sohalarida davlat rolining yanada ortib borishini belgilab berdi. Markaziy va G'arbiy Yevropada parlament demokratiyasi tiklandi.

G'arb mamlakatlarida demokratiya deganda liberal demokratiyani tushuna boshlashdi. Liberal demokratiya uchun erkin va tez-tez o'tkaziladigan saylovlar, qonun ustuvorligi, hokimiyatning bo'linishi, shaxs huquq va erkinliklarining (so'z, vijdon, mulk erkinligi kabilar) kafolatlanganligi xarakterli jihatlar bo'lib qoldi.



### ESGA OLING

*Tarix fanidagi bilimlaringizga tayanib demokratiya, fashizm, parlament demokratiyasi tushunchalariga ta'rif bering.*

## “Umumiy farovonlik jamiyati”

A tlantika okeanining ikki qirg'og'i – G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada shakllangan sivilizatsiya XX asrda “**Yevroatlantik sivilizatsiya**” nomini oldi. Bu sivilizatsiya uchun liberal-demokratik qadriyatlar, jadal iqtisodiy rivojlanish va xalq farovonligini doimiy yuksaltirib borish kabi jihatlar xosdir. 1950-yillarda G'arb davlatlaridagi iqtisodiy yuksalish tufayli Italiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Shvetsiya kabi mamlakatlar o'z “iqtisodiy mo'jiza”sini namoyish qildi. Ilmiy-texnik inqilob ta'sirida iqtisodiyotda ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Ular G'arbiy Yevropa mamlakatlarida integratsion jarayonlarni tezlashtirib yubordi. 1960-yillarda G'arbning rivojlangan mamlakatlarida xalq farovonligini oshirishning davlat kafolatlari tizimi yaratildi, “umumiy farovonlik jamiyati”ni qurish g'oyasi paydo bo'ldi, uni amalga oshirish boshlandi. Iqtisodiy sohadagi muvaffaqiyatlar farovonlik davlati institutlari va mexanizmlarining uzil-kesil shakllanishi uchun sharoit yaratdi. Unda markaziy o'rinni aholining kam ta'minlangan qismiga ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturlari, yangi ish o'rinlarini yaratish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini qo'llab-quvvatlash, pensiya ta'minoti egalladi. Davlat barcha ijtimoiy qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratishning kafolatiga aylandi. Davlat siyosati aholi keng qatlamlarining turmush darajasini yuqori ta'minlangan qatlamning yashash



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*“Umumiy farovonlik jamiyati”ning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat edi?*



darajasiga yetkazishga qaratildi. Bu siyosatning maqsadi hayotning eng muhim sohalarida ijtimoiy imtiyozlar yaratish orqali jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf qilishdan iborat edi. Bu imtiyozlarga bolali oilalarga beriladigan nafaqalar tizimi, bepul maktab ta'limi, qarilik pensiyasi ta'minoti, ishsizlik va mehnat qobiliyatini yo'qotganlik uchun beriladigan nafaqalar tizimi va boshqa shu kabilar kiradi.

Bu tamoyillar Daniya, Norvegiya va Shvetsiya-da amalga oshirilgan sotsializmning "skandinav modeli" yoki "shved modeli" deb ataluvchi shaklida o'z aksini topdi.



## YODDA TUTING



*1960-yillarda G'arb mamlakatlarida liberal demokratiyaning takomillashuv jarayoni davom etdi.*

*1968-yil mayda Parij talabalarining namoyishi boshlandi.*

## 1960-yillarda radikalizmga qarshi reformizm

**XX** asrning 60-yillari butun G'arb mamlakatlarini qamrab olgan shiddatli evrilishlar davri ayni paytda liberal islohotchilikning eng avj pallasida sifatida tarixga kirdi. Bu davrda amalga oshirilgan yirik ijtimoiy o'zgarishlar G'arb jamiyatining qiyofasini o'zgartirib yubordi, uning yangi bosqichga o'tishi uchun imkoniyat yaratdi va ayni paytda liberalizm imkoniyatlarining chegarasini ham belgilab berdi, radikalizm faollashdi.

AQSHda 1960-yillari fuqarolar tengligi uchun harakat qizg'in tus oldi. Ko'plab joylarda qora tanlilarning namoyishlari bo'lib o'tdi. Bunga qarshi o'ta o'ng harakat vakillari siyosiy qotilliklarni amalga oshira boshladilar.

Fransiyada davlatning qat'iy tartibga solish siyosati fransuz jamiyatining ko'plab qatlamlarini norozi qildi. 1968-yil mayda Parij talabalarining namoyishi boshlandi. Prezident tashabbusi bilan o'tkazilgan *referendum*da saylovchilarning ko'pchiligi prezidentni qo'llamadi. Sharl de Goll iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.





## TARIXIY MUSHOHADA

*G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojida qaysi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etgan?*

XX asr davomida G'arb mamlakatlarida qaror topgan rivojlanish modeli 1970-yillar oxiri – 1980-yillar boshlariga kelib o'z imkoniyatlarini tugatib bo'ldi va chuqur inqiroz holatiga kirib keldi.

## 1980-yillardagi neokonservativ inqilob

**B**u inqirozning nishonasi 1970–1980-yillardagi neokonservativ to'liqin bo'lib, u ko'plab mamlakatlarda so'l siyosiy partiyalar va harakatlar o'z mavqeyini yo'qotishi, o'ng va konservativ kuchlar g'alaba qozonishi bilan xarakterlanadi.

1980-yili AQSHda **Ronald Reyganning** hokimiyatga kelishi va 1984-yili qayta saylanishi, Buyuk Britaniyada **Margaret Tetcher** boshchiligidagi konservativ partiyaning qatorasiga uch marta g'alaba qozonishi, GFR, Italiya va Fransiyadagi mahalliy va parlament saylovlari natijalari bu kuchlar tomonidan ilgari surilgan shiorlar aholining keng qatlami istaklari bilan hamohang ekanligini ko'rsatdi.



## BILIB OLING

*“Yevroatlantik sivilizatsiya” – ...*

*1970-yillar – ...*

*1980-yili AQSHda ...*

*Buyuk Britaniyada  
M. Tetcher ...*



*Dunyodagi birinchi kompyuter*

## Ilmiy-texnik inqilob

**I**lmiy-texnik taraqqiyotning birinchi to'liqini (1940-yillar oxiri – 1950-yillar) iqtisodiy infratuzilmaga inqilobiy o'zgarishlarni olib keldi. Iqtisodiyotning aviakosmik, radiotelevizion va robot texnikasi kabi yangi, ilmtalab, mehnat va energiya sarfini tejoychi sohalari paydo bo'ldi. Butun urushdan keyingi davr uchun xos bo'lgan jihat harbiy-sanoat kompleksining keng miqyosda rivojlanishi edi.

1970-yillarning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik taraqqiyotning *informatsion* yoki *telekommunikatsion* inqilob nomini olgan yangi to'liqini boshlanishi bilan

zamonaviy kapitalizm o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga kirdi. Bu inqilob natijasida elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish, iqtisodiyotni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish, ishlab chiqarishni robotlashtirish, integral sxemalarni joriy qilish kabi mutlaqo yangi sohalar yo'lga qo'yildi.

### Industrial sivilizatsiyadan postindustrial sivilizatsiya sari

“**Postindustrial jamiyat**” atamasini 1962-yili amerikalik sotsiolog **Daniel Bell** muomalaga kiritgan. Postindustrial jamiyatning o'ziga xos jihati – bu jamiyatda sanoat emas, axborot ishlab chiqarishning ustuvor ekanligi.

O'tgan asrning 60-yillarida D. Bellning postindustrial jamiyat haqidagi g'oyasi odamlarga utopiya bo'lib tuyulgandi. Bugungi kunda esa bu g'oyaning ko'plab jihatlari amaliyotda o'z tasdig'ini topdi. Shu sababli tarixiy taraqqiyotning hozirgi bosqichini industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish davri deb atash mumkin.



### IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Xaritadan foydalanib G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari hududlarini ko'zdan kechiring. Daftaringizga har bir davlatning rivojlanishi bilan bog'liq ma'lumotlarni yozib, ularning har birini sharhlang.*



### ATAMALAR MAZMUNI

**Referendum** bu – fuqarolarning davlat, viloyat yoki mahalliy ko'lamda eng muhim masalalar bo'yicha ovoz berish yo'li orqali o'z fikrlarini bevosita bildirishlari.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. XX asrning 60-yillari butun G'arb mamlakatlarini qamrab olgan jarayonlar va ularning natijalari haqida so'zlab bering.
2. 1980-yili AQSHda R. Reyganning hokimiyatga kelishi, Buyuk Britaniyada M. Tetcher boshchiligidagi konservativ partiyaning ketma-ket saylovlardagi g'alabasi nimalarni anglatar edi?
3. Nima sababdan bu davrda Yevropada integratsiyalashuv jarayonlariga ehtiyoj paydo bo'ldi?

# 16- mavzu

## SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yoʻnalishlari



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. SSSR qachon tashkil topgan edi?
2. Xaritadan Sharqiy Yevropa mamlakatlarini toping.
3. XX asr boshlarida SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishning asosiy yoʻnalishlari sifatida nimalarni asos qilib olishgan?

## URUSHDAN KEYINGI TIKLANISH VA RIVOJLANISH



### ESGA OLING

*SSSR tashkil etilganda dastlab uning tarkibiga qaysi davlatlar kirgan?*

**Sh**arqiy Yevropaning ko'pchilik davlatlari – **Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya** jahon siyosiy xaritasida Birinchi jahon urushidan so'ng paydo bo'lgan edi.

Fashizm tor-mor qilingandan so'ng Sharqiy Yevropa mamlakatlarida hokimiyatga antifashist yo'nalishdagi partiyalar (kommunistlar, sotsial-demokratlar, liberallar va boshqalar) vakillaridan iborat koalitsion hukumatlar keldi.

Sovuq urush boshlanishi bilan Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham siyosiy kuchlarning qarama-qarshi tomonlarga, G'arb va sovetlar tarafdorlariga ajralishi yuz berdi. Ko'pchiligida sovet qo'shinlari joylashgan bu mamlakatlarda 1947–1948-yillari kommunistik qarashlarni yoqlamaganlar hukumatlar tarkibidan chiqarildi.

SSSRning iqtisodiy va harbiy-siyosiy qudrati yuksalishi bilan sovet rahbarlarida dunyoning bir qismiga yetakchilik qilish da'vosi ham ortib bordi. SSSR sotsializm qurish yo'liga kirgan mamlakatlarga moliyaviy va harbiy yordam ko'rsata boshladi.



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Sovet rahbariyati umumjahon sotsialistik inqilobi g'oyasi orqali nimalarni nazarda tutgan?*

## SOVUQ URUSH

**Y**evropaning ikki guruhga – AQSH bilan yaqinlashuv yo'lini tanlagan hamda SSSR bilan hamkorlikni tanlagan davlatlarga bo'linishi 1980-yillar oxirigacha davom etdi va bu qarama-qarshilik jahon tarixida "sovuq urush" nomini oldi. Yevropa qit'asida, keyin esa butun dunyo miqyosida bir-biriga qarama-qarshi turgan harbiy-siyosiy va iqtisodiy ittifoqlar tizimi shakllandi. Dunyoning eng katta davlatlari – AQSH va SSSR bu ittifoqlarning markazlariga aylandi.





## YODDA TUTING

1947-yili AQSH tomonidan “Marshall rejasi” taklif qilindi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 1947–1948-yillari kommunistik qarashlarni yoqlamaganlar hukumatlar tarkibidan chiqarildi.

1949-yili O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O‘IYK) tuzildi.

**1949-yil yanvarda** SSSR va Sharqiy Yevropaning ko‘pchilik davlatlari iqtisodiy ittifoq – **O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O‘IYK)** tuzilganligini e‘lon qildilar. O‘z navbatida, G‘arb davlatlari **1949-yil aprelda Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO)** deb ataluvchi harbiy-siyosiy tashkilotni tuzdilar.

Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkilotiga javob tariqasida **1955-yili** SSSR bilan unga do‘st bo‘lgan Sharqiy Yevropa davlatlarining harbiy-siyosiy ittifoqi – **Varshava Shartnomasi Tashkiloti** tuzildi.



## TARIXIY MUSHOHADA

*Shimoliy Atlantika Shartnomasi (NATO) va Varshava Shartnomasi tashkilotlari qanday maqsadda va qaysi davlatlar ishtirokida tuzilganligini asoslang.*

Yevropada ikkita bir-biriga qarama-qarshi turuvchi harbiy-siyosiy ittifoqning vujudga kelishi faqat SSSR bilan AQSH o‘rtasida dunyoga hukmronlik qilish uchun kurashning natijasi emasdi. Ulardan har biri o‘zining milliy-davlat manfaatlarini bilan bog‘liq qarashlaridan kelib chiqadigan dunyo modelini, xalqlarning o‘ziga xos yashash tarzini himoya qilardi.



## Kommunistik jamiyat g'oyasi, totalitar sotsializm va uning inqirozi

**1956**-yil fevralda bo'lib o'tgan **Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi (KPSS)**ning XX syezdida **Nikita Xrushchov** nutq so'zlab, Stalin davrida shakllangan shaxsga sig'inishni qoraladi. XX syezd sovet totalitar davlatining xarakterini anglash jarayonini, xalqaro kommunistik harakatning inqirozini boshlab berdi va sotsialistik tizim oxirigacha bu inqirozdan chiqa olmadi.

Qayta qurish yillari kirib kelgan oshkoralik sovet jamiyatining poklanishi yo'lida katta qadam bo'ldi, u stalinizmning, sovet totalitar tuzumining jinoyatlarini ochib tashladi. Endi ko'pchilik, ayniqsa, ilg'or ziyolilar bu tuzumni isloh qilish emas, undan voz kechish lozimligini anglab yetdilar.

SSSRdagi kommunistik mafkura inqirozi butun dunyoda kommunistik harakat, umuman, so'l mafkuraning inqiroziga olib keldi.



### IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Xaritadan foydalanib Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) va Varshava Shartnomasi Tashkiloti tarkibidagi hududlarni ko'zdan kechiring. Daftaringizga har bir davlatning tashkilotga nima munosabat bilan qabul qilinganini yozing va sharhlang.*



### ATAMALAR MAZMUNI

**Kommunist** bu – kommunizm tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydigan yoki unga ishonadigan odam.

**Liberal** – 1) hur fikrli, erkin shaxs; murossoz, kelishuvchi; 2) liberalizm tarafdori.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sharqiy Yevropa davlatlari – Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya jahon siyosiy xaritasida qaysi voqeadan keyin paydo bo'ldi?
2. Nima sababdan sovuq urush jarayonida harbiy-texnik omillar eng katta rol o'ynay boshladi?
3. Integratsiyalashuv jarayonida qanday iqtisodiy va harbiy bloklar tuzildi?
4. Totalitar rejim mafkurasining muhim tarkibiy qismlarini sanang.



17-  
mavzu

# AQSH: yangi liderning paydo bo'lishi



## FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'rta asrlarda Amerika qit'asida mavjud bo'lgan qaysi davlatlarni bilasiz?
2. Birinchi jahon urushi AQSH uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
3. Vashington konferensiyasi AQSH uchun nimalar berdi?



AQSH prezidenti Duayt Eyzenhauer

## URUSHDAN KEYINGI AMERIKA JAMIYATI



### ESGA OLING

*Shimoliy Amerika va Lotin Amerika-  
si tushunchalariga ta'rif bering.*

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda AQSH taraqqiyoti uchun juda qulay sharoit vujudga keldi. Urush AQSH iqtisodining tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minladi. Urush yillari AQSHning ishlab chiqarish quvvatlari ikki barobar, eksport hajmi besh barobar, yalpi milliy mahsuloti hajmi ikki barobar o'sdi. Shu tariqa AQSH iqtisodiy va harbiy jihatdan dunyoning eng qurdatli davlatiga, yangi lideriga aylandi.

### Eyzenhauer va Kennedi: respublikachilar va demokratlar

**1952**-yilgi saylovlarda respublikachilar partiyasi g'alaba qozondi. Ikkinchi jahon urushi qahramoni, urush yillari AQSHning Yevropadagi qo'shinlari qo'mondoni bo'lgan general **Duayt Eyzenhauer** AQSH prezidenti etib saylandi.

Siyosatda realist bo'lgan D. Eyzenhauer iqtisodiyot va ijtimoiy sohada davlatning rolini oshirish lozimligini juda tez anglab yetdi. Shu sababli uning ma'muriyati ichki siyosatda, ayniqsa, ijtimoiy sohada o'zidan oldingi demokratlarning siyosatini biroz o'zgarishlar bilan davom ettirdi.

**1960-yilgi** prezidentlik saylovlarida demokratik partiya nomzodi **Jon Kennedining** g'alabasi urushdan keyingi Amerika tarixida muhim voqea bo'ldi. J. Kennedi o'zining "Yangi marralar" deb nom olgan islohotchilik dasturini ilgari surdi, iqtisodni barqarorlashtirish va ijtimoiy yordam dasturini kengaytirish bo'yicha juda ko'plab tadbirlar ishlab chiqdi va amalga oshirdi.

J. Kennedi **1963-yil 22-noyabrda** ikkinchi marta prezident bo'lish uchun saylovoldi tashviqoti doirasidagi tadbirda ishtirok etayotgan chog'ida yollanma qotil tomonidan o'ldirildi. Bu fojia Amerikaning o'zida ham, butun dunyoda ham ko'pchilikni chuqur iztirobga soldi.

**1964-yilgi** saylovlarda **Lindon Jonson** g'alaba qozondi va AQSH prezidenti lavozimini egalladi.





## YODDA TUTING

*1952-yilgi saylovlarda 1932-yildan beri muxolifatda bo'lib kelayotgan respublikachilar partiyasi g'alaba qozondi.*

*1960-yilgi prezidentlik saylovlarida demokratik partiya nomzodi – Jon Kennedining g'alabasi urushdan keyingi Amerika tarixida muhim voqea bo'ldi.*

*J. Kennedy 1963-yil 22-noyabrda ikkinchi marta prezident bo'lish uchun Texas shtatining Dallas shahrida saylovoldi tashviqoti doirasidagi tadbirda ishtirok etayotgan chog'ida yollanma qotil tomonidan o'ldirildi.*



Jon Kennedy

## Fuqarolar huquqlari uchun harakatlar, yangilanayotgan jamiyat



**XX** asrning 60-yillari AQSHda ommaviy norozilik harakatlari avj oldi. Ijtimoiy va siyosiy hayotning turli sohalarida saqlanib qolayotgan afroamerikaliklarning kamsitilishi qarshilik harakatining asosiy sababi edi.

1960-yillar o'rtalarida afroamerikaliklar harakatida o'z huquqlari uchun kurashda kuch ishlatish yo'lini tanlagan guruh paydo bo'ldi. **1968-yil 4-aprel** kuni Memfis shahrida fuqarolar tengligi uchun harakatning eng mashhur rahbari, afroamerikalik tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti laureati, ruhoniyl **Martin Lyuter King** o'ldirildi. Ruhoniyni ko'mish marosimi afroamerikalik aholiga nisbatan zo'ravonliklarga qarshi norozilik namoyishiga aylanib ketdi.



## TARIXIY MUSHOHADA



Martin Lyuter King


*1968-yil 4-aprel kuni Memfis shahrida fuqarolar tengligi uchun harakatning eng mashhur rahbari, tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti laureati, ruhoniyl Martin Lyuter Kingning o'ldirilishi AQSH jamiyatida qanday muammolar mavjud ekanligini ko'rsatdi?*



## R. Niksondan R. Reygangacha: rivojlanish sur'atlari

**Sh**unday murakkab sharoitda 1968-yili bo'lib o'tgan saylovlarda respublikachilar partiyasi vakili – **Richard Nikson** AQSH prezidenti etib saylandi. R. Niksonning hokimiyatga kelishi bilan Amerika tarixida respublikachilarning navbatdagi davri boshlandi.

R. Niksonga ancha og'ir meros qoldi. Iqtisodiy inqirozni bartaraf etish maqsadida 1971-yili R. Nikson “**yangi iqtisodiy siyosat**”ni e'lon qildi.



AQSH prezidenti Ronald Reygan



AQSH qo'shinlarining Vyetnamga kirishi



### BILIB OLING

1960-yilgi prezidentlik saylovlarida ...

1968-yili bo'lib o'tgan saylovlarda ...

1974-yil avgustda ...

1979-yilgi ...

“Reyganomika” – ...

**1976-yili** Amerika Qo'shma Shtatlari o'z mustaqilligining 200 yilligini katta tantanalar bilan nishonladi. Shu yili o'tkazilgan prezidentlik saylovlarida demokratik partiya vakili – **Jimmi Karter** g'alaba qozondi.

J. Karter to'rt yillik prezidentlik davrida o'zining saylovoldi va'dalaridan ko'pchiligini bajarishga erisha olmadi. Uning prezidentlik davrini, ayniqsa, olib borgan tashqi siyosatini muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi. Qo'shma Shtatlar siyosati va obro'yiga berilgan juda katta zarbalardan biri **1979-yilgi Eron inqilobi** bo'ldi.

Umuman, 1980-yillarga AQSH ancha sust ichki va tashqi pozitsiya bilan kirib keldi. Mamlakatning moliyaviy ahvoli yomonlashdi. Iqtisodda uzoq muddatli salbiy tendensiyalar paydo bo'ldi. 1980-yilgi prezidentlik saylovlarida respublikachilar partiyasidan nomzod – **Ronald Reygan** g'alaba qozondi. Demokratlar senatda va vakillar palatasida ham ko'plab o'rinlaridan ajraldi.

R. Reyganning ijtimoiy-iqtisodiy dasturi “**Reyganomika**” nomi bilan mashhur bo'ldi. R. Reygan iqtisodiy tushkunlikni yengib o'tishga, ishsizlikni qisqartirishga, daromad solig'ini pasaytirishga, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga, ish tashlash



harakatini jilovlashga erishdi. Bular va boshqa bir qator omillar uning 1984-yili ikkinchi muddatga prezident etib saylanishini ta'minladi. R. Reygan siyosatidagi ijobiy o'zgarishlar 1988-yilgi navbatdagi prezidentlik saylovlarida respublikachilar partiyasi vakili – **Jorj Bush**ga prezidentlik saylovlarida g'alaba qozonish imkonini berdi.

## Tashqi siyosat

Ikkinchi jahon urushidan so'ng qudratli davlatga aylangan AQSH SSSR bilan sovuq urushga kirishdi, Koreya, Vyetnam va Osiyoning boshqa hududlarida bir qator urushlar olib bordi.

1973-yili Vyetnamdagi urush to'xtatildi. Vyetnam uzil-kesil yagona davlatga birlashdi. Bu Janubi-sharqiy Osiyoda Amerika tajovuzining to'liq mag'lubiyatga uchraganini anglatar edi.

1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshiga kelib xalqaro maydonda yuz bergan sovuq urushning yakunlanishi, yadro urushi xavfining kamayishi, SSSR va sotsialistik hamdo'stlikning tarqalib ketishi, Germaniyaning birlashishi kabi voqealar AQSH siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. AQSH dunyoning yagona va umumiy tan olingan yetakchisiga aylandi. Bu AQSHni bir qutbli dunyo tartibini yaratish mumkinligi to'g'risidagi o'ta jozibador, ammo ziddiyatli fikrga olib keldi.



## ATAMALAR MAZMUNI

**Tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti** dunyoda tinchlik o'rnatishga ulkan hissa qo'shgan shaxslar yoki tashkilotlarga beriladi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda AQSH taraqqiyotida qanday jarayonlar kuzatildi?
2. AQSHning ichki siyosatida har bir prezidentning qaysi jihatlarini e'tirof etish lozim?
3. AQSHning tashqi siyosatida murakkablik kuzatilgan davr haqida nimalarni bilasiz?
4. 1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshiga kelib xalqaro maydonda sodir bo'lgan eng asosiy voqealar nimalardan iborat edi?



18-  
mavzu

## Buyuk Britaniya va Fransiya: yangi Yevropani qurish



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birinchi jahon urushi Buyuk Britaniya uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
2. Birinchi jahon urushi Fransiya uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?

## BUYUK BRITANIYA

**B**uyuk Britaniya Ikkinchi jahon Urushini g'olib va antigitler koalitsiyasining yetakchi davlatlaridan biri sifatida yakunladi. Urushda fashizm ustidan qozonilgan g'alaba ingliz xalqida ijobiy o'zgarishlarga ishonch, Britaniya imperiyasi xalqlarida esa ozodlikka kuchli intilish uyg'otdi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda Buyuk Britaniya iqtisodiyoti ancha tez sur'atlar bilan rivojlandi, 1947-yil oxiriga kelib sanoat ishlab chiqarishining hajmi urushdan oldingi darajasiga yetdi. Britaniya iqtisodiyotining o'sishiga **leyboristlar** hukumati tomonidan amalga oshirilgan davlat sektorining ancha kengayishi ham ta'sir ko'rsatdi.

1950-yillar Buyuk Britaniya iqtisodining sekin, ammo barqaror o'sish davri bo'ldi. O'n yil ichida Buyuk Britaniyaning jahon ishlab chiqarishidagi hissi ancha pasaydi va shunga qaramasdan, u kapitalistik dunyoda AQSHdan keyin – ikkinchi o'rinni egallab turdi.



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Sizningcha, yangi davrning boshlaridan to bugungi kunga qadar Buyuk Britaniya iqtisodining barqaror rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat edi?*



### ESGA OLING

*Geografiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib G'arbiy va Sharqiy Yevropa tushunchalariga ta'rif bering.*



*Bosh vazir U. Cherchill 1945-yil 8-may kuni Uaythollda xalqqa murojaat qilmoqda*

1960-yillarda ham Buyuk Britaniya iqtisodiyotining o'sish sur'atlari pastligicha qoldi. Kapitalistik dunyo ishlab chiqarishida Buyuk Britaniyaning hissi kamayib bordi. 1960-yillarning o'rtalariga kelib Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) uni ikkinchi o'rindan, 1970-yillarning boshiga kelib esa Yaponiya uchinchi o'rindan ham surib chiqardi.



*Buyuk Britaniya bosh vaziri  
Margaret Thatcher*

## Margaret Thatcher davri, “tetcherizm”

**1979**-yili bo‘lib o‘tgan saylovlarda konservatorlar ishonchli g‘alabani qo‘lga kiritdi. Hukumatni Buyuk Britaniya tarixida birinchi marta ayol kishi – **Margaret Thatcher** boshqardi.

Konservatorlar ijtimoiy-iqtisodiy kursining asoslari 1970-yillarning o‘rtalarida qabul qilingan “*To‘g‘ri yondashuv*” nomli dasturiy hujjatda o‘z aksini topgan edi. M. Thatcher hokimiyatga kelishi bilan bu dastur amalga oshirila boshlandi. Neokonservatizmning britaniyacha varianti bo‘lgan “**tetcherizm**” ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasi o‘zining asosiy maqsadi qilib ishsizlikka emas, inflyatsiyaga qarshi kurashni tanladi.


Bu davrda ingliz jamiyatining yana bir muammosi – imperiyachilik ongi qoldiqlarining chuqur ildiz otganligi va yashovchanligi namoyon bo‘ldi. Bu 1982-yili Janubiy Atlantikadagi uzoq Folklend (Malvin) orollarida yuz bergan voqealar munosabati bilan ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlandi.

1982-yili Argentina bahsli Folklend orollari ustidan o‘z suverenitetini o‘rnatishga urinib ko‘rdi. Britaniya hukumati Folklend orollariga harbiy eskadra jo‘natishga qaror qildi. BMTning muammoni tinch yo‘l bilan hal qilishga urinishiga qaramasdan, konservatorlar hukumati qat‘iy pozitsiyani egalladi. 1982-yil ingliz qo‘shinlari Folklend orollariga hujum qilishni boshladi. Iyunda oroldagi Argentina qo‘shinlari taslim bo‘ldi.

1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshlarida Buyuk Britaniyaning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tashvishli belgilar paydo bo‘ldi, inflyatsiya darajasi ortib bordi. So‘nggi o‘n yilda birinchi marta M. Thatcher hukumatining obro‘yi ham pasayib ketdi. 1990-yilgi saylovlarda **Jon Meyjor** bosh vazir etib saylandi va shu bilan “tetcherizm” davri tugadi.



## YODDA TUTING



*Buyuk Britaniyada 1947-yil oxiriga kelib sanoat ishlab chiqarishining hajmi urushdan oldingi darajasiga yetdi.*

*1960-yillari ham Buyuk Britaniya iqtisodiyotining o‘sish sur‘atlari pastligicha qoldi.*

*1979-yili bo‘lib o‘tgan saylovlarda Buyuk Britaniya tarixida birinchi marta hukumatga ayol kishi – konservatorlar vakili Margaret Thatcher keldi.*

*1990-yilgi saylovlarda Jon Meyjor g‘alaba qozondi va M. Thatcher o‘rniga bosh vazir etib saylandi.*



## FRANSIYA

I kkinchi jahon urushi Fransiyaga nihoyatda katta zarar yetkazdi. Urush, shuningdek, ocharchilik va kasalliklar tufayli Fransiya 3 mln kishisidan ayrildi.

1945-yilda Ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazildi. Unda so'l kuchlar g'alaba qozondi. Koalitsion hukumatni Fransiya ozodligi uchun kurash yetakchisi general Sharl de Goll boshqardi. U mamlakatda ulkan obro'ga ega edi.

Ammo Ta'sis majlisida ko'pchilik o'rinlarni egallagan kommunistlar va sotsialistlar hukumat faoliyatini nazorat qilishni boshlaganda De Goll Ta'sis majlisi qaroriga bo'y-sunishni istamadi. Ta'sis majlisi a'zolarining ko'pchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan De Goll iste'foga chiqdi.

### To'rtinchi respublika

**Sh**u yili qabul qilingan yangi konstitutsiyaga ko'ra, ikki palatali parlament umumiy ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadigan, prezidentni esa 7 yil muddatga parlament saylaydigan bo'ldi. De Goll yana prezident etib saylandi. Konstitutsiya kuchga kirishi bilan Fransiya tarixida **To'rtinchi respublika** davri boshlanib, u o'n ikki yil (1946–1958) davom etdi. Koalitsiya o'rtasidagi kelishmovchiliklar tufayli shu yili De Goll Milliy majlisni tarqatib yubordi. To'rtinchi respublika barham topdi.



*Fransiya prezidenti Sharl de Goll*

### Beshinchi respublika

**1958**-yil sentyabrda o'tkazilgan referendumda fransuzlar yangi konstitutsiyani ma'qulladi. Konstitutsiyaga muvofiq, Fransiya prezidentlik respublikasiga aylandi.

1958-yil dekabrda Sharl de Goll yana Fransiya prezidenti etib saylandi. Fransiyaning buyukligini tiklashga intilgan De Goll kuchli iqtisodiyot va mustaqil tashqi siyosatga ega bo'lgan davlatni shakllantirishga kirishdi.

1958–1960-yillari Fransiyaning Afrikadagi mustamlakalari o'z mustaqilliklarini e'lon qildi. Murakkab tortishuvlardan so'ng 1962-yili Jazoirga ham mustaqillik berildi. Shu bilan fransuz mustamlaka imperiyasi to'liq barham topdi.



## BILIB OLING

1945-yili ...

1950-yillarda ...

1962-yili ...

1958-yil dekabrda  
Sharl de Goll ...

1960-yili...

Ko'plab yutuqlarga qaramasdan, 1960-yillar oxirida **Beshinchi respublikada** inqiroz boshlandi. Davlatning qat'iy tartibga solish siyosati fransuz jamiyatining ko'plab qatlamlarining noroziligiga sabab bo'ldi. 1968-yil mayda Parij talabalarining namoyishi boshlandi. Namoyishning shafqatsiz bostirilishi mehnatkashlarning ishtashlashlariga ulanib ketdi.

Ozodlik uchun kurashning katta tajribasiga ega bo'lgan fransuzlar – o'z erkini hamma narsadan ustun qo'yadigan millat hatto De Golldek milliy qahramonning ham nufuzi ol-dida bo'ysunishni istamadi, uning avtoritar rejimini boshqa qabul qila olmadi. De Goll iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

## 1970–1980-yillarda Fransiya



Fransiya prezidenti  
Fransua Mitteran

**1969**-yil oxirida bo'lib o'tgan saylov-larda **Jorj Pompidu** respublika prezidenti etib saylandi. Islohotlar boshlanib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning davlat tomonidan tartibga solinishi yumshadi, ijtimoiy qonunchilik takomillashdi. AQSH bilan munosabatlar yaxshi-landi.

1981-yilgi saylovlarda birinchi marta sotsialist **Fransua Mitteran** Fransiya prezidenti etib say-landi. Shu yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida ham Sotsialistik partiya juda katta yutuqqa erishdi.

So'l kuchlarning hamkorlikdagi dasturida ko'p-chilik fransuzlar manfaatiga mos bo'lgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ko'zda tutildi. Banklar va sanoatning ko'plab sohalari *natsionalizatsiya* qilindi. Ammo inflyatsiyani to'xtatishning iloji bo'l-madi. Jamiyatda norozilik kuchaydi.

1986-yilgi parlament saylovlarida o'ng kuchlar g'olib chiqdi. Ularning vakili **Jak Shirak** bosh va-zir lavozimini egalladi. F. Mitteran prezident bo'lib qoldi. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan hukumat shug'ullandi.

1988-yilgi prezidentlik saylovlarida yana F. Mit-teran g'alaba qozondi. Shu yili navbatdan tashqari o'tkazilgan parlament saylovlarida sotsialistlar g'olib chiqib, yana besh yil hokimiyatni boshqardi.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG‘I



1958-yilda prezident bo‘lib saylangan, Fransiyaning buyukligini tiklashga intilgan De Goll kuchli iqtisodiyot va mustaqil tashqi siyosatga ega bo‘lgan davlatni shakllantirishga kirishdi.

“Fransiya De Goll hukumati yillarida” mavzusida esse yozing.



### ATAMALAR MAZMUNI

**Natsionalizatsiya** – ayrim shaxs yoki birlashmalarning xususiy mulki bo‘lgan yer, ishlab chiqarish korxonalari, transport, banklarni davlat yoki jamiyat mulkiga aylantirish, davlat ixtiyoriga olish.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushi Buyuk Britaniya uchun qanday yakunlandi?
2. Buyuk Britaniyada M. Tetcher hamda J. Meyjor bosh vazir bo‘lgan yillari iqtisodiyotda qanday tub o‘zgarishlar yuz berdi?
3. To‘rtinchi va Beshinchi respublika davrida Fransiya ichki va tashqi siyosatidagi eng muhim voqealar nimalardan iborat?



### MUSTAQIL ISH

Matndan foydalanib Buyuk Britaniyada Margaret Tetcher, Jon Meyjor, Fransiya De Goll, Jorj Pompidu, Fransua Mitteranlar davridagi ichki va tashqi siyosatdagi muhim voqealarni jadval (yil, amalga oshirilgan ishlar) ko‘rinishida daftaringizga yozing.



# 19- mavzu

## Germaniya va Italiya: magʻlubiyatdan keyingi taraqqiyot



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birinchi jahon urushi Germaniya uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
2. Birinchi jahon urushi Italiya uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
3. Germaniya va Italiya Ikkinchi jahon urushidan qanday saboq chiqardi?




## GERMANIYA

**F**ashizm va u boshlagan Ikkinchi jahon urushi boshqa xalqlar qatori nemis xalqiga ham juda katta musibat keltirdi. Germaniya mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lmay qoldi. Germaniya natsional-sotsializmining harbiy-siyosiy jihatdan barbod bo'lishi mamlakatni demokratik qayta qurish istiqbollarini ochib berdi. Ammo buning uchun o'ta noqulay sharoit vujudga kelgan edi.



### ESGA OLING

*“Kapitalizm” tushunchasiga ta’rif bering.*



*Germaniyaning okkupatsiya zonalariga bo'linishi*

1945-yili Germaniya hududi o'ta achinarli qiyofada edi. Ittifoqchilar aviatsiyasi Hamburg, Drezden, Berlin, Myunxen, Nyurnberg va Rur ko'mir-metallurgiya havzasi shaharlarini vayron qilib tashlagandi. Bombalar portlashlaridan hosil bo'lgan xandaqlar, Gitler davrida qurilgan ulkan avtomagistrallar mamlakatning sharqiy qismini egallagan Qizil armiya soldatlaridan najot izlayotgan millionlab och qochoqlar, Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya va Vengriyadan quvilgan nemislar bilan to'lib ketgandi. Gazetalar sahifalarida bosilgan rasmlar ahvolni o'z-o'zidan izohlab turardi: “Vayronalar oralab yegulik izlab timirskilanib yurgan, faqat qoq suyaklari qolgan bolalar, bir parcha ko'mir uchun ko'chada mushtlashayotgan odamlar, ochiq havoda uxlayotgan nemis asirlari...” Kechagina dunyoga hukmronlikni da'vo qilayotgan millatning bugungi ahvoli juda xarob edi. Germaniya

urushda 6,5 mln aholisidan, urushdan oldingi o'z hududining bir qismidan ayrildi. Aholining yashash darajasi keskin tushib ketdi. G'olib davlatlar Germaniya hududini to'rtta okkupatsiya zonalariga bo'lib, mamlakatda hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Berlin ham to'rtta sektorga bo'lindi. Ittifoqchilar deyarli barcha nemis idora va tashkilotlarini tarqatib yubordi.



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQRING

*Sizningcha, Germaniya nima sababdan bunday ayanchli ahvolga tushib qoldi?*





*Konrad Adenauer*

Germaniyani tinchliksevar, demokratik davlatga aylantirish uchun sharoit yaratildi. Natsistlar tomonidan taqiqlangan partiyalar va jamoat tashkilotlari tiklandi. Birinchi bo'lib yashirin holatdan kommunistlar va sotsial-demokratlar chiqdi. Ular birlashib, **Germaniya birlashgan sotsialistik partiyasini (GBSP)** tashkil qildi. 1949-yilda Parlament kengashi **Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonunini** tasdiqladi. U GFRni demokratik, federativ davlat deb e'lon qildi, fuqarolarning asosiy huquq va siyosiy erkinliklarini belgilab berdi. 1949-yil 7-sentyabrda yangi davlat – Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) tashkil etilganligi e'lon qilindi. **Bonn** shahri yangi davlatning poytaxti bo'ldi. Germani-

yaning ko'zga ko'ringan siyosiy arbobi **Konrad Adenauer** kansler etib saylandi. 1949-yil 7-oktyabrda SSSRning okkupatsiya zonasi bo'lgan sharqiy qismida **Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR)** tashkil qilindi. **Sharqiy Berlin** bu davlatning poytaxti deb e'lon qilindi. Germaniyaning ikkita davlatga bo'lingan davri 40 yil davom etdi.

GFRda 1950–1960-yillari iqtisod jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Harbiy xarajatlarining kamligi, “Marshall rejasi” bo'yicha Amerikaning katta yordami, arzon chet el ishchi kuchidan unumli foydalanish, yangi uskunalarning keltirilishi mamlakat xo'jaligining jadal sur'atlar bilan tiklanishini ta'minladi. GFR barcha qarzlaridan qutulib, ancha katta oltin-valyuta zaxirasini ham yaratdi. Kansler K. Adenauer 1955-yilgacha bir paytning o'zida tashqi ishlar vaziri vazifasini ham bajardi. Xalqaro hamjamiyatga qaytish mutlaqo oson ish emas-



## TARIXIY MUSHOHADA

*1949-yilda Parlament kengashi Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonunini tasdiqladi.*

*1949-yil 7-sentyabrda yangi davlat – GFR tashkil qilindi.*

*1949-yil 7-oktyabrda SSSRning okkupatsiya zonasi bo'lgan sharqiy qismda Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) tashkil qilindi.*

*1955-yili GFR NATOga a'zo bo'ldi.*



di – german fashizmidan jafro chekkan mamlakatlarning yotsirashini yengib o'tish kerak bo'ldi. Bu GFR birinchi kansleri diplomatiyasining asosiy maqsadi bo'lib qoldi. Mamlakat asta-sekin okkupatsiyadan qutulib, mustaqillikni qo'lga kirita bordi. K. Adenauer Parij, Rim, London va Vashingtonga dastlabki rasmiy tashriflarni amalga oshirdi. Lyuksemburgda u repatriatsion to'lovlar haqidagi shartnomaga imzo chekdi. Unda yosh Isroil davlatiga yordam berish ko'zda tutilgan edi. GFR siyosiy raqiblarining qarama-qarshiliklarini yengib, 1955-yili NATOga a'zo bo'ldi. Parij ahdomasining kuchga kirishi tufayli GFR uchun okkupatsiya davri tugadi. Sharqdan ko'chib kelayotganlar oqimi va kansler K. Adenauerning qulay iqtisodiy siyosati "Marshall rejasi" doirasida olgan salmoqli moliyaviy "darmon" bilan qo'shilishi natijasida GFR 1955-yildayoq misli ko'rilmagan taraqqiyotga erishdi. Germaniya eng qisqa tarixiy muddatda urush jarohatlarini tuzata oldi. 1963-yili K. Adenauer iste'foga chiqdi. Xristian-demokratik ittifoqi (XDI) raisi lavozimini egallagan **Lyudvig Erhard** "nemis iqtisodiy mo'jizasining tan olingan otasi" edi.

Dolzarb muammolarni hal qilish maqsadida L. Erhard o'z dasturini e'lon qildi. Unda ozod, ochiq, dinamik, demokratik jamiyat qurish g'oyasi ilgari surilgandi. Ammo bunday jamiyatni qurish uchun Germaniyada qulay sharoit mavjud emasdi, mamlakat iqtisodiy tushkunlik davriga kirib kelayotgan edi. L. Erhard mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holatni barqarorlashtirishning uddasidan chiqolmadi, chet davlatlar aholisini GFRning tinchliksevarligiga ham ishontira olmadi. Shu kabi siyosiy va ijtimoiy muammolarga qaramasdan, butun 1960–1970-yillar iqtisodning jadal sur'atlarda o'sish davri bo'lib, u "nemis iqtisodiy mo'jizasi" nomini oldi.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG'I



*Ma'lumki, Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) hamda Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) deyarli bir paytda tashkil qilindi. Ammo taraqqiyot turlicha kechdi. Sizningcha, buning asl sabablari nimalardan iborat bo'lgan? Sinfda kichik guruhlariga bo'linib, AKTdan foydalangan holda taqdimot tayyorlang va fikringizni asoslang.*



1980-yillar boshida siyosiy kuchlarda o'zgarish yuz berdi. 1982-yili xristian-demokrat **Gelmut Kol** GFR kansleri etib saylandi. Uning davrida soliqlar qisqartirildi va davlat xarajatlari tartibga solindi, davlatning biznesga aralashuvini kamaytirish, raqobatni rag'batlantirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi. 1989-yili GDRda inqilob boshlanib ketdi. Demokratiya tiklandi, ikki davlatni ajratib turgan, sovuq urush ramzi bo'lgan Berlin devori buzib tashlandi. Germaniyaning ikki qismini birlashtirish bo'yicha muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlandi. **1990-yil 3-oktyabr** kuni yagona Germaniya davlati tashkil topganligi e'lon qilindi. 1990-yilda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari saylovlarda yana G. Kol boshchiligidagi koalitsiya g'alaba qozondi.

## ITALIYA

**F**ashistik rejim va Ikkinchi jahon urushi italyan xalqiga juda katta musibatlar keltirdi. 330 mingga yaqin kishi halok bo'ldi, bedarak yo'qoldi, yuz minglab kishilar yarador bo'ldi, millionlab kishilar boshpanasiz qoldi. Italiya o'zining barcha mustamlakalaridan ayrildi, mamlakatga ingliz-amerika qo'shinlari kiritildi. Urush tugashi bilan milliy birlik hukumati muhim islohotlarni amalga oshirdi: pomeshchiklarning foydalanilmayotgan yerlari dehqonlarga berildi; ish haqining narx-navoga qarab o'sib borishi belgilab qo'yildi; kasaba uyushmasi roziligisiz ishchilarni ishdan bo'shatish taqiqlandi; korxonalarda ishchi kengashlari tuzildi.

### De Gasperi hukumati olib borgan siyosat. "Italiya iqtisodiy mo'jizasi"



*Alcide de Gasperi*

**1947**-yilda AQSH aralashuvi bilan Italiyada kommunistlar hukumatdan chiqarildi.

**Alcide de Gasperi** hukumati G'arbning yetakchi davlatlari bilan ittifoqchi bo'lishga intildi. Italiya "Marshall rejasi"ga qo'shildi, 1949-yili NATOga a'zo bo'ldi, uning hududiga AQSHning harbiy bazalari joylashtirildi. Italiya hukumati Yevropa integratsiyasi g'oyasini faol hayotga tatbiq etib bordi. **1957-yili Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini (YIH)** tuzish to'g'risida Rim shartnomasi imzolandi. "Marshall rejasi"ga qo'shilish, asosiy kapitalni yangilash, chet el xususiy sarmoyalarining oqib kelishi, ichki bozorda talabning yuqoriligi, xususiy monopoliyalarga davlat yordami, ishlab chiqarishga ilmiy-texnik yangiliklarni tatbiq qilish – bularning hammasi jadal iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashdi. 1950-yillar oxirida haqiqiy iqtisodiy inqilob boshlanib, bu "Italiya iqtisodiy mo'jizasi" nomini oldi. "Iqtisodiy mo'jiza" natijalaridan asosan mamlakatning sanoati rivojlangan shimoliy qismi foyda ko'rdi. Janub kambag'allik va ijtimoiy keskinlik manbai bo'lib qolaverdi.

1974-yili Italiyada chuqur iqtisodiy inqiroz boshlandi. Ishlab chiqarishning o'sishi deyarli to'liq to'xtadi, ishsizlar soni ko'paydi, tashqi savdoda defitsit oshib ketdi. Narx-

navo ko'tarilib bordi. Bularning barchasi ayniqsa aholining kam daromadli qismi uchun juda og'ir bo'ldi. Tashqi siyosatda "Atlantik kurs" davom ettirildi, ammo sotsialistik mamlakatlar, jumladan, SSSR bilan ham iqtisodiy hamkorlik rivojlandi.

1970-yillar oxiri – 1980-yillar boshlari Italiyada siyosiy inqirozning chuqurlashuvi, terrorizm to'liqinining kuchayishi, 1980-yilgi zilzilada hukumatning faoliyatsizligi bilan xarakterlanadi. 1980-yillarga kelib koalitsion hukumat shakllandi. Biroq u barqaror emasdi va hukumatning tez-tez almashishi Italiyaning o'ziga xos an'anasiga aylandi. Italiyada davlat institutlarining chuqur inqirozi mafiya faoliyati bilan ham bog'liq edi. Davlat tizimidagi korrupsiyalashgan unsurlar bilan qo'shib ketgan mafiya Italiyada katta kuchga aylandi.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Mustaqil tarzda Italiya hukumatidagi siyosiy jarayonlarni tahlil qiling. "Mafiya – fuqarolik jamiyatining dushmani" mavzusida esse yozing.*

*Avtomobillar ishlab chiqarish jarayoni. Italiya, "FIAT" zavodi, 1950-yil*

Mafiya aholiga dahshat solar, uni qo'rqitar, talonchilik va qotillik qilar, pul undirar, doimiy pul to'lab turgan boylarning daxlsizligini ta'minlardi. Kim mafiya bilan kelishmasa, doimiy ta'qib qilinardi, o'ldirilardi. XX asrning 80–90-yillari Italiyada mafiyaga qarshi kurash davri bo'ldi.



## ATAMALAR MAZMUNI

**Koalitsiya** – 1) xalqaro munosabatlarning ayrim masalalarida birgalikda ish ko'rish haqida o'zaro ahdlashgan davlatlarning siyosiy yoki harbiy ittifoqi; 2) bir necha siyosiy partiyalarning shu partiyalar vakillaridan iborat hukumat tuzish to'g'risidagi kelishuvi.

**Defitsit** – 1) daromadga nisbatan xarajatlarning oshib ketishi; tanqislik; 2) yetishmaslik, kamchilik, taqchilik; 3) yetarli miqdorda bo'lmagan, kam uchraydigan; kamchil, taqchil, kamyob.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushi Germaniya va Italiya uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
2. Kansler K. Adenauer faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
3. De Gasperi hukumati siyosatining o'ziga xos tomonlari haqida so'zlab bering.
4. 1970-yillar oxiri – 1980-yillar boshlari Italiyada siyosiy inqiroz chuqurlashuvining asl sabablari nimalardan iborat bo'lgan?

20-  
mavzu

# G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari



## FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birinchi jahon urushidan keyin Yevropa xartasida qanday davlatlar paydo bo'ldi?
2. Birinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropaning iqtisodiy rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatdi?



Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiyotning yuqori samaradorligini ta'minlash, ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyatini oshirishning eng muhim omili sifatida integratsion jarayonlarni rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Urushdan keyin Yevropa mamlakatlari tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'atlari iqtisodiy o'sish sur'atlaridan ikki barobar yuqori bo'ldi. Ko'plab G'arbiy Yevropa mamlakatlarida iste'molning 50 foizdan ortig'ini boshqa hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tashkil qilardi.



## ESGA OLING

*Birinchi jahon urushidan keyin tuzilgan Versal-Vashington tizimi nega mustahkam emas edi?*

## G'ARBIY YEVROPADA INTEGRATSIYA BOSQICHLARI



*Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv*



*Jahon savdo tashkiloti*



*Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti*

G'arbiy Yevropada integratsiya jarayoni bir necha bosqichlardan o'tdi. 1947-yili dunyoning rivojlangan davlatlari o'rtasida **Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK)** imzolandi. Bu kelishuvda ishtirok etgan davlatlar import mahsulotlariga boj solig'ini kamaytirish hisobiga tashqi savdoni rivojlantirishga ko'maklashish majburiyatini oldilar. Natijada TSBK doirasi kengayib, G'arbiy Yevropa chegaralaridan chiqdi va unga Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlari ham qo'shildi. Keyinchalik TSBK **Jahon savdo tashkiloti (JST)**ga aylantirildi. 1948-yili **Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (YIHT)** tuzildi. Dastlab bu tashkilotning vazifasi urushdan keyingi iqtisodiyotni tiklash uchun "Marshall rejasi" bo'yicha AQSH Yevropa mamlakatlariga ko'rsatgan yordamni taqsimlashdan iborat edi. Keyin u ko'ptomonlama iqtisodiy ma'lumotlarni almashish, *iqtisodiy maslahatlar forumiga* aylandi. 1960-yili YIHT **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)** deb qayta nomlandi va uning faoliyatiga Yaponiya ham qo'shildi.

Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, huquqiy va ma'muriy sohalarda G'arbiy Yevropa-ning o'zaro kelishilgan siyosat yuritishiga ko'maklashuvchi dastlabki tashkilot **Yevropa**



Bu tashkilotlar qabul qilgan integratsiya masalalariga oid qarorlar to'g'ridan to'g'ri kuchga kirar, milliy hukumatlar va parlamentlar tomonidan tasdiqlanishi shart emasdi. Rim shartnomasi bandlarini amalga oshirish integratsiyada ishtirok etayotgan mamlakatlar tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasida raqobatni pasaytirib, uni tashqi bozorga yo'naltirish imkonini berdi. Bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchilar o'z kapitallarini birlashtirish yoki ishlab chiqarish hajmiga kvotalar o'rnatilishiga rozilik berishga majbur bo'ldilar. Bunda ayniqsa Fransiya, Italiya va Germaniya fermerlari va vino ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi raqobatni yengib o'tishga alohida e'tibor qaratildi. Ishlab chiqarishni cheklovchi kvotalar bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga YIH byudjeti hisobidan yuqori xarid narxlari o'rnatildi. Shimoliy Yevropa mamlakatlari integratsiyaning muqobil modelini yaratishga harakat qildilar. Ular **Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YESA)**ni ta'sis etdilar. Unga Buyuk Britaniya, Avstriya, Daniya, Irlandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Shveytsariya va Portugaliya a'zo bo'lib kirdi. YESAning maqsadi faqat sanoat mahsulotlariga boj to'lovlarini bosqichma-bosqich kamaytirish qilib belgilandi, ammo millatlararo organni tashkil qilish, qonunchilikni bir xillashtirish nazarda tutilmadi.



*1957-yil 25-martda Belgiya, Fransiya, GFR, Italiya, Lyuksemburg va Niderlandlar qirolligi vakillari tomonidan Rim shartnomasining imzolanishi*

### Yevropada integratsiya jarayonining natijalari

**K**apital, tovarlar, xizmat ko'rsatish va ishchi kuchining erkin harakatlanishi G'arbiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishi va aholi yashash darajasining ancha tez yaqinlashuviga olib keldi. Ishchi kuchining nisbatan boy mamlakatlarga mavsumiy va shartnoma asosida kelishi nisbatan kam taraqqiy etgan mamlakatlarda bandlik va ishsizlik muammolarini hal etish imkonini berdi. Qoloq mintaqalarni rivojlantirish Umumyevropa dasturi ham jadal iqtisodiy rivojlanish omili bo'ldi. Integratsiya ta'sirida rivojlangan Yevroatlantika mamlakatlarida asta-sekin yagona iqtisodiy siyosat

modeli shakllanib bordi. Ular o'rtasidagi asosiy farq iqtisodiyot ustidan davlat nazoratining darajasi, unga ta'sir ko'rsatish usullari bilan bog'liq edi.

Ikkinchi model iqtisodiyotning asosiy sohalarini davlatning o'zi tomonidan rivojlantirishni ko'zda tutardi. Masalan, Fransiyada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki barobar oshirish imkonini bergan modernizatsiya natijasida ko'mir va gaz ishlab chiqarish, aviatsiya, avtomobilsozlik sanoatlarining katta qismi davlat mulkiga aylantirildi. 1980-yillari iqtisodiyotning muhim sohalarini davlat tomonidan nazorat qilishga intilish va yuqori soliqlar oqibatida transmilliy korporatsiyalar o'z kapitalini Fransiyadan chiqarib keta boshlashdi. Oqibatda iqtisodiy o'sish sur'atlari pasaydi. Kapitalning chiqib ketishini to'xtatish uchun Fransiya neokonservatizm tajribasiga murojaat qilib, davlat korxonalarini qisman xususiy lashtirdi, soliqlarni pasaytirdi. Bu sal oldin Buyuk Britaniyada boshlangan, GFR va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida olib borilayotgan siyosatga mos edi.



*Bryusseldagi Yevropa Ittifoqi parlamenti binosi*



### TARIXIY MUSHOHADA

*Yevropa davlatlari-ning faol integratsiya jarayoniga tortilishi oddiy kishilar hayotida qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi?*

Shu davrdan integratsiya jarayonida ishtirok etayotgan davlatlarning alohida ijtimoiy va iqtisodiy siyosat olib borishi mumkin bo'lmay qoldi. Muammolarni hal etishning muvaffaqiyatli usullari integratsiya jarayonida ishtirok etayotgan barcha davlatlar tomonidan tezda qo'llana boshlandi. Shuningdek, integratsiyaning har bir ishtirokchisi millatlararo tashkilotlar qarorini bajarishi shart bo'lib, bu, o'z navbatida, alohida davlatda ijtimoiy-iqtisodiy tajribalar o'tkazish xavfini pasaytirdi. Bu G'arbiy Yevropa mamlakatlarida barcha siyosiy partiyalarning g'oyaviy-siyosiy o'ziga xosligidan qat'i nazar, ijtimoiy taraqqiyotning muhim masalalari bo'yicha ularning qarashlarini yaqinlashtiruvchi muhim omil bo'ldi.



### YO'NALTIRUVCHI SAVOLLAR

1. *Mustaqil tarzda Yevropada integratsiya jarayonlari bilan tanishing.*
2. *Sizningcha, G'arbiy Yevropa davlatlarida qanday omil tufayli integratsiya jarayonlariga ehtiyoj paydo bo'ldi?*



Natijada integratsiya jarayonlari Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy jabhasiga ham tarqaldi. Dastlab faqat YIH mamlakatlari parlamentlari a'zolarining munozara maydoni bo'lgan Yevropa parlamentining obro'yi ortdi. Yagona Yevropa aktiga binoan YIH **Yevropa Ittifoqi (YI)** sifatida qayta tashkil qilindi. U endi "ichki chegaralarsiz makon" bo'lishi lozim edi. Xullas, Yevropa uning bag'rida boshlagan va faqat Yevropa xalqlariga emas, yer yuzidagi barcha xalqlarga juda katta kulfat keltirgan Ikkinchi jahon urushidan muhim xulosa chiqardi: u taraqqiyotning tinch, ilmiy-texnik inqilobga va hamkorlikka asoslangan demokratik yo'lini tanladi. Bu zamonaviy Yevropa Ittifoqining tuzilishiga olib keldi. 1980-yillar oxirida yuz bergan olamshumul voqealar – Yevropada sotsialistik tizimning inqirozi, SSSR va sotsialistik hamdo'stlikning tarqalib ketishi Yevropada integratsiya jarayonlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Kechagi sotsialistik mamlakatlar ham endi YIga intila boshladi. YI dunyoning boshqa hududlarida yuz berayotgan shunday integratsion jarayonlar uchun o'ziga xos tajriba bo'lib xizmat qilmoqda.



### ATAMALAR MAZMUNI

**Forum** – ommaviy yig'in, majlis, kengash, yirik anjuman.

**Korporatsiya** (uyushma, hamjamiyat) – rivojlangan yirik aksiyadorlar jamiyati, biron-bir faoliyat uchun uyushgan yuridik va jismoniy shaxslar majmui.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiyotning yuqori samaradorligini ta'minlash maqsadida qanday ishlar amalga oshirildi?
2. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH)ni tuzish haqida Rim shartnomasi va Atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (YEVROATOM)ni tuzish bo'yicha shartnomalarni imzolashdan qanday maqsadlar ko'zlangan edi?
3. Shimoliy Yevropa mamlakatlarining muqobil integratsiya modelini yaratish maqsadida qilgan harakatlari qanday yakunlandi?





## 21- mavzu

# Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari: diktatura va demokratiya



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Janubiy Yevropa mamlakatlariga qaysi davlatlar kiradi?
2. Shimoliy Yevropa mamlakatlariga qaysi davlatlar kiradi?
3. Davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlaringizga tayanib “diktatura” atamasiga ta’rif bering. Diktaturaning belgilari nimalardan iborat?

Janubiy Yevropaning uchta mamlakati – Ispaniya, Portugaliya va Gretsiya yuz yillar davomida jahon tarixi va xalqaro munosabatlarda katta rol o‘ynadi. Ammo XX asrning boshiga kelib bu davlatlar o‘zlarining avvalgi iqtisodiy va siyosiy qudratini yo‘qotdi, “Yevropaning chekka hududlari”ga aylanib qoldi.



## ESGA OLING

*Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib “demokratiya” tushunchasiga ta’rif bering.*

## ISPANIYA

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng mavjud sharoitga moslashib olgan **Franko** rejimi Ispaniyada yana o‘ttiz yil hokimiyatda turdi. Ispanlarning bir qismi Frankoni atoqli sarkarda, dono davlat arbobi va tashkilotchi sifatida qabul qilardi. Ular nazarda Franko ehtiyotkor va sovuqqon, qat’iyatli va bir so‘zli, taqvodor va kamsuqum kishi bo‘lib qolaverdi. Boshqa diktatorlardan farqli ravishda u olomonning olqishlariga befarq edi. Urushdan keyin dunyoda diktatorlik rejimlari birin-ketin qulagandan so‘ng Ispaniyada ham boshqaruv shaklini aniqlash va konstitutsion akt qabul qilish sari qadamlar tashlandi. Ispaniyaning xalqaro ahvoli juda murakkab bo‘lib, mamlakat yakalab qo‘yilgandi. *Potsdam konferensiyasi* Franko hukumatini fashistik davlatlar yordamida hokimiyatga kelganligi uchun qoralardi. Shu sababli Ispaniya BMTga qabul qilinmadi. 1946-yili BMT Bosh Assambleyasi Ispaniyani xalqaro tashkilotlarga qabul qilmaslik to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi va tashkilotga a‘zo bo‘lgan davlatlarga Ispaniya bilan diplomatik munosabatlarni uzish tavsiya etildi. G‘arb “Marshall rejasi” bo‘yicha Ispaniyaga yordam ko‘rsatishdan bosh tortdi. Bularning barchasi Ispaniyaning xalqaro holatinigina emas, iqtisodiy ahvolini ham qiyinlashtirdi.



*Ispaniya diktatori Fransisko Franko*



## O‘YLAB KO‘RING VA MANTIQIY XULOSA CHIQRING

*Jahon tarixi va xalqaro munosabatlarda katta rol o‘ynagan Janubiy Yevropaning uchta mamlakati – Ispaniya, Portugaliya va Gretsiya nega XX asr boshiga kelib o‘zlarining avvalgi iqtisodiy va siyosiy qudratini yo‘qotdi? Sizningcha, bunga sabab bo‘lgan omillar nimalardan iborat edi?*

Faqat sovuq urush boshlanishi bilan Ispaniyaning tashqi siyosiy ahvoli yaxshi tomonga o'zgardi. Mudofaa, iqtisodiy yordam va o'zaro xavfsizlik maqsadlarida yordam ko'rsatish to'g'risida Ispaniya-Amerika ikki tomonlama kelishuvi imzolandi. Ispaniya BMTga qabul qilindi. Iqtisodiy rivojlanishda ham ma'lum yutuqlarga erishildi. Ispaniya "ochiq iqtisod" kursi tomon yo'l tutdi. 1975-yili Franko vafot etdi. Shu yili qirol **Xuan Karlos I** taxtga o'tirdi va davlat boshlig'i lavozimini egalladi. Shundan so'ng o'tkazilgan umummilliy referendumda yangi konstitutsiya ma'qullandi. U Franko davri qonunlarini bekor qildi, yangi davlat tuzumini qonunlashtirdi va demokratlashuv jarayonini boshlab berdi. Ispaniya G'arb davlatlari bilan yanada yaqinlashish yo'lini tutdi. **1982-yil mayda** u NATOga, **1985-yili** esa YIHga a'zo bo'ldi. Ispaniyaning Yevropa hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayoni boshlandi va ancha murakkab kechdi.



## PORTUGALIYA



*Antonio Salazar*

**R**asman "yangi davlat" deb atalgan **Antonio Salazar**ning siyosiy rejimi Ikkinchi jahon urushidan keyin ham o'zining konservativ, avtoritar-fashistik belgilarini saqlab qoldi. Portugaliyani sal kam qirq yil boshqargan Salazar Yevropa yangi tarixida eng uzoq hokimiyatda o'tirgan diktator bo'ldi. Jamiyat nazoratidan, muxolifatdan butunlay xoli bo'lgan bunday avtoritar rejimda diktatorga yaqin bo'lgan xushomadgo'y va laganbardor boshqaruvchilar guruhi shakllanib, hokimiyatning yuqori qatlamlarida poraxo'rlik, korrupsiya illatlari kuchaydi. Bunday tuzumda vaqt o'tishi bilan diktator o'zi yaratgan tuzum "yutuqlari"ning quliga aylanadi, ommaviy axborot vositalarida bu "yutuqlar" va uning "me'mori" zo'r berib, to'xtovsiz maqtaladi. Jamiyatda ma'naviy tanazzul yuz beradi.

A. Salazar davrida hukumatning ta'qiblari tufayli barcha siyosiy partiyalar o'z faoliyatini to'xtatdi. 1960-yillarning o'rtalarigacha rivojlanishning iqtisodiy modeli *avtarkiya* bo'lib qoldi. Yirik mustamlaka mulklari Portugaliyaga muntazam daromad keltirib turdi. Mustamlaka imperiyasini saqlab turish g'oyasi Salazar rejimi rasmiy mafkurasining ajralmas qismi edi. Diktator kuchayib borayotgan ozodlik harakatiga qarshi terrordan boshqa narsani o'ylab topa olmadi. Ko'pchilik faollar, birinchi o'rinda ziyolilar qatag'on qilindi.

1968-yili A. Salazar vafot etdi. Bosh vazir lavozimini egallagan **Marselu Kaetanu** diktatorlik rejimini saqlab qolishni o'zining asosiy vazifasi deb bildi. M. Kaetanu uncha ahamiyatli bo'lmagan o'zgarishlarni amalga oshirdi. "Yangi davlat"ning no-



1974-yildagi “Chinnigullar inqilobi”. Portugaliya

muvaqqat prezident deb e’lon qilindi. Milliy qutqaruv kengashi aholining eng qashshoq qismi yashash darajasini ko’tarishga qaratilgan bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Minimal ish haqi, pensiyalar oshirildi, ko’p bolali oilalarga nafaqa joriy qilindi, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar narxining o’sishi to’xtatib qo’yildi. Sanoat korxonalarining ko’pchiligi natsionalizatsiya qilindi. Korxonalarda ishchi nazorati o’rnatildi. Agrar islohot natijasida janubiy hududlardagi bir qism yerlar yersiz dehqonlar va batraklarga, yangidan tashkil qilingan davlat va kooperativ xo’jaliklarga bo’lib berildi. Afrikadagi mustamlakalarga mustaqillik berildi. Shu tariqa yangi hokimiyatning asosiy vazifasi Salazar rejimining qoldiqlarini yengib o’tish bo’ldi. Portugaliyada diktaturadan keyingi o’tish davri boshlandi. **1976-yili** qabul qilingan respublika konstitutsiyasi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni barqarorlashtirish uchun huquqiy asos bo’ldi. Konstitutsiyaga binoan davlat boshlig’i bo’lgan prezident juda katta va-kolatlarga ega bo’ldi. **1986-yili** mamlakat uchun muhim hodisa yuz berdi: prezident lavozimiga birinchi marta fuqaroviy arbob – taniqli siyosatchi, sobiq bosh vazir **Mariu Suaresh** saylandi. Bu diktaturadan demokratiyaga o’tish jarayonining yakunlanganligini anglatar edi. Shu yili Portugaliya **Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH)**ga a’zo bo’lib kirdi.

mini “ijtimoiy davlat”ga almashtirdi. A. Salazar davridagi bir qator rahbarlar ishdan chetlatildi. Bu o’zgarishlar ichida eng ahamiyatlisi mustaqil kasaba uyushmalariga ruxsat berilishi bo’ldi. A. Salazar dasturiga sodiqlik, mustamlaka urushlarini davom ettirish M. Kaetanu hukumatiga qarshi muxolifatni kuchaytirdi. Armiyada rejimga qarshi **“Kapitanlar harakati”** tashkiloti tuzildi. 1974-yili bir guruh ofitserlar M. Kaetanu hukumatini bir kunda, deyarli qon to’kishlarsiz ag’darib tashladi. General **Antonio de Spinola** boshchiligida **Milliy qutqaruv kengashi** tuzildi va u o’z dasturini qabul qildi. De Spinola



## YODDA TUTING



1946-yili BMT Bosh Assambleyasi Ispaniyani xalqaro tashkilotlarga qabul qilmaslik to’g’risida maxsus qaror e’lon qildi.

1982-yil mayda Ispaniya NATOga, 1985-yili esa YIH-ga a’zo bo’ldi.

## GRETSIYA



*Gretsiya xalq ozodlik armiyasi*

1967-yil mayda hokimiyatni egallab olib, qamal holatini e'lon qildi, partiya, jamoat tashkilotlari tarqatib yuborildi, yig'ilishlar va ishtashlashlar taqiqlandi. Isyonga uch nafar harbiy boshchilik qildi. Hokimiyatga kelgan rejim "qora polkovniklar" diktaturasi nomini oldi. Harbiylar kommunistik xavfga qarshi kurashni o'zlarining asosiy vazifasi deb e'lon qildi. Ular kommunistlarga qarshi kurash, davlat apparatini mustahkamlashdan tashqari keng miqyosli iqtisodiy islohotlar ham o'tkazdi. Bu islohotlarning asosiy qismi ijobiy natija berdi, natijada Gretsiya agrar-industrial mamlakatdan industrial-agrar mamlakatga aylandi. Ammo iqtisodiy yutuqlarga qaramasdan, mamlakatda ichki siyosiy holat beqarorligicha qolaverdi.



### YO'NALTIRUVCHI SAVOLLAR

*Sizningcha, Ispaniya, Portugaliya va Gretsiyada taraqqiyotning boshqa Yevropa davlatlaridan farq qilishining asl sabablari nimalardan iborat?*

Urushdan keyin Gretsiya iqtisodiy qiyinchiliklar bilan birga og'ir siyosiy inqirozga uchradi. 1946-yili o'tkazilgan parlament saylovlari Gretsiyada fuqarolar urushining boshlanishiga olib keldi. So'llar bilan monarxistlar o'rtasidagi birinchi qurolli to'qnashuvlar saylov kuniyoq yuz berdi. Mamlakatda favqulodda holat joriy qilindi. Hokimiyatga kelgan **Konstantinos Saldaris** monarxiyani tiklashga kirishdi. So'l radikal kuchlar Gretsiya demokratik armiyasi (GDA) tuzilganligini e'lon qildi. Tomonlar butun mamlakat hududi bo'ylab bir-biriga qarshi keng miqyosli harbiy operatsiyalarni boshlab yubordi. GDA SSSR yordamiga tayandi, Gretsiya hukumatini esa AQSH qo'lladi. Fuqarolar urushi uch yildan ko'proq vaqt davom etdi va 1947-yil yakunlandi. Mamlakatda siyosiy beqarorlik davom etdi. Bundan norozi bo'lgan bir guruh harbiylar

1974-yili harbiylar Kipr orolida harbiy to'ntarishni amalga oshirib, orolning Gretsiyaga qo'shilishiga qarshi bo'lgan hukumatni ag'darib tashlashdi. Bu orolda yashovchi grek va turk aholisi o'rtasida ziddiyatni kuchaytirdi. Turkiya orolga qo'shin kiritib, uning bir qismini Kipr Turkiya Respublikasi deb e'lon qildi, Gretsiya armiyasi esa ularga qarshi urushdan bosh tortdi. Bu inqiroz oqibatida "qora polkovniklar" harbiy xuntasi hokimiyatdan ketishga majbur bo'ldi. Yangi hukumat konsitutsiyani tikladi, konsentratsion lagerlarni



yo'q qildi, davlat apparatini harbiy rejim tarafdorlaridan tozaladi. 1981-yili Gretsiya YIH tashkilotining teng huquqli a'zosiga aylandi. Hukumat ichki siyosatda iqtisodiyot ustidan davlat nazoratini kuchaytirish, aholining kam ta'minlangan qatlamiga ijtimoiy yordamni oshirish uchun harakat qildi. Tashqi siyosatning maqsadi Gretsiyani AQSHga qaramlikdan xalos qilish ekanligi e'lon qilindi. Sotsialistlar boshqaruvi bahsli natijalarga olib keldi. 1980-yillar oxirida ham Gretsiya YIH davlatlari orasida eng kam taraqqiy etgani bo'lib qolayotgan edi.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Xaritadan Ispaniya, Portugaliya va Gretsiya hududlarini ko'zdan kechiring. Internet yordamida va darslik matnidan foydalanib mazkur davlatlarga virtual sayohat uyushtiring. Ispaniya, Portugaliya va Gretsiya tarixidagi muhim voqealarni xronologiya shaklida daftaringizga yozing.*



## ATAMALAR MAZMUNI

**Konferensiya** – davlat yoki partiya, jamoat va olimlar vakillarining muayyan masalani muhokama etish uchun yig'ilishi.

**Avtarkiya** – mamlakatning o'z-o'zini ta'minlash qoidasiga asoslangan, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalardan uzilib qolgan biqiq xo'jalik yuritish siyosati.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qaysi davrga kelib Ispaniya, Portugaliya va Gretsiya demokratik rivojlanish yo'liga qaytdi?
2. Ispaniyada boshqaruv shaklini aniqlash va konstitutsion akt qabul qilish sari qadamlar qanday samara berdi?
3. "Yangi davlat" deb nomlangan Antonio Salazarning siyosiy rejimi Ikkinchi jahon urushidan keyin o'zining konservativ, avtoritar-fashistik belgilarini saqlagan holda mamlakatda qanday ishlarni amalga oshirdi?
4. Qaysi yilda harbiylar tomonidan Kipr orolida harbiy to'ntarish amalga oshirilib, orolning Gretsiyaga qo'shilishiga qarshi bo'lgan hukumat ag'darildi?



# Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz: imperiyaning tugatilishi



## FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yangi davrda Rossiya rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat edi?
2. Birinchi jahon urushi Rossiya uchun qanday yakunlandi?
3. Rossiyada yangi davr boshlarida qaysi sohalarda rivojlanish kuzatildi?

## URUSHDAN KEYIN TOTALITAR TUZUMNING KUCHAYISHI

**S**ovet xalqlariga juda katta kulfat olib kelgan Ikkinchi jahon urushi yakunlandi. Urushda 26,5 mln sovet fuqarolari halok bo'ldi, millionlab kishilar nogiron bo'lib qoldi, mamlakat juda katta iqtisodiy zarar ko'rdi.

Odamlar tinch hayotga qaytdi. Ammo urushdan keyingi vayrongarchilik, xo'jalikni tiklash mashaqqatlari ustiga 1946-yilgi qurg'oqchilik ham qo'shilib, ahvolni yanada murakkablashtirdi. Bir million kishi ochlikdan vafot etdi. Ammo ocharchilik rasman tan olinmadi. **Iosif Stalin** qishloq xo'jaligiga asosan sanoat va shaharlarni tiklash uchun manba sifatida qaradi, dehqonlarning ayanchli ahvoriga e'tibor qaratmadi.

1948–1952-yillari “Marshall rejasi” bo'yicha yordam olgan G'arb davlatlaridan farqli ravishda SSSR iqtisodiyotni to'liq ichki resurslar hisobiga o'z kuchi bilan tikladi. Faqat Germaniya to'lagan reparatsiya sezilarli rol o'ynadi, bu pullar sanoatda o'rnatilgan uskunalar xarajatining yarmini ta'minladi va boshqa sohalarda ilmiy-texnik taraqqiyotga turtki bo'ldi. Millionlab kishilarning fidokorona mehnati va resurslarni bir maqsad sari yo'naltirish tufayli 1948-yilga kelib SSSRda sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajasiga yetdi. Juda katta siyosiy-ma'muriy bosim, yengil sanoat va qishloq xo'jaligini talash




### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Totalitarizm fashizmdan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?*



### ESGA OLING

*Ikkinchi jahon urushi arafasida sovet davlatining Germaniya bilan munosabatlarida qanday maqsad ko'zlangan edi?*



*Urushdan keyin sovet davlatida og'ir sanoatning yuksalishi*

hisobiga hamda mehnatkash ommaning tashabbusini mafkuraviy rag'batlantirish tufayli minglab sanoat korxonalarini tiklandi va qayta qurildi. Ammo totalitar tuzumning xarakteri o'zgarmadi. Konsentratsion lagerlar bu davrda ham Stalin rejimining ajralmas qismi bo'lib qolaverdi. Ulardagi millionlab kishilar mehnatidan urushdan keyingi tiklash jarayonida foydalanildi. Totalitar rejim Stalinning o'limigacha kuchayib bordi. Bir qator sud jarayonlari o'tkazilib, yuz minglab sovet fuqarolari qatag'on qilindi.



*Nikita Xrushchyov*

## ILIQLIK DAVRI

**1953**-yil 5-mart kuni I. Stalin vafot etdi. Hokimiyatni boshqa shaxsga o'tkazishning legitim yo'li bo'lmaganligi sababli uni egallash uchun kurash avj oldi. Hokimiyatga rasman diktatorning eng yaqinlaridan iborat kollektiv rahbariyat keldi. Ammo ular o'rtasida hokimiyat, ayni paytda jamiyatdagi o'zgarishlar yo'nalishini tanlash uchun kurash avj oldi. Bu kurashda **Nikita Xrushchyov** g'olib chiqdi.

Shu yili yangi iqtisodiy dastur e'lon qilinib, u sovet davlati tarixida birinchi marta yengil sanoatning xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishdagi ustuvorligini belgiladi. Ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan iqtisod xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarishning ko'payishida, uy-joylar qurilishida, maoshlarning oshishida juda tez namoyon bo'ldi. Yangi

iqtisodiy dasturning boshqa bir bandi oziq-ovqat muammosini hal qilish, qishloq xo'jaligini uzoq davom etgan inqiroz holatidan olib chiqishga qaratildi. Mamlakatda siyosiy islohotlar ham boshlandi. **1956-yil fevralda** KPSS XX syezdida N. Xrushchyov "Shaxsga sig'inish va uning oqibatlarini to'g'risida" degan mavzuda nutq so'zladi. Bu nutq sovet totalitar tuzumining xarakterini, Stalin va uning sheriklari amalga oshirgan jinoyatlar ko'lamini anglash jarayonini boshlab berdi. Jamiyatda, o'ta ochiq bo'lmasa-da, bu muammolar keng miqyosda muhokama qilina boshlandi. Ayni paytda XX syezd xalqaro kommunistik harakatning inqirozini boshlab berdi va sotsialistik tizim oxirigacha bu inqirozdan chiqqa olmadi. Diktatorning o'limidan so'ng davlat boshqaruvi tizimini *desentralizatsiyalash*, ommaning faolligini rag'batlantirish, ba'zi boshqaruv funksiyalariga ularni jalb qilish sari yo'l tutildi. Ittifoqdosh respublikalarning vakolatlari ham biroz kengaydi. Ilgari Ittifoq vazirliklari ixtiyorida bo'lgan ko'plab korxonalar respublikalar vazirliklari ixtiyoriga o'tkazildi. Bu tadbirlar kishilarda qandaydir tarixiy, olamshumul voqealarga daxldorlik hissini paydo qildi. Bular ommaning g'ayrat-shijoati va tashabbuskorligini avj

oldirdi. **1961-yil 12-aprelda** dunyoda birinchi kosmonavt **Yuriy Gagarin**ning koinotga parvozi odamlarni sovet xalqi uddalay olmaydigan vazifa yo'qligiga ishontirdi.

Ammo 1960-yillar boshlarida mamlakatda iqtisodiy qiyinchiliklar, avvalo, oziq-ovqat tanqisligi bilan bog'liq keskinlik vujudga keldi. 1963-yildan SSSR chetdan g'alla sotib olishni boshladi. Bu davrda bir qator namoyishlar bo'lib, ularning barchasi shafqatsiz bostirildi. Mamlakatdagi ahvol N. Xrushchyovning mavqeyini tushirdi. 1964-yili oktyabrda bo'lib o'tgan KPSS Markaziy Komiteti plenumi uni barcha lavozimlaridan ozod qildi. KPSS MK Birinchi sekretari etib **Leonid Brejnev**, SSSR Ministrlar Soveti Raisi etib **Aleksey Kosigin** tayinlandi.



### YODDA TUTING

*1948–1952-yillari "Marshall rejasi" bo'yicha yordam olgan G'arb davlatlaridan farqli ravishda SSSR iqtisodiyotni to'liq ichki resurslar hisobiga o'z kuchi bilan tikladi.*

*1961-yil 12-aprelda kosmonavt Yuriy Gagarin koinotga parvoz qildi.*

Hokimiyatga kelgan L. Brejnev jamoasi yagona harakat dasturiga ega emasdi. Ular jamiyat va partiyani demokratizatsiyalash sari qilingan harakatlarni, shaxsga sig'inishning bundan buyongi tanqidini to'xtatishga intildi. Zotan, Stalinni yanada fosh qilish totalitar tizimning asoslarini yemirar edi. L. Brejnev ma'muriyati nazariy yo'riqlarining asl mohiyati va natijasi 1977-yili qabul qilingan SSSRning yangi – rivojlangan sotsializm konstitutsiyasida o'z aksini topdi. Unda “Kommunistik partiya – jamiyatning yo'naltiruvchi va rahbar kuchi, siyosiy tuzumning yadrosi”, deyilgan bo'lib, bu KPSSning siyosiy tizimdagi yakkahukmronlik mavqeyini mustahkamladi. Bunday modda hatto 1937-yilgi konstitutsiyada ham yo'q edi. 1980-yillarga SSSR jamiyatning chuqur inqirozi holatida kirib keldi. Bu davrda jamiyatning axloqiy buzilish jarayoni yuz berdi. Proteksionizm, urug'-aymoqchilik, korrupsiya kabi illatlar tuzumning poydevorini yemirdi, uning intihosini yaqinlashtirdi. 1980-yillari kommunizm qurish to'g'risidagi reja barbod bo'lib, odamlar endi kommunizm safsatasiga ishonmay qo'ydi. Aholining katta qismi “boriga baraka” deb, shukur qilib yashardi.



Birinchi kosmonavt  
Yuriy Gagarin



## TARIXIY MUSHOHADA



Leonid Brejnev

*Brejnev jamoasi yagona harakat dasturining mavjud emasligi, jamiyat va partiyani demokratizatsiyalash sari qilingan harakatlari, shaxsga sig'inishning bundan buyongi tanqidini to'xtatishga intilishlari nima sababdan davlatda totalitar tizim asoslarining yemirilishini ta'minlagan? Fikringizni qo'shimcha manbalar yordamida asoslang.*

SSSRda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati ham juda past bo'lib, korxonalarda ularning turlarini yangilash uchun mablag' yetishmasdi. Kamyob tovarlar ro'yxati yildan yilga oshib, chayqovchilik ham avjiga chiqib bordi. Shunday mahsulotlarni “xufiya ishlab chiqarish” va “qora bozor”da sotish rivojlanib ketdi. Sovet iqtisodining neft zaxirasiga “o'tirib qolishi” aholi katta qismining ichkilikbozlikka berilishi bilan qo'shilib ketdi. Shunday sharoitda uy-joy qurilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga ajratiladigan mablag'lar yil sayin kamayib bordi. Jamiyatda befarqlik, ilojsizlik kayfiyati qaror topdi. Ziyolilarning bir qismidan tashqari mutlaq ko'pchilik aholi loqayd tomoshabinga aylanib, ahvolning yaxshi tomonga o'zgarishidan umidlarini uzib bo'lgandi.

1982-yili L. Brejnev vafot etdi. Sovet jamiyatining inqirozi chuqurlashgan sharoitda saylangan yangi Bosh kotib **Yuriy Andropov** bu illatlarga qarshi jadal kurash boshladi. Ammo Y. Andropov ham shu tizimning, mavjud muhitning “mahsuli” edi. U boshqarishda qattiqo'llik, avtoritar, buyruqbozlik usullaridan foydalandi. 1984-yil fevralda Y. Andropov vafot etgandan so'ng hokimiyatga kelgan **Konstantin Chernenko** keksa va kasalmand kishi bo'lib, uning saylanishi katta xato, tugab borayotgan SSSRning ramzi bo'ldi.





*KPSSning 28-syezdi.  
Moskva, 1990-yil 2–13-iyul*

butun sovet jamiyatining maqsadi” deb e’lon qilindi. Shu yil may oyidan ichkilikbozlikka qarshi keng kompaniya boshlanib, ma’muriy taqiq va mafkuraviy yo’llar bilan qisqa vaqt ichida rus xalqining asrlar davomida shakllangan an’anasini va uning boshqa sovet xalqlariga ko’rsatgan salbiy ta’sirini yo’q qilish ko’zda tutildi.

KPSS Markaziy Komitetining 1987-yil yanvar plenumida M. Gorbachyov “Qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati” mavzusida ma’ruza qildi. Unda ijtimoiy hayotni *demokratizatsiyalash* vazifasini qo’ydi va oshkoralik kursini e’lon qildi.

## QAYTA QURISH

**1985**-yil 10-martda K. Chernenko vafot etdi. Bu paytga kelib partiya va davlat boshqaruvidagi hatto eng konservativ kuchlar ham “intellektual va siyosiy jihatdan zaif, qarashlari qoloq bo’lgan yana bitta Chernenkoga mamlakat bardosh bera olmaydi” degan yakdil xulosaga keldi. Bir kundan so’ng bo’lib o’tgan KPSS MK Plenumi **Mixail Gorbachyov**ni Bosh kotib qilib sayladi. 1980-yillarning o’rtalarida SSSR tashqaridan juda qudratli davlat bo’lib ko’rinar edi. Mamlakat nisbatan kuchli iqtisodiyot, cheksiz tabiiy boyliklar va mustahkam mudofaa qudratiga ega edi. Aslida esa mamlakatda ko’plab hal qilinmagan muammolar to’planib qolgan bo’lib, iqtisodiy rivojlanishning sifat ko’rsatkichlari yil sayin pasayib borardi. Mehnat unumdorligi amalda o’sishdan to’xtagan edi. KPSS MKning 1985-yil aprel plenumida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadal-lashtirish dasturi “yangi rahbariyat va

## Qayta qurishning inqirozi

Jamiyatda ilk ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar paydo bo’ldi. Demokratik ittifoq o’zini KPSSga muxolifatdagi partiya deb e’lon qildi. Ommaviy siyosiy tashkilotlar – xalq frontlari paydo bo’ldi. Dastlab Boltiqbo’yi respublikalarida paydo bo’lgan bunday tashkilotlar keyin boshqa Ittifoq respublikalarida ham tuzildi. Bu demokratik jarayonlar ta’sirida Kommunistik partiya va uning rahbari bo’lib turgan M. Gorbachyovning obro’yi tushib bordi. Bu obro’sizlanishning o’rnini qoplash uchun SSSRda

prezidentlik lavozimini joriy qilishga qaror qilindi. Aholi orasida partiya faoliyatiga nisbatan ommaviy noroziliklar, korxonalarda ishtashlashlar boshlanib ketdi. Buning ustiga ittifoqdosh respublikalar birin-ketin o'z mustaqilligini talab qila boshladi. M. Gorbachyov boshchiligidagi guruh yangi Ittifoq shartnomasi ustida ishlashni davom ettirdi. Ammo jamiyatda demokratik harakatlar va liberallar kuchayib borgani sari ularga qarshi konservativ kuchlarning ham jipslashuvi yuz berdi. Ular 1991-yil 19-avgustga o'tar kechasi **Favqulodda holat davlat komiteti (GKCHP)** tuzilganligi to'g'risida e'lon qilishdi. GKCHP mamlakatning bir qator hududlarida favqulodda holat e'lon qildi, 1977-yilgi konstitutsiyaga xilof ravishda faoliyat yuritayotgan hokimiyat tizimlari tarqatib yuborildi, muxolifatdagi partiya va harakatlar faoliyati to'xtatildi, ommaviy axborot vositalari ustidan qat'iy nazorat o'rnatildi, Moskvaga qo'shin kiritildi. GKCHPga qarshi harakatga demokratik kuchlar yetakchilik qildi. Ular 19-avgust kuni Rossiya fuqarolariga murojaat qilib, GKCHP harakati g'ayrikonstitutsion to'ntarish, uning qarorlari noqonuniy deb e'lon qilishdi. Mamlakatning bir qator mintaqalari GKCHP qarorlarini bajarishdan bosh tortdi. 21-avgust kuni Rossiya Oliy Sovetining favqulodda sessiyasi ochildi. Ertasi kuni GKCHP a'zolari qamoqqa olindi. Avgust voqealaridan keyin obro'yi tushib ketgan KPSS faoliyati to'xtatildi.

Avgustdagi davlat to'ntarishidan keyin ko'plab respublikalar Ittifoq shartnomasini imzolashdan bosh tortdi. 8-dekabr kuni Minsk shahrida Rossiya, Ukraina, Belarus rahbarlari (SSSRni ta'sis qilgan davlatlar) 1922-yilgi Ittifoq shartnomasini bekor qilib, **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)** tuzilganligini e'lon qildi.



## ATAMALAR MAZMUNI

**Desentralizatsiyalash** – markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o'tish yoki o'tkazish.

**Demokratizatsiyalash** – demokratik tamoyillarni siyosiy tizimga, madaniyatga, turmush tarziga va boshqalarga joriy etish.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushi sovet xalqlari uchun qanday yakunlandi?
2. Stalinning vafot etishi mamlakatda qanday jarayonlarning boshlanishiga sabab bo'ldi?
3. 1977-yili qabul qilingan SSSRning yangi – rivojlangan sotsializm konstitutsiyasida qanday jihatlar o'z aksini topgan?
4. Nima sababdan qayta qurish siyosati mamlakatning inqirozi bilan yakunlandi?




## Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari totalitarizm va demokratiya oraliq'ida



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Markaziy Yevropa mamlakatlariga qaysi davlatlar kiradi?
2. Sharqiy Yevropa mamlakatlariga qaysi davlatlar kiradi?
3. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari taraqqiyoti G'arbiy Yevropa mamlakatlari taraqqiyotidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?



## ESGA OLING

*Geografiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarini xaritadan toping.*

Ikkinchi jahon urushi Markaziy va Sharqiy Yevropa (MSHY) mamlakatlariga juda katta kulfatlar, iqtisodiy va demografik yo'qotishlar olib keldi. Urushdan keyin esa koalitsion hukumatlar tuzilib, ular tarkibiga kommunistik, sotsial-demokratik partiyalar, shuningdek, urushdan oldingi burjua va dehqonlar partiyalarining o'z obro'yini saqlab qolgan vakillari kirdi.



*Urushdan keyingi yillarda Varshavada yo'llarni ta'mirlash*

Urushdan oldingi siyosiy liderlardan okkupantlar rejimi bilan hamkorlik qilmagan va antifashistik kuchlar tomonida kurashganlari urushdan keyingi dastlabki yillarda ham ancha ta'sirli siyosiy lavozimlarni egalladi. Ammo hukumatlar koalitsiyalariga birlashgan siyosiy kuchlar o'z davlatlarining kelajagi va taraqqiyot yo'llari to'g'risida bir-biridan farqli, ko'p jihatdan qarama-qarshi qarashlarga ega edi. Ularning bir qismi urushdan oldingi rejimlarni tiklash tarafdori bo'lsa, boshqalari G'arbiy Yevropaning demokratik modeliga havas bilan qarardi. Uchinchilari sovet namunasiga taqlid qilib, proletariat diktaturasi davlatini qurishni istardi. Urushdan keyin Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy va ijtimoiy asoslari qaror topib borgan sari bu kuchlar o'rtasidagi kurash ham keskinlashib bordi. 1947–1948-yillar bu kuchlar o'rtasidagi kurashning hal qiluvchi yillari bo'ldi. Tarixiy nuqtayi nazardan juda qisqa vaqt ichida ko'pchilik Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida hokimiyat kommunistlar qo'lga o'tdi. Bu kommunistlarning hujumkor taktikasi va Sovet Ittifoqi tomonidan ularga ko'rsatilgan yordamning natijasi edi. Shu yillari SSSR tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi urushdan keyin Markaziy va Sharqiy Yevropada shakllangan davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirish bo'ldi. **Polshada** so'l kuchlar g'alabasining aniqligiga qaramasdan, yangi hokimiyatni qurish

jarayoni shiddatli kurashlar ostida o'tdi va ko'plab qurbonlarga olib keldi. Mamlakatda katta antikommunistik kuchlar, jumladan, sobiq **Krayova armiyasi (Vatan armiyasi)** tarafdori bo'lgan qurolli guruhlar ham faoliyat yuritayotgan edi. **Chexoslovakiyada** tub burilish 1948-yil fevralda yuz berdi. Bu paytga kelib kommunistlar bilan ularning siyosiy muxoliflari o'rtasidagi ziddiyat eng keskin darajaga yetdi. Kommunistik partiya vakili **Klement Gotvald** boshqarayotgan hukumat tarkibidagi burjua partiyalari vakillari iste'foga chiqishdi. Yangi hukumatda asosiy rahbarlik o'rinlarini kommunistlar egalladi. Shu tariqa tinch yo'l bilan hokimiyat almashinuvi amalga oshirildi. 1948-yil iyunda K. Gotvald prezident etib saylandi. 1949-yilga kelib Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviyada kommunistik partiyalar to'liq hokimiyatni egalladi. 1949-yili oktyabrda tashkil topgan Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) ham shu safga qo'shildi.



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQIY XULOSA CHIQARING!



*Tarixiy nuqtayi nazardan juda qisqa vaqt ichida ko'pchilik MSHY mamlakatlarida hokimiyat kommunistlar qo'lga o'tdi. Bu kommunistlarning hujumkor taktikasi va Sovet Ittifoqi tomonidan ularga ko'rsatilgan yordamning natijasi edi. Sizningcha, Sovet Ittifoqi tashqi siyosatidagi bu o'zgarishga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat edi?*

Bu mamlakatlarda kommunistlarning g'alaba qozonishida ular hududida (Albaniya va Yugoslaviyadan tashqari) sovet armiyasi qo'shinlarining joylashganligi va sovet maslahatchilarining yordami hal qiluvchi rol o'ynadi. 1940-yillar oxirida Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida o'rnatilgan tuzum "xalq-demokratik", keyin esa "sotsialistik" deb ataldi. Bir qator davlatlarda ko'ppartiyali tizim mavjud bo'lsa, Albaniya, Vengriya, Ruminiya va Yugoslaviyada bittadan partiya faoliyat yuritardi. Ularning dasturlarida jamiyatning barcha sohalarini – iqtisodiyotni, ijtimoiy munosabatlarni, ta'lim va madaniyatni rivojlantirish belgilab berilgandi. Sovet namunasi bo'yicha sanoatlashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va madaniy inqilobni amalga oshirish belgilab olindi. Modernizatsiya jarayoni ham SSSRda birinchi besh yillikda amalga oshirilgan jarayonni ko'chirish orqali, sotsialistik metodlar bilan amalga oshirildi. Markaziy va Sharqiy Yevropaning urushdan keyingi tarixi SSSRning qo'llab-quvvatlashiga tayangan rejimlardan ozod bo'lish uchun, sotsializmning mafkuraviy asoslarini qayta ko'rib chiqish uchun kurashlar davri bo'ldi. 1956-yili SSSRda Stalin shaxsiga sig'inishning qoralanishi ko'plab Sharqiy Yevropa mamlakatlarida Stalin davrida hokimiyatga kelgan va u tomonidan qo'llab-quvvatlangan rahbarlarning almashinishiga olib keldi. Stalinning vafoti tufayli "sotsialistik lager"ning



# MIA JOWA



## YODDA TUTING

1949-yilda Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviya davlatlarida kommunistik partiyalar to'liq hokimiyatni egalladi.

1956-yili Sharqiy Yevropa mamlakatlari tarixida Stalin davrida hokimiyatga kelgan va u tomonidan qo'llab-quvvatlangan rahbarlarning almashish jarayoni kuzatildi.

*“Vatan armiyasi” askarlariga atab qurilgan haykallar*



*Venger siyosatchisi  
Imre Nad*

yangilanishiga paydo bo'lgan umid sababli GDRda namoyishlar boshlanib ketdi. Namoyishlar bostirildi. Bir necha o'nlab kishilar halok bo'ldi.

Poznanda ishchilar ish me'yorlarining oshirilishi va ish haqining pasaytirilishiga qarshi ishtashlash e'lon qildi. Bu yerga jo'natilgan politsiya va harbiylar bilan to'qnashuvlarda bir necha kishi halok bo'ldi. 1956-yili **Vengriyada Imre Nad** boshchiligidagi yangi hukumat tomonidan hokimiyatning totalitar tizimini buzish, ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tish uchun qilingan harakat totalitar rejimga qarshi demokratik inqilobga aylanib ketdi. Sovet rahbarlari qo'zg'olonni bostirish uchun keng miqyosdagi harbiy operatsiya o'tkazishga qaror qildi. Bu qarorni ko'pchilik Sharqiy Yevropa davlatlarining rahbarlari qo'llab-quvvatladi. Asosiy janglar **Budapeshtda** bo'lib o'tdi. Unda minglab qo'zg'olonchilar halok bo'ldi va yaralandi. Qo'zg'olon bostirilgandan so'ng I. Nad va uning safdoshlari sud qilinib, o'lim jazosiga hukm qilindi.



## TARIXIY MUSHOHADA

*1956-yili Vengriyada Imre Nad boshchiligidagi yangi hukumat tomonidan hokimiyatning totalitar tizimini buzish, ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tish uchun qilingan harakat totalitar rejimga qarshi demokratik inqilobga aylanib ketdi. Mazkur kurashlar Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari keyingi taraqqiyoti uchun qanday ahamiyat kasb etadi?*



*Aleksandr Dubchek*

Bu “xavfli yoʻnalish”ning oldini olish uchun Varshava shartnomasi ishtirokchi davlatlarining qoʻshinlari Chexoslovakiyaga kiritildi. Harbiy operatsiyaning birinchi kuniyoq **Aleksandr Dubchek** boshchiligidagi **Chexoslovakiya kommunistik partiyasi (CHKP)** rahbarlari qamoqqa olinib, Moskvaga olib ketildi. Qoʻzgʻolonni bostirish chogʻida yuzga yaqin Chexoslovakiya fuqarolari halok boʻldi. “Praga bahori” nomini olgan inqilobiy harakat shu tariqa bostirildi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti ekstensiv xarakterda edi. 1970-yillarning birinchi yarmida sanoat ishlab chiqarishining oʻsishi barqaror ravishda yiliga 6–8% darajasida saqlanib qoldi. Ammo 1980-yillarda sotsialistik mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli yanada yomonlashdi. SSSR, Ruminiya va boshqa bir qator mamlakatlarda oziq-ovqat muammosi juda keskinlashdi, barcha sotsialistik mamlakatlarda aholining yashash darajasi sezilarli darajada pasaydi. Ayniqsa, Polshada ahvol ogʻir boʻlib, ishchilar “Birdamlik” mustaqil ommaviy kasaba uyushmasini tuzdilar. Mamlakatda siyosiy inqiroz chuqurlashib bordi.

1989-yili Polshada “Birdamlik” harakati vakillari hokimiyatga keldi. **Vengriya**da ham hokimiyatga kelgan yangi kuchlar iqtisodiy islohotlar va siyosiy tizimni takomillashtirish yoʻlini tanladi. **1990-yili** Vengriya Xalq Respublikasi nomi **Vengriya Respublikasi** deb oʻzgartirildi. **Bolgariya**da ham **1991-yili** muxolifat kuchlar hokimiyatga keldi. **Ruminiya**da kommunistik rejimning qulashi qoʻzgʻolon va jiddiy harbiy toʻqnashuv natijasida yuz berdi. Qoʻzgʻolon Ruminiyaga uzoq yillar rahbarlik qilgan diktator **Nikolae Chaushesku** va uning rafiqasini sud qilish, sudning hukmiga koʻra otib tashlash jarayoni televideniya-da toʻgʻridan toʻgʻri namoyish qilinishi bilan yakunlandi. Qoʻzgʻolon jarayonida mingdan oshiq kishi halok boʻldi. **Albaniya**ni demokratik toʻlqin taʼsiridan saqlab qolishning iloji boʻlmadi. Hokimiyatda turgan kommunistlar juda tez oʻz taʼsirini yoʻqotib bordi. Antikomunistik kayfiyatning ifodachisi 1989-yili tuzilgan Albaniya demokratik partiyasi boʻldi. 1992-yilgi saylovlarda demokratik lider – **Sali Berisha** Albaniya prezidenti etib saylandi.



*Nikolae Chaushesku sovet qoʻshinlarining Chexoslovakiyaga kirishiga qarshi mitingda*



*Nikolae Chaushesku*

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi o'zgarishlarning Yugoslaviyaga ta'siri kam bo'ldi. Ammo ijtimoiy tuzumning asoslarida yuz bergan o'zgarishlar milliy munosabatlarga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Ilgari har bir davlatni qat'iy markazlashgan tuzumlar yagona davlat tarzida birlashtirib turgandi. Bu tuzumlarning qulashi faqat millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi uchun emas, millatchi va ayirmachi kuchlarning faollashuvi uchun ham imkoniyat yaratdi. Sotsialistik mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar tobora murakkablashib bordi. 1991-yili O'zaro iqtisodiy yordam kengashi, keyin esa Varshava shartnomasi tashkiloti ham tarqalib ketdi. Xullas, 40 yildan oshiq faoliyat yuritgan sotsialistik hamdo'stlik barham topdi.



## YO'NALTIRUVCHI SAVOLLAR

1. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti G'arbiy Yevropadan ortda qolishining asosiy sabablari nimalardan iborat?
2. Vengriyada Imre Nad, Polshada "Birdamlik" harakati vakillari faoliyatining umumiy va farqli jihatlarini tahlil qiling.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan birini tanlab, ushbu davlatda kommunistik rejimning qulash jarayonlarini qamrab olgan esse yozing.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushi Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining keyingi taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. Chexoslovakiyada tub burilish davrida qanday tarixiy voqealar yuz berdi?
3. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida totalitar rejimlarning barqaror ekanligining sabablarini tahlil qiling.
4. Nima sababdan O'zaro iqtisodiy yordam kengashi va Varshava shartnomasi tashkiloti tarqalib ketdi?



## Oyga qo'yilgan ilk qadam

Amerikalik astronaut Nil Armstrong 1969-yil iyulda “Apollon-11” kosmik kemasida Oy ekspeditsiyasiga jo'nadi. 1969-yil 21-iyulda Nil Armstrong Oy yuzasiga qadam qo'ygan birinchi odam sifatida tarixda qoldi.

Nil Armstrong shunday degan edi: “Bu – inson uchun kichik bir qadam, lekin butun insoniyat uchun ulkan sakrash”.



## Xitoydagi madaniy inqilob

“Madaniy inqilob”, to'liq nomi “Buyuk proletar madaniy inqilobi” – 1966–1967-yillarda Xitoy rahbari Mao Szedun tomonidan amalga oshirilgan kampaniya. Uning maqsadi XXRda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan “kapitalizmni tiklash”ga qarshi chiqish bahonasida siyosiy muxolifatni obro'sizlantirish va yo'q qilish edi.



## Afrikadagi aparteid

Aparteid – irqiy kam-sitishning eng ashaddiy ko'rinishi bo'lib, muayyan aholi guruhlarini ularning irqiy mansubligiga qarab, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum etishni, hududiy jihatdan yakka-latib qo'yishgacha borishni anglatadi. Hozirgi xalqaro huquq aparteidni insoniyatga qarshi jinoyat deb hisoblaydi.





IV  
BOB

**UYG‘ONAYOTGAN DUNYO:  
1945–1991-YILLARDA  
OSIYO, AFRIKA VA LOTIN  
AMERIKASI MAMLAKATLARI**






24-  
mavzu

# Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yoʻnalishlari



## FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarning har biridan kamida oʻntadan davlatni dunyo siyosiy xaritasidan toping.
2. Birinchi jahon urushi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
3. Ikkinchi jahon urushi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun qanday natijalar bilan yakunlandi? Mazkur mamlakatlar jahon urushlaridan qanday saboq chiqardi?



Ikkinchi jahon urushidan so'ng sobiq mustamlakalar o'rnida tashkil topgan o'nlab davlatlar uchun modernizatsiya va rivojlanish kabi o'zaro bog'liq muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Bu muammolar va ularni hal qilish usullarida bir qator o'xshash jihatlar mavjud, ular Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlariga yagona birlik sifatida qarash imkonini beradi.



### ESGA OLING

*Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari-ning mustaqillikka erishish bosqichi qanday omillar tufayli vujudga kelgan edi?*

## OZODLIK VA TARAQQIYOT MUAMMOLARI

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropa davlatlari mustamlakachi imperiyalarining qulashi, mustamlaka xalqlarining ozod bo'lish jarayoni boshlandi. Bu jarayon barcha mamlakatlarda ham tinch yo'l bilan amalga oshmadi. Buyuk Britaniya Malayyada, Fransiya Hindixitoy va Jazoirda, Portugaliya Angola va Mozambikda milliy-ozodlik harakatlarini shafqatsizlarcha bostirish siyosatini olib borib, bu mamlakatlarga juda katta talafot yetkazdi. 1960-yil tarixga "Afrika yili" sifatida kirdi. Shu yili qit'adagi 17 ta mustamlaka mamlakat o'z mustaqilligini e'lon qildi. Tarixda oxirgi mustamlakachi imperiya – Portugaliya 1975-yili quladi.



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Sizningcha, mustamlakachilik tizimi yemirishining asl sabablari nimalardan iborat edi?*

## Mojaro va inqirozlar

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida paydo bo'lgan ko'plab davlatlarning chegaralari etnik, diniy chegaralar bilan mos tushmadi, bu esa ko'plab ichki va davlatlararo mojarolarga sabab bo'ldi. Hindiston mustaqillikka erishgandan so'ng, u diniy belgi asosida **1947-yili** ikkita davlatga – **Hindiston Ittifoqi** va **Pokistonga** ajralib ketdi, millionlab kishilar qochoqlarga aylandi, ikki davlat o'rtasida bir necha marta harbiy mojarolar bo'lib o'tdi. 1947-yili Falastinning arab va yahudiy davlatlariga bo'linishi Yaqin Sharqda doimiy tanglik o'chog'ini vujudga keltirdi.

Janubi-sharqiy Osiyodagi **Filippin, Koreya, Vyetnam** kabi mamlakatlar ham mustaqillikning dastlabki davrlarida ichki va tashqi urushlarni boshdan kechirdi. Xitoyda fuqarolar urushi **1949-yil 1-oktyabrda** Xitoy Xalq Respublikasi e'lon qilinishi bilan yakunlandi.

1950-yillari Lotin Amerikasi mamlakatlarining ko'pchiligida demokratik yo'nalishdagi hukumatlar faoliyat boshladi. Bu hukumatlar chet el, avvalo, AQSH kapitalining ta'sirini kamaytirish uchun kurashdi. Ammo 1960–1970-yillari ko'pchilik Lotin Amerikasi mamlakatlarida davlat to'ntarishlari yuz berib, hokimiyatga *harbiy xuntalar* keldi.

## MODERNIZATSIYANING MURAKKAB YO'LI

**M**ustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlarda modernizatsiya yo'lini tanlash murakkab jarayonga aylandi. Bir qism davlatlar kechagi mustamlakachilarga ergashishni istamadi va mustaqil modernizatsiya yo'lini tanladi. Ularning ko'pchiligida hali o'ta qoloq ijtimoiy munosabatlar hukmron edi. Ishga yaroqli aholining juda katta (ba'zi mamlakatlarda 90% gacha) qismi qishloq xo'jaligida band edi. Texnika bilan ta'minlanganlik darajasi ham juda past edi. Aholi sonining ko'pligi va jadal o'sishi, arzon ishchi kuchi ham modernizatsiya uchun katta yordam bermadi. Shunga qaramasdan, sobiq mustamlakalarning mustaqillikka erishishi, yarim mustaqil mamlakatlarda milliy rejimlarning hokimiyatga kelishi natijasida qoloqlikni yengib o'tish, jadal taraqqiyot yo'lini tanlash g'oyalari ustuvor g'oyaga aylandi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlari juda katta iqtisodiy yutuqlarga erishdi.



### YODDA TUTING



*1947-yili Hindiston Ittifoqi va Pokiston vujudga keldi.*

*1947-yili Falastinning arab va yahudiy davlatlariga bo'linishi Yaqin Sharqda doimiy tanglik o'chog'ini vujudga keltirdi.*

*1949-yil 1-oktyabrda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topdi.*

*Portugaliya mustamlakachi imperiyasi 1975-yili quladi.*

## Islom mamlakatlarida modernizatsiyaning o'ziga xos yo'llari

**Y**aqin va O'rta Sharq hamda Shimoliy Afrika mamlakatlarida islom dini alohida o'ringa ega. Ushbu mamlakatlar xalqlari tarixida, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida islom dini muhim rol o'ynagan. Dastlabki milliy-ozodlik harakatlari ham islom bayrog'i ostida amalga oshirilgan. Shu sababli islom dini bu mamlakatlardagi modernizatsiya jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Aksariyat musulmon mamlakatlarida modernizatsiya jarayoni diniy urf-odatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgani uchun aholi tomonidan katta qarshiliklarsiz qabul qilindi va ijobiy natijalarga olib keldi.

Ayrim islom mamlakatlarida o'tkazilgan islohotlar jarayonida shu omilni inobatga olmaslikning oqibatlarini Erondagi modernizatsiya jarayoni yaqqol ko'rsatib berdi. 1979-yili an'anaviy islom qadriyatlariga va hayot tarziga qaytish shiori ostida boshlangan harakat butun mamlakatni qamrab oldi. Shoh **Muhammad Rizo Pahlaviy** chet



elga qochishga majbur bo'ldi, hokimiyat din peshvolari qo'liga o'tdi. Shu sababli islom dini ta'siri kuchli bo'lgan bir qator mamlakatlarda hokimiyat aholining hayot tarzi va an'alarini o'zgartirishga harakat qilmadi. Ular jamiyatda mutaassiblik kayfiyatining o'sishiga qarshilik qilmasdan, islom birdamligi g'oyasiga tayanishdi. Bunday birdamlikka imkoniyatlari cheklangan mamlakatlarda hozircha jamiyatni modernizatsiya qilish va ichki barqarorlikni ta'minlashning yagona yo'li sifatida qaralmoqda.

Muhammad  
Rizo Pahlaviy

## Avtoritar rejimlar: modernizatsiya tajribasi

**A**vtoritarizm – bitta shaxs (yoki guruh) hokimiyatining almashmasligiga asoslangan nodemokratik siyosiy rejim. Unda fuqarolarning ma'lum iqtisodiy, siyosiy va boshqa huquqlari saqlanib qoladi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining ko'pchiligida mustaqillik yillari avtoritar rejimlar o'rnatildi. Bu ko'pchilik hollarda ushbu mamlakatlarda shakllangan rivojlanish modeli va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq. Bir qator davlatlarda avtoritar rejimlar modernizatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Braziliya, Argentina, Chili o'rtacha rivojlanish darajasiga yetdi. Ammo Osiyo va Afrikadagi aksariyat avtoritar rejimlar jamiyatning inqiroziga, iqtisodiy tanazzulga, ko'plab odamning nobud bo'lishiga olib keldi.



### TARIXIY MUSHOHADA

*Mazkur davrda ba'zi davlatlar rivojlangan davlatlarga ergashishni istamadi va mustaqil modernizatsiya yo'lini tanladi.*

*Sizningcha, buning asl sabablari nimalardan iborat bo'lgan? Sinfda kichik guruhlariga bo'linib, fikringizni asoslang va AKTdan foydalangan holda taqdimot tayyorlang.*



### YO'NALTIRUVCHI SAVOLLAR

1. Mustaqil tarzda Ikkinchi jahon urushidan keyingi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyoti bilan tanishing.
2. Geografiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining poytaxtlari, pul birliklari, iqlimi va boshqa bilish kerak bo'lgan ma'lumotlarni jadval ko'rinishida daftaringizga qayd qiling.

Xullas, XX asrning ikkinchi yarmi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining ko'pchiligi uchun taraqqiyot yo'nalishini tanlash davri bo'ldi. Bu davrda siyosiy mustaqillikka erishgan davlatlarning bir qismida tanlash davri hamon davom etmoqda.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*“O‘zbekistonni rivojlantirishning maqbul yo‘li mening nazarimda” mavzusida esse yozing.*



## ATAMALAR MAZMUNI

**Imperiya** – 1) imperator, podshoh, qirol boshqaradigan davlat; 2) bir qancha mustamlaka hududlariga ega bo'lgan, totalitar tuzumga asoslangan davlat.

**Harbiy xunta** – davlat to'ntarishi orqali hokimiyatga kelgan, odatda zo'rovonlik va diktatorlik usullari bilan davlatni boshqaradigan harbiylar hokimiyati.

**Modernizatsiya, modernizatsiyalash** (fransuzcha *moderne* – “eng yangi”, “zamonaviy”) – biror narsani yangilash, zamonaviy talablar va me'yorlarga muvofiq o'zgartirish.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushidan keyin Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida ro'y bergan mojaro va inqirozlarning sabablarini aytib bering.
2. Osiyo va Afrika davlatlarida modernizatsiyaning murakkab yo'li qaysi jihatlarda namoyon bo'ldi?
3. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida avtoritar rejimlar sharoitida modernizatsiya tajribasining o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat edi?
4. Osiyo va Afrikadagi iqtisodiy tanazzulning asl sabablari nimalardan iborat bo'lgan?





25-  
mavzu

## Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlarini va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya davlatlarini dunyo siyosiy xaritasidan toping.
2. O'рта asrlar va yangi davr tarixida Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasi qadriyatlarining asosiy jihatlari nimalardan iborat edi?
3. Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya davlatlari Birinchi va Ikkinchi jahon urushlaridan qanday saboq chiqarishdi?

## BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH. "YAPON IQTISODIY MO'JIZASI"



### ESGA OLING

*Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya davlatlarining yangi davr tarixida yuz bergan eng muhim voqealardan qaysilarini bilasiz?*

**Y**aponiyada hokimiyat general **Duglas Makartur** boshchiligidagi AQSH okkupatsion qo'shinlari shtabiga o'tdi. Yaponiyada demokratik jarayonlarni boshlagan amerikaliklar ikkita maqsadni: birinchidan, Yaponiyaning demokratik davlatga aylanishi va hech qachon boshqalarga xavf solmasligini; ikkinchidan, yaponlarning ming yillik jangchilik an'analarga ega bo'lgan jangovarlik ruhini sindirishni ko'zlagan edilar. D. Makartur Yaponiyada agrar islohotlarni o'tkazish to'g'risida direktiva chiqardi. O'z yer-mulkida yashamaydigan yirik yer egalari shu mulkka egalik qilish huquqidan mahrum qilindi, yer unda ishlaydiganlarga berildi. Aholining asosiy qatlami fermerlar bo'lib qoldi.



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Sizningcha, bugungi Yaponiya taraqqiyotining haqiqiy sabablari nimalardan iborat?*

Ammo sanoatda tiklanish juda sekin yuz berdi. Osiyocha tafakkur va mehnat an'analarga ega bo'lgan yaponlarni g'arbcha mehnat usullariga ko'niktirish oson kechmadi. Amerikaliklar yaponlarni eng zamonaviy biznes usullari bilan tanishtirdi, kadrlar tayyorlashning amerikacha standartlari joriy qilindi. 1950-yillar o'rtalariga kelib Yaponiyada bozor iqtisodiyoti infratuzilmasi shakllandi. "Yapon iqtisodiy mo'jizasi" degan davr boshlandi. Bu davrda sanoatning o'sishi ham juda yuqori bo'lib, asosan og'ir sanoat va kimyo ishlab chiqarishi evaziga yuz berdi. Bunga avvalo mehnat unumdorligining jadal sur'atlar bilan o'sishi tufayli erishildi. 1960-yillarning oxiriga kelib Yaponiya yalpi ichki mahsulotning hajmi bo'yicha dunyoda AQSHdan keyin – ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

### Postindustrial iqtisodiy modelning shakllanishi

**1970**–1980-yillardagi iqtisodiy rivojlanish natijasida Yaponiyada shakllangan iqtisodiy model postindustrial sivilizatsiyaga asos bo'ldi. Yangi iqtisodiy tizimda uchinchi sektor deb ataluvchi sohalar – savdo, xizmat ko'rsatish, moliya, ijtimoiy soha, fan, informatika, infratuzilmalar asosiy o'rin egalladi. Bu sohalarning asosini ilmiy yangiliklar, dizayn, nou-hau va shu kabilar tashkil qildi. 1980-yillardan Yaponiyada 26

ta texnopolislar tashkil qilindi. Bu zamonaviy infratuzilma, transport va informatsion tizimga ega bo'lgan namunaviy shaharlar edi. Natijada Yaponiya jahon bozoriga yangi turdagi mahsulotlar – mikroprotsessorlar, shaxsiy kompyuterlar, sanoat robotlari va tez o'zgaruvchan ishlab chiqarish tizimlari bilan chiqdi. Eksportning katta qismini xalq iste'moli mollari – televizorlar, videomagnitofonlar, mikserlar, mikroto'lqinli pechlar va shu kabilar tashkil qildi.

Xullas, Yaponiya yangiliklar bilan an'analarni ajoyib tarzda uyg'unlashtirishga qodir ekanligini namoyish qildi. Bu mamlakatning eng yangi tarixi G'arbning texnik yutuqlari bilan Sharqning gumanistik etikasini muvaffaqiyatli uyg'unlashtirishga yorqin misol bo'la oladi.



### YODDA TUTING

*1960-yillarning oxiriga kelib Yaponiya yalpi ichki mahsulotining hajmi bo'yicha dunyoda AQSHdan keyin – ikkinchi o'ringa chiqib oldi.*

## XITOIDA FUQAROLAR URUSHI

1

“Yuzta gul” siyosati, fikr va so'z erkinligi, birinchi besh yillik reja (1953–1957)

2

“Katta sakrash”, ikkinchi besh yillik reja (1958–1962)

3

SSSR bilan munosabatlarda taranglik

4

“Madaniy inqilob” (1966–1976), xunveybinlar va szaofanlar

5

AQSH bilan yaqinlashuv, Prezident R. Niksonning XXRga tashrifi



*Xitoy Xalq Respublikasi Mao Szedun davrida*

**1945-yil avgustda** SSSR va AQSH vositachiligida Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) va Gomindan o'zaro dushmanlik harakatlarini to'xtatishga kelishdi. XKP o'z nazorati ostidagi hududlarda agrar islohot o'tkazib, yerni qayta taqsimlashni amalga oshirdi. Gomindan esa tinchlik haqidagi kelishuvni bekor qilib, o'z qo'shinlarini yig'a boshladi. 1946-yil iyunda kutilmaganda Xitoyda kommunistlar bilan gomindanchilar o'rtasida fuqarolar urushi qaytadan boshlandi.

1949-yil sentyabrda Janubiy Xitoyning deyarli barcha hududlari kommunistlar nazoratiga o'tdi. **1-oktyabr** kuni **Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)** e'lon qilindi. Gomindan ma'muriyati Tayvan oroliga ko'chib o'tdi. Shunday qilib, butun mamlakat bitta davlatga birlashtirildi. Hokimiyatga kommunistlar kelib, Mao Szedun XXR raisi lavozimini egalladi – u oliy hokimiyat ramziga aylandi.

## Siyosiy tizimning shakllanishi. “Katta sakrash” va “Madaniy inqilob”

**1950**-yil Xitoyda SSSR yordamida sotsializm qurish boshlandi. Ammo 1956-yildan ikki mamlakat o'rtasida munosabatlar buzildi. **1958-yili** qabul qilingan reja Xitoyda muddatidan oldin sotsializm qurishni nazarda tutgan edi. Bu reja sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligining jadal o'sishini ko'zda tutdi. U “**Katta sakrash**” siyosati deb atalib, uning tarkibiy qismi “*texnik inqilob*” bo'ldi. Mehnat samaradorligini oshirish “Uch yil matonatli mehnat – uch ming yil baxt-saodat” shiori ostida olib borildi. 12 soatlik ish kuni o'rnatildi, odamlar dam olish kunlarisiz va ta'tilsiz mehnat qildi. Bu va shunga o'xshash ko'plab tadbirlardan ko'zlangan maqsad “Katta sakrash” orqali kommunizm qurish bo'lib, juda katta tashabbuskorlik ruhiga qaramasdan, bu rejalar asosan qog'ozda qolib ketdi. “Katta sakrash” siyosati shu tariqa muvaffaqiyatsiz yakunlandi. **1966-yili** Xitoyda byurokratiyaga qarshi kurash jarayoni “**Madaniy inqilob**” nomini oldi. U mamlakatda Mao Szedunning shaxsiy hokimiyatini o'rnatish, muxolifatni bartaraf etish uchun olib borilgan siyosiy jarayon edi. “**Madaniy inqilob**” ziyolilarga qarshi keng miqyosli qatag'onlarga aylanib ketib, madaniyat va ta'limga juda katta zarar yetkazdi, feodal urf-odat va an'analarga qarshi kurash shiori ostida ko'plab madaniyat yodgorliklari yo'q qilindi, tashqi siyosiy kurs keskin o'zgarib, mamlakatda *antisovetizm* kuchaydi.



### YODDA TUTING




*Sizningcha, Xitoyda mazkur “Katta sakrash”, “Madaniy inqilob” va “Uch yil matonatli mehnat – uch ming yil baxt-saodat” shiori ostida o'tkazilgan islohotlarning natijalari qanday yakunlangan? Sinfda kichik guruhlariga bo'linib, ilmiy klasterdan foydalangan holda taqdimot tayyorlang va fikringizni asoslang.*

## Den Syaopin islohotlarining boshlanishi

**1976**-yil **9-sentyabrda** Mao Szedun vafot etdi va “Madaniy inqilob” rasman yakunlandi. Hokimiyatga kelgan **Den Syaopin** pragmatik islohotlarning yangi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Konsepsiyada “to'rtta modernizatsiya” islohoti – qishloq xo'jaligi, sanoat, fan-texnika va harbiy sohani isloh qilish belgilab olindi. Xitoy iqtisodiga chet el investitsiyalari ham oqib kela boshladi. Ayniqsa, chet ellarda yashayotgan xitoylar faol investitsiya kiritdi. Chet el kapitalini jalb qilish uchun Xitoy janubida 4 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Qo'shma korxonalar va chet el qarzlari to'g'risida qonun qabul qilindi. 1980-yillar oxiriga kelib Xitoy taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqib oldi.

## KOREYA RESPUBLIKASI: IQTISODIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA SIYOSIY HOKIMIYAT MUAMMOLARI



**1945-yil avgustda** Yaponiyaning Koreyadagi qo'shinlari taslim bo'ldi. Ularni qurolsizlantirish bahonasida SSSR va AQSH Koreya hududini vaqtincha ikkiga bo'lib oldi. Shu tariqa Koreya ikkiga bo'linib ketdi: janubiy qismiga AQSH, shimoliy qismiga SSSR o'z qo'shinlarini kiritdi.

Janubiy Koreya taraqqiyoti bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Avvalo agrar islohot o'tkazilib, uning natijasida yer dehqonlarga xususiy mulk qilib berildi. 1960-yillar davomida mamlakatda industrlashtirish siyosati amalga oshirildi. 1970-yillarni o'z ichiga olgan uchinchi bosqichda og'ir sanoat, avva-



Janubiy va Shimoliy Koreya

lo, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati rivojlantirildi. Yirik metallurgiya kombinatlari qurilib, mamlakat po'lat quyish bo'yicha Osiyoda Yaponiyadan keyingi ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

Koreya Respublikasining siyosiy rivojlanishi ham juda murakkab kechdi. Mamlakatda bir nechta harbiy to'ntarishlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, Koreya Respublikasi 1980-yillar oxiriga kelib dunyoning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri bo'lib qoldi.



### BILIB OLING

- D. Makartur Yaponiyada ...*
- 1950-yillar o'rtalarida ...*
- 1956-yildan ...*
- “Katta sakrash” bu – ...*
- “Madaniy inqilob” bu – ...*
- Mao Szedun vafoti ...*
- Mehnat samaradorligini oshirish ...*





### YO'NALTIRUVCHI SAVOLLAR

*Geografiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarining poytaxtlari, pul birliklari hamda huquq fanidan olgan bilimlaringizga tayanib davlat boshqaruvi va siyosiy partiyalarining jamiyatdagi o'рни haqidagi ma'lumotlarni jadval ko'rinishida daftaringizga qayd qiling.*



### BADIIY ASAR BILAN ISHLASHGA DOIR TOPSHIRIQ

*Daron Ajemo'g'li va Jeyms Alan Robinson qalamiga mansub "Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari" asarini o'qing.*

*"Mamlakatlar tanazzulining sabablari mening nazarimda" mavzusida esse yozing.*



### ATAMALAR MAZMUNI

**Direktiva** – yuqori rahbar organlar tomonidan berilgan va bajarilishi majburiy sanalgan rasmiy yo'l-yo'riq, dastur, ko'rsatma.

**Postindustrial sivilizatsiya** – rivojlangan mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmidan ijtimoiy taraqqiyotda vujudga kela boshlagan yangi bosqich.

**Antisovetizm** – sovet hokimiyati, sovet turmush tarziga yoki Sovet Ittifoqiga qarshi qaratilgan qarashlar tizimi.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qanday omillar tufayli Yaponiyada bozor iqtisodiyoti infratuzilmasi shakllanib, "Yapon iqtisodiy mo'jizasi" davri boshlandi?
2. Xitoyda fuqarolar urushi qanday natijalar bilan yakunlandi?
3. Xitoy tarixida Mao Szedun va Den Syaopin singari tarixiy shaxslar qanday o'rin tutadi?
4. Koreya Respublikasining o'ziga xos taraqqiyot yo'li va iqtisodiy rivojlanish bosqichlari haqida so'zlab bering.



26-  
mavzu

## Hindiston va Pokistonda mustaqillikning murakkab yo‘li



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hindiston va Pokiston davlatlarini dunyo siyosiy xaritasidan toping.
2. Hindiston va Pokiston hududlarida mavjud bo‘lgan o‘rta asr davlatlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Xaritadan Boburiylar sulolasining Akbarshoh davridagi hududlarini toping.

## MUSTAQILLIKNING E'OLON QILINISHI



### ESGA OLING

*“Ost-Indiya” kompaniyasi qachon va qanday maqsadda tashkil etilgandi?*

Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan Hindistondagi hind va musulmon diniy jamoalari o'rtasida kelishmovchiliklar yanada keskinlashdi. Buning ustiga urushdan keyingi oziq-ovqat inqirozi Hindistonni deyarli ocharchilik holatiga olib kelib, ahvolni yanada murakkablashtirdi. Shunday murakkab sharoitda **1947-yil 15-avgust** kuni

ikkita mustaqil davlat – **Hindiston** va **Pokiston** tashkil topganligi e'lon qilindi. Hindiston hukumatini **Javoharlal Neru**, Pokiston hukumatini esa **Liakat Alixon** boshqardi. Ammo Hindistonning bo'linishi paytidagi mojaralarda odamlarning ommaviy o'ldirilishi uzoq yillar davom etgan Hindiston va Pokiston o'rtasidagi o'zaro dushmanlik hissini shakllantirdi. O'z yurtini tashlab, boshqa hududlarga ko'chish ham millionlab kishilar hayotiga ta'sir qildi.

## Zamonaviy siyosiy tizimning shakllanishi

**XX** asrda mustaqillikka erishgan Osiyo va Afrika mamlakatlari ichida Hindiston **parlament demokratiyasini** shakllantira olgan yagona davlat bo'ldi. 1949-yili Hindistonning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga binoan, Hindiston dunyoviy respublika deb e'lon qilindi. Konstitutsiya asosiy demokratik erkinliklar, inson huquqlari, *kastalar* tengligi, hokimiyatning bo'linish tamoyillarini e'lon qildi. Hindiston avtonom huquqlarga ega bo'lgan katta shtatlar va hududlar ittifoqi federatsiyasiga aylandi. Har bir shtat o'zining qonun chiqaruvchi majlisiga va hukumatiga ega bo'ldi. Mustamlaka davridan Hindistonga og'ir iqtisod meros qolgandi. J. Neru hukumati iqtisodiy muammolarni hal qilish, modernizatsiyani amalga oshirishning yo'li sifatida iqtisodiyotda davlatning rolini oshirishni tanladi. Mamlakat moliya siyosati, umummilliy miqyosdagi yirik korxonalar va infratuzilma obyektlari, tashqi siyosat, mudofaa va shu kabilar markaziy hokimiyat tasarrufiga kirdi. Hindiston lingvistik belgiga qarab shtatlarga bo'lindi. 1964-yili J. Neru olamdan o'tganidan so'ng uning o'rnini **Lal Bahadur Shastri** egalladi. **1966-yili yanvarda Toshkentda** Hindiston va Pokiston o'rtasidagi muzokaralardan so'ng **“Toshkent deklaratsiyasi”** imzolandi. Shu munosabat bilan Toshkentga kelgan L. B. Shastri to'satdan vafot etdi.



Javoharlal Neru



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQRING

*Sizningcha, mazkur davrda Hindistondagi oziq-ovqat inqirozi hamda ocharchilik holatining haqiqiy sabablari nimalardan iborat edi?*



## YODDA TUTING

1947-yil 15-avgust kuni ikkita mustaqil davlat – Hindiston va Pokiston tashkil topdi.

1949-yili Hindistonning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi.

1966-yili yanvarda Toshkentda Hindiston va Pokiston o'rtasidagi muzokaralardan so'ng "Toshkent deklaratsiyasi" imzolandi.

Hokimiyatga J. Neruning qizi **Indira Gandi** keldi. U mamlakatda "yashil inqilob" deb atalgan yangi agrar siyosatni amalga oshirdi. Natijada 1970-yili g'alla va sholi hosildorligi keskin o'sdi. G'alla, sholi va qandning ulgurji savdosi to'liq natsionalizatsiya qilindi. Natsionalizatsiya jarayoni sanoatda ham amalga oshirildi. Ammo mamlakatda I. Gandi siyosatidan norozilik kayfiyati kuchayib bordi. Hindiston hamon ommaviy qashshoqlik mamlakati bo'lib qolayotgan edi. Hukumat kambag'allik darajasini asta-sekin pasaytirish tadbirlarini amalga oshirdi. Natijada kambag'allik darajasining keskin kamayishiga erishildi. 1990-yillar boshlarida Hindistonning iqtisodiy ahvoli yomonlashdi. Hokimiyatga kelgan **Narasimha Rao** hukumati bozor islohotlarining yangi bosqichini boshlashga majbur bo'ldi.



## TARIHIY MUSHOHADA



Sizningcha, Hindistonda natsionalizatsiya jarayoni natijalari qanday oqibatlar bilan yakunlangan? Sinfda kichik guruhlariga bo'linib, T-chizma grafik organayzeridan foydalanib taqdimot tayyorlang va fikringizni asoslang.

## POKISTON

**1947**-yili Hindistonning bo'linishi natijasida nomigagina Buyuk Britaniya nazorati ostida bo'lgan yangi davlat – Pokiston dominioni tashkil topdi. Yangi davlat tarkibiga bugungi Pokiston hududidan tashqari, **Sharqiy Bengaliya** ham kirib, u yangi davlat – **Bangladesh** sifatida 1971-yil ajralib chiqdi. Pokiston asosan musulmon aholi yashaydigan, bir-biri bilan bog'lanmagan bir qancha hududlarga ega bo'ldi. Bunday bo'linish ikki davlat o'rtasida doimiy chegaraviy muammolarni keltirib chiqardi.

**1951-yili** Pokiston o'z mustaqilligini e'lon qildi. 1956-yil Ta'sis majlisi konstitutsiyani qabul qildi. Unga binoan, **Pokiston Respublikasi** tuzilganligi e'lon qilindi. Ammo mamlakatdagi siyosiy kuchlar o'rtasida yakdillik yo'q edi. Oqibatda siyosiy qarama-qarshilik bir necha harbiy to'ntarishlarga olib keldi.



## BILIB OLING

- 1964-yili ...
- 1951-yili ...
- 1980-yillarning ikkinchi yarmida...
- 1977-yili ...
- 1990-yillar boshlarida ...
- General Ziyo ul-Haq faoliyati ...

Pokistonda beqaror siyosiy holat saqlanib qoldi. 1977-yili navbatdagi harbiy to'ntarishdan so'ng harbiylar jamiyatni islomlashtirish orqali umumiy tenglik va farovonlik davlatini qurishga urindi. Shariat sudi tashkil qilinib, u qabul qilinayotgan qonunlarning Qur'on va shariatga mosligi ustidan nazorat o'rnatdi. Iqtisodiyotni ham islomlashtirish boshlandi. Mamlakatda favqulodda holat e'lon qilindi, butun mamlakat hududi 5 ta hududga bo'linib, ularga harbiy rahbarlar tayinlandi. Tartib saqlash uchun tribunallar tashkil qilindi.

1988-yili harbiy diktator – general **Ziyo ul-Haq** parlamentni tarqatib yubordi, bosh vazirni vazifasidan ozod qildi va erkin saylovlar tayinladi. Ammo shu yili u aviahalokat oqibatida halok bo'ldi. Shundan so'ng bo'lib o'tgan saylovlar natijasida **Benazir Bhutto** mamlakat bosh vaziri bo'ldi. U harbiy rejim davrida qamoqqa olingan barcha siyosiy arboblarga amnistiya berdi. Pokistondagi beqaror siyosiy holat mamlakat iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Pokiston rivojlanayotgan agrar-industrial mamlakat bo'lib, aholining katta qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanardi. Eksport qilinadigan asosiy tovarlariga tekstil, teri mahsulotlari, sport buyumlari, kimyoviy moddalar va gilamlar kiradi.



Pokistondagi siyosiy kurash solnomasi





## YO‘NALTIRUVCHI SAVOLLAR

1. *Mustaqil tarzda Ikkinchi jahon urushidan keyin Hindiston va Pokistonning iqtisodiy taraqqiyoti bilan tanishing.*
2. *Geografiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib Hindiston va Pokistonning geografik joylashuvi, poytaxtlari, pul birliklari hamda huquq fanidan olgan bilimlaringizga tayanib davlat boshqaruvi va siyosiy partiyalari yoki hokimiyati tepasiga kelgan shaxslarning amalga oshirgan ishlarini jadval ko‘rinishida daftaringizga qayd qiling.*



## IJODIY ISH TOPSHIRIG‘I

- Ikkinchi jahon urushidan keyingi murakkab sharoitda tashkil topgan Hindiston va Pokiston davlatlari iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining muhim jihatlarini tahlil qiling.*
- “Hindiston va Pokiston taraqqiyoti hamda muammolari mening nazarimda” mavzusida esse yozing.*



## ATAMALAR MAZMUNI

**Kasta tizimi** – hind jamoasiga xos murakkab ijtimoiy tizim bo‘lib, tabaqalanishni ifodalaydi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan Hindistondagi hind va musulmon diniy jamoalari o‘rtasida kelishmovchiliklarning yanada keskinlashuvi qanday natijalar bilan yakunlandi?**
2. **1949-yili qabul qilingan Hindistonning yangi konstitutsiyasiga binoan, mamlakatda qanday tub o‘zgarishlar ro‘y berdi?**
3. **Pokiston o‘z mustaqilligi to‘g‘risida e‘lon qilganidan keyin 1956-yil Ta‘sis majlisi qabul qilgan konstitutsiya mamlakatda nimalarni ta‘minlay olmadi?**
4. **Pokiston tarixida general Ziyo ul-Haq hamda Benazir Bhuttolarning boshqaruvi davri nimalar bilan izohlanadi?**



27-  
mavzu

## Turkiya, Eron va Afg'oniston: diniy qadriyatlar va zamonaviy sivilizatsiya muammolari



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Turkiya Ikkinchi jahon urushida qaysi davlatlar bilan ittifoqda urushga kirgan?
2. Ikkinchi jahon urushi Eron iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatgan?
3. Xaritadan Afg'oniston bilan chegaradosh davlatlarni ko'rsating.

## 1945–1980-YILLARDA TURKIYA

**T**urkiya prezidenti **Ismet Inyonyu** Ikkinchi jahon urushidan so'ng Otaturkning yo'lini davom ettirdi, mamlakatda bitta partiya diktaturasi saqlanib qoldi.

Sovuq urush yillarida Turkiya G'arb bilan birga bo'ldi. Buyuk Britaniya, keyin AQSH Turkiyaga moliyaviy va iqtisodiy yordam ko'rsatdi. Turkiya "Marshall rejasi"ga kiritildi, NATOga a'zo bo'ldi. G'arb davlatlari bilan hamkorlik va ularning yordamiga qaramasdan, 1980-yillargacha Turkiyada iqtisodiy o'sish sur'atlari past bo'ldi. Demokratik jarayonlar sekin rivojlanib, siyosatda armiyaning roli yuqoriligicha qoldi. Bu bir qator harbiy to'ntarishlarga olib keldi.

**1980-yil sentyabrda** general **Kenan Evren** navbatdagi harbiy to'ntarish o'tkazdi, hokimiyat yana harbiylar qo'liga o'tdi. O'ta qattiq, hatto dahshatli usullar bilan bo'lsa-da, mamlakatda tartib o'rnatildi. **1982-yil noyabrda** o'tkazilgan referendum yangi konstitutsiyani tasdiqladi. 1983-yili Turkiya bosh vaziri bo'lgan **Turg'ut O'zol** Turkiyada XX asrning oxirlarida amalga oshirilgan islohotlarda juda katta rol o'ynadi. U Turkiyada zudlik bilan iqtisodiy islohotlar boshlab yubordi. Iqtisodda davlatning roli pasaydi, davlat sektorini keng xususiyalashtirish boshlandi, eksportni rag'batlantirish to'g'risida, erkin iqtisodiy zonalarini tuzish to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Natijada Turkiya jadal rivojlanish yo'liga tushdi. Iqtisodda davlat sektorining ustunligi urushdan keyingi Turkiyaning xarakterli jihati edi. Faqat T. O'zol islohotlari bunga chek qo'ydi, mamlakatda siyosiy holatning ham ijobiy tomonga o'zgarishi yuz berdi. **1989-yilgi** saylovlarda T. O'zol Turkiya Respublikasi prezidenti etib saylandi. 1990-yildan bosh vazir lavozimini boshqa bir tajribali siyosatchi – **Sulaymon Demirel** egalladi.



### TARIXIY MUSHOHADA

*Usmoniy turklar davlati haqida nimalarni bilasiz?*

## ERON

**1946**-yili ingliz va sovet qo'shinlari Erondan olib chiqib ketildi. 1950-yillarning birinchi yarmida Eron siyosati asosan mamlakat neft sanoatini natsionalizatsiya qilishga qaratildi.

Eron shohi **Muhammad Rizo Pahlaviy** zamonaviy, o'qimishli kishi edi. U mamlakatda korrupsiyaga qarshi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. 1963-yili referendum o'tkazilib, unda shoh mamlakatda islohotlar o'tkazish taklifini kiritdi. Referendumda aholi shoh takliflarini qo'lladi. Bu islohotlar umumiy nom bilan "**Oq inqilob**" deb ataldi. "Oq inqilob"ning o'n yilida Eron iqtisodiy o'sish bo'yicha dunyoda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Eronning neftdan oladigan daromadi ham keskin oshdi. Sanoatning mashinasozlik, stanoksozlik va boshqa sohalari jadal rivojlandi.

## Shoh hokimiyatining ag'darilishi

Islotlarda erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramasdan, shoh rejimidan norozilar ancha edi. Bu hol g'alayonlarga olib keldi. Oqibatda **1979-yil fevralda** hukumat iste'foga chiqdi. Shoh rejimi ag'darildi, Eron Islom Respublikasi deb e'lon qilindi. Dindor shaxslardan tuzilgan Kengash yangi konstitutsiyani ishlab chiqishga kirishdi. Xulq-atvorning diniy normalari joriy qilindi, alkogol iste'mol qilish taqiqlandi. Ayollar islom an'analari bo'yicha kiyinishga majbur qilindi. G'arb mamlakatlari Eronga qarshi sanksiyalar e'lon qildi. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli og'irlashib bordi. Shunday holatda **1980-yili** Iroq qo'shinlari Eronga bostirib kirdi. Boshlangan Eron-Iroq urushi 1988-yilgacha davom etdi. Eronda oziq-ovqat qiyinchiligi boshlanib, kartochka tizimi joriy qilindi, iqtisod tanazzulga yuz tutdi. 1990-yillarda iqtisod barqarorlashib, YIM-ning o'sish sur'atlari jadallashdi.

## AFG'ONISTON



*Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kirib kelishi*


Afg'oniston shohi **Muhammad Zohirshoh** ilimli kishi bo'lib, afg'on jamiyatini yaxshi bilgan va modernizatsiyalashning muhimligini chuqur his etardi.

Bu davrda ijtimoiy hayotda o'zgarishlar sekin kechdi, keskin islohotlar amalga oshirilmadi. Bu holat shohni ag'darish tarafdorlarini faollashtirib yubordi. Shoh **1973-yili** taxtdan ag'darildi. **Muhammad Dovudxon** prezident deb e'lon qilindi.

M. Dovud bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Ammo bular afg'on xalqining juda kam qismiga ta'sir qildi xolos. Eng muhim tadbirlardan biri savodsizlikni tugatish bo'yicha davlat boshqarmasini tuzish bo'ldi. **1977-yili** yangi konstitutsiya qabul qilinib, unga ko'ra, M. Dovud umrbod prezident deb e'lon qilindi. Ammo M. Dovud armiya ustidan o'z hukmronligini o'rnata olmadi.

**1978-yil 27-aprelda** Afg'onistonda harbiylar davlat to'ntarishini amalga oshirib, M. Dovudni hokimiyatdan chetlatdi. Inqilobiy kengash tuzildi. Kengashga **Nur Muhammad Taraqqiy** boshchilik qildi. Hokimiyatga kelgan guruh ichida ham birlik yo'q edi. Natijada N. M. Taraqqiy o'ldirildi. Hokimiyatni **Hafizullo Amin** o'z qo'liga oldi. U SSSRga murojaat qilib, Afg'onistonga sovet qo'shinlarini kiritishni so'radi. Shunday sharoitda **1979-yil dekabrda** Afg'onistonga sovet qo'shinlari kiritildi. H. Amin o'ldirildi. Mamlakatda ahvol og'irlashdi. Millionlab och kishilar mamlakatni tark etib, qo'shni mamlakatlarda qochoqqa aylandi. Afg'oniston Xalq demokratik partiyasi (AXDP)ga raqib bo'lgan jangari mujohidlar mamlakatning katta qismini nazorat qilardi.

**1986-yili** hokimiyatga **Muhammad Najibullo** keldi. Uning siyosati ancha muvaffaqiyatli bo'ldi. **1989-yili** SSSR o'z qo'shinlarini olib chiqib ketdi, AQSH va Pokiston esa isyonchilarga qurol yetkazib berishni to'xtatdi. M. Najibullo hokimiyatni saqlab qoldi.



Afg'onistonning sovuq urush davri solnomasi



## INTERNET BILAN ISHLASH

*Internet manbalaridan Aziz Nesinning "G'aroyib bolalar" romanini topib o'qing, u bo'yicha kichik o'quv loyihasi tayyorlab, to'garak mashg'ulotida taqdimot o'tkazing.*



## ATAMALAR MAZMUNI

**"Oq inqilob"** – 1963–1979-yillarda shoh Muhammad Rizo Pahlaviy tomonidan Eronda amalga oshirilgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar majmui. Ular madaniyat va agrar sektordagi o'zgarishlar, aholining saylov huquqlarini kengaytirish va mamlakatni sanoatlash-tirishni o'z ichiga oladi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Turkiyada 1945–1980-yillarda amalga oshirilgan islohotlar qanday natijalarga olib keldi?
2. Turkiyani jadal rivojlanish yo'liga tushirgan T. O'zol islohotlari va ularning natijalari haqida gapirib bering.
3. Erondagi "Oq inqilob" qanday maqsadlarni ko'zlagan edi va u qanday natijalarga olib keldi?
4. 1979-yili Eronda shoh rejimining ag'darilishi va Eron Islom Respublikasining e'lon qilinishiga qanday omillar sabab bo'ldi?
5. Afg'onistonda 1979-yili amalga oshirilgan inqilob afg'on jamiyatida qanday o'zgarishlarga olib keldi?





28-  
mavzu

## Suriya, Iroq va Janubi-gʻarbiy Osiyo mamlakatlari



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Suriya, Iroq davlatlarini dunyo siyosiy xaritasidan toping.
2. Birinchi jahon urushiga qadar Suriya, Iroq qaysi davlat(lar)ning mustamlakasi hisoblangan?
3. Janubi-gʻarbiy Osiyo mamlakatlaridan qaysilarini bilasiz?

## SURIYA

**S**uriya Ikkinchi jahon urushidan oldin Fransiyaning mandati ostida edi. 1943-yili De Gollning qarshiligiga qaramasdan, Suriya o'z mustaqilligini e'lon qildi. Ammo real mustaqillikka 1946-yili chet el qo'shinlari mamlakat hududidan olib chiqib ketilgandan so'ng erishildi. Rasman parlament respublikasi deb e'lon qilinganiga qaramasdan, Suriyada barqaror demokratik an'analar shakllanmadi, hokimiyat uchun keskin kurash boshlandi.

1940-yillarning ikkinchi yarmida Suriyada burjua-demokratik davlatini qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan milliy burjuaziya hukumatlari bir-birini almashtirdi.

Jamiyat siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynayotgan **Arab sotsialistik uyg'onish partiyasi** 1957-yili mamlakatga Misr qo'shinlarini taklif qilish tarafdori bo'lib chiqdi. 1958-yil fevralda Suriya bilan Misr ittifoqqa birlashib, **Birlashgan Arab Respublikasi (BAR)** deb e'lon qilindi.

Bir qator norozilik chiqishlaridan so'ng 1961-yil sentyabrda armiya ofitserlari harbiy to'ntarishni amalga oshirdi. Shu kuni harbiy qo'mondonlik Suriya BAR tarkibidan chiqqanligini va **Suriya Arab Respublikasi** tashkil etilganligini e'lon qildi.

1970-yil noyabrdagi harbiy to'ntarishdan so'ng mamlakatda hokimiyat mudofaa vaziri general Hafiz Asad qo'liga o'tdi. Keyingi yili o'tkazilgan referendumda H. Asad Suriya prezidenti etib saylandi. Suriyada uzoq yillarga H. Asadning yakkahukmronligi o'rnatildi. 1980–1990-yillari Suriya sotsializm qurish kursini davom ettirdi. 1980-yillar oxiriga kelib YIMning asosiy qismini davlat sektori berardi. Tashqi siyosatda Suriya Isroilga qarshi qat'iy pozitsiyani egalladi. Liviya bilan yaqinlashdi. 1980–1988-yillardagi Iroq-Eron urushida Iroqni qo'lladi. 1990-yili Iroqning Kuvaytga qarshi tajovuzida Suriya Kuvayt tomonida bo'ldi, unga diplomatik, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatdi.



### O'YLAB KO'RING VA MANTIQIY XULOSA CHIQARING

*Sizningcha, mazkur davrda Suriyada yuz bergan harbiy to'ntarishlarning sabablari nimalardan iborat edi?*

## IROQ

**1932-yili** o'z mustaqilligini e'lon qilgan **Iroq** ko'p jihatdan Buyuk Britaniyaga bog'liq bo'lib qolaverdi. **1958-yili** generallar – **Abdul Karim Qosim** va **Abdul Salim Aref** boshchiligida davlat to'ntarishi uyushtirilib, qirol Feysal, bosh vazir va qirol oilasi a'zolari o'ldirildi. Ammo o'zaro janjallar tufayli keyinchalik Abdul Karim Qosim va Abdul Salim Aref ham o'ldirildi. Mamlakatda hokimiyat uchun kurash, davlat to'ntarishlari davom etdi. **1968-yilgi** navbatdagi davlat to'ntarishidan so'ng real hokimiyat mudofaa vaziri **Saddam Husayn** qo'liga o'tdi.

Iqtisodiyotda islohotlar o'tkazilib, aholi farovonligini oshirishga erishildi. Iqtisodiy siyosatda davlat sektorini mustahkamlashga alohida e'tibor berildi. 1973-yilga kelib eksportdan tushadigan daromadning asosiy qismini neft va neft mahsulotlari daromadi tashkil qildi.

1979-yili Saddam Husayn rasman Iroq prezidenti etib saylandi. 1980-yili 22-sentyabrda Iroq Eronga qarshi urush boshladi. Eron-Iroq urushi XX asrning eng uzoq davom etgan hududiy to'qnashuvi bo'ldi. Juda ko'p qurbonliklarga olib kelgan mazkur urush 1988-yilgacha davom etdi.

1990-yili Iroq Kuvaytga bostirib kirib, uning hududini egallab oldi. BMT Xavfsizlik kengashi Kuvaytdan Iroq qo'shinlarining zudlik bilan olib chiqib ketilishini talab qildi. 1991-yil yanvarda xalqaro kuchlar Kuvaytni ozod qilish bo'yicha "Sahrodagi bo'ron" operatsiyasini boshladi. Qisqa muddatda Iroq armiyasi to'liq tor-mor qilindi.



## TARIXIY MUSHOHADA



*Sizningcha, "Sahrodagi bo'ron" operatsiyasidan keyin Iroqning tashqi siyosatida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan? AKTdan foydalangan holda taqdimot tayyorlang va fikringizni asoslang.*

### Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari

**J**anubi-g'arbiy Osiyo mintaqasida 16 ta mustaqil davlat joylashgan bo'lib, biz ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

### LIVAN

**I**kkinchi jahon urushidan keyin G'arb davlatlarining siyosiy hukmronligi bartaraf qilinishi, chet el qo'shinlari mamlakatdan olib chiqilishiga qaramasdan, chet el monopoliyalari Livanda o'z mavqeyini saqlab qoldi. 1948-yili Livan "erkin mamlakat" deb e'lon qilindi. 1958-yil mayda mamlakatda boshlangan fuqarolar urushi 3 ming kishining o'limiga olib keldi. Shundan keyin hokimiyatga kelgan va mustaqil siyosat olib borgan Livanning yangi hukumatini keng omma qo'llab-quvvatladi. 1960-yillari Livan iqtisodiyoti asosan xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan edi. Ammo Isroil agressiyasi Livanda ijtimoiy, siyosiy va etnokonfessional ziddiyatlarni kuchaytirib



“Sahrodagi bo‘ron”  
operatsiyasi

yubordi. 1975-yil Bayrutda falastinlik jangarilar bilan xristianlar otryadlari o‘rtasidagi to‘qnashuv Livanda fuqarolar urushini boshlab berdi, u 1990-yilgacha davom etdi.

## IORDANIYA

**1946**-yil **22-martda** Londonda **Transiordaniya**ning mustaqilligi e‘lon qilindi va shu yili may oyida mamlakatning nomi **Iordaniya** deb o‘zgartirildi. Amir **Abdulloh I ibn Husayn** mamlakat podshohi (maliki) bo‘ldi. 1967-yilgi urushda Iordaniya Isroildan mag‘lubiyatga uchrab, O‘rdun daryosining g‘arbiy sohili tortib olingandan so‘ng Iordaniya hududiga yuz minglab falastinlik qochoqlar kelib joylashdi. Podshoh Iordaniyaning G‘arbiy qirg‘oqqa bo‘lgan huquqidan falastinliklar foydasiga voz kechdi. Ammo Isroilning ta‘siri ostida 1988-yili Iordaniya G‘arbiy qirg‘oq bilan har qanday aloqani uzdi. Oqibatda arab davlatlarining moliyaviy yordamidan mahrum bo‘ldi. Faqat Yevropa Ittifoqi va xalqaro moliyaviy tashkilotlar ko‘magida Iordaniya 1991-yil oxiriga kelib moliyaviy inqirozdan chiqqa oldi.

## SAUDIYA ARABISTONI

**1950**-yili Amerikaning “Aramko” kompaniyasi bilan neft qazib olish to‘g‘risida kelishuvga erishgandan so‘ng mamlakat boylikning timsoliga aylandi. Tezda Saudiya Arabistonida neft konlari ishga tushib, mamlakat qiyofasi o‘zgarib ketdi. 1960-yillarda musulmon dunyosida Saudiya podshohi **Feysalning** obro‘si ortib bordi. U Eron bilan munosabatlarni yaxshilay boshladi, Makkada Eron shohini qabul qildi. Ra-botda bo‘lgan Arab mamlakatlari rahbarlari kengashida Feysalning taklifi bilan “**Islom konferensiyasi**” tashkiloti tuzildi. 1973-yildan boshlab neftning narxi keskin ko‘tarildi va Saudiya Arabistoni boyligi mislsiz darajaga yetdi. 1990-yilga kelib saudiyaliklar jahon moliya resurslarining 1/3 qismini o‘z qo‘llarida to‘pladi. Jahonda aniqlangan neft zaxiralarning 1/4 qismi shu yerda joylashgan edi. Bularning hammasi podshohlikning musulmon mamlakatlari orasida nufuzi oshishiga olib keldi.



### YO‘NALTIRUVCHI SAVOLLAR

*Geografiya fanidan olingan bilimlaringizga tayanib Janubi-g‘arbiy Osiyo min-taqasida joylashgan mamlakatlarning o‘rni, poytaxti, pul birligi hamda davlat va huquq asoslari fanidan olingan bilimlaringizga tayanib davlat boshqaruvi va siyosiy partiyalari yoki hokimiyat tepasiga kelgan shaxslarning amalga oshirgan ishlarini jadval ko‘rinishida daftaringizga qayd qiling.*

## BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI

**1971**-yili ingliz qo'shinlari chiqib ketgandan so'ng Arabiston yarimorolining sharqida **Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)** federatsiyasi tashkil qilindi. Unga 7 ta amirlik – Abu Dabi, Dubay, Sharja, Ajman, Umm ul-Qayvayn, Al-Fujayra va Ra's ul-Xayma kirdi. Bu amirliklar ichida eng kattalari Abu Dabi va Dubay hisoblanadi. Neftdan oladigan juda katta foyda evaziga mamlakat aholi jon boshiga daromad bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlardan birini egalladi. Chet el kapitalini jalb qilish uchun erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilingan. BAA Yaqin Sharqdagi eng yirik moliyaviy va tranzit savdo markazi hisoblanadi.



### INTERNET BILAN ISHLASH

*Internetda Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) federatsiyasiga virtual sayohat uyushtiring va mavzuda o'rganilgan materiallar asosida tarixiy voqealarni tahlil qiling.*



### ATAMALAR MAZMUNI

**Sanksiya** – xalqaro majburiyatlarga yoki xalqaro huquq me'yorlariga rioya qilmagan, ularni buzgan davlatlarga nisbatan bir mamlakat (yoki mamlakatlar guruhi) tomonidan qarshi qo'llanadigan (iqtisodiy, moliyaviy yoki harbiy) jazo yoxud ta'sir chorasi.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1940-yillarning ikkinchi yarmida Suriya tarixida qanday siyosiy jaryonlar kuzatildi?
2. 1932-yili o'z mustaqilligini e'lon qilgan Iroq nima sababdan ko'p jihatdan Buyuk Britaniyaga bog'liq bo'lib qolgan edi?
3. Saudiya Arabistonida mamlakat qiyofasi o'zgarib ketishiga sabab bo'lgan qaysi omillarni bilasiz?
4. Qaysi voqeadan keyin Arabiston yarimorolining sharqida Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) federatsiyasi tashkil qilindi.





29-  
mavzu

## Lotin Amerikasida milliy islohotchilik va taraqqiyotning boshqa yo‘llari



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Lotin Amerikasi davlatlariga qaysi davlatlar kiradi?
2. Ikkinchi jahon urushiga qadar Lotin Amerikasi qaysi davlat mustamlakasi hisoblangan?

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiy islohotlar o'tkazishi uchun qulay sharoit vujudga keldi: ular ancha katta valyuta zaxirasiga ega bo'ldi, jahon savdosida ularning ulushi oshdi. Bu hol Lotin Amerikasi mamlakatlarida ommabop, lekin avtoritar rejimlarning shakllanishi uchun qulay muhit yaratdi.

1970-yillar oxiri – 1980-yillar boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida



## ESGA OLING

*Ikkinchi jahon urushida Lotin Amerikasi mamlakatlari ishtiroki haqida nimalarni bilasiz?*

diktatorlik rejimlariga qarshi kurash faollashdi. Bu 1979-yili Nikaraguada inqilobga, Salvador va Gvatemalada isyonchilik harkatining kuchayishiga olib keldi. Janubiy Amerika davlatlari – Ekvador, Peru, Boliviya, Argentina, Braziliya va Urugvayda harbiy rejimlar fuqarolik hukumatlari bilan almashtirildi. XX asrda Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan modernizatsiyalashning uchta – *inqilobiy, neokonservativ va islohotchilik* variantlari yaqqol ko'zga tashlandi. Bu variantlarni uchta mamlakat misolida ko'rib chiqamiz.

*Kuba rahbari  
Fidel Kastro*

## KUBA – MODERNIZATSIYALASHNING INQILOBIY VARIANTI

**1950**-yillar oxirida Karib dengizidagi kichikina orol – **Kubada** yuz bergan voqealar butun dunyoning e'tiborini o'ziga jalb qildi. Kuba jamiyatni modernizatsiya qilishning inqilobiy yo'lini tanladi. **1959-yil 1-yanvar** kuni **Fidel Kastro** boshchiligida qo'zg'olonchilar Gavanaga kirib kelishdi, inqilob g'alaba qozondi. F. Kastro hukumati faqat keskin sifat o'zgarishi Kubani qoloqlikdan olib chiqadi, jamiyatni taraqqiyotning zamonaviy darajasiga ko'taradi deb o'ylab, keskin ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirdi. AQSHning Kubadagi yangi hukumatga dushmanlarcha munosabati aniq bo'lgach, F. Kastro hukumati SSSR bilan kelishuv orqali mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlay boshladi. Bu esa **1962-yilgi "Karib inqirozi"**ga olib keldi. Kuba dastlabki davrda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini modernizatsiya qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Sof agrar mamlakat bo'lgan Kubani agrar-industrial mamlakatga aylantirish kursi tanlandi. Ammo 1980-yillardan jamiyatni modernizatsiya qilishning Kuba variantida kamchiliklar ko'zga tashlana boshladi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari, aholining yashash darajasi pasaydi. SSSRning parchalanishi Kuba uchun juda katta zarba bo'ldi. 1990-yillarda ko'pchilik F. Kastro rejimining qulashini bashorat qilgan edi, ammo unday bo'lmadi.

## CHILI – MODERNIZATSIYANING NEOKONSERVATIV VARIANTI

I kkinchi jahon urushidan keyin Lotin Amerikasi mamlakatlari jamiyatni modernizatsiya qilishning optimal variantini izladilar. **1960-yillari** Chili hukumati mamlakatni modernizatsiyalashda ilg'or mamlakatlarda sinovdan o'tgan islohotchilik tizimlariga tayandi. Ammo boshlangan islohotlar jamiyatdagi bo'linishni kuchaytirdi, mamlakat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohalarida keskinlikni yuzaga keltirdi. Prezidentlik saylovlaridan oldin tashkil qilingan **Xalq birligi** blokiga kommunistlar, sotsialistlar, radikallar va "Xalq faoliyati yagona harakati" kirdi. **1970-yili** shu blok nomzodi – **Salvador Alyende** Chili prezidenti etib saylandi. S. Alyende hukumati islohotlari ham mamlakatda turli qarashlar, qarshiliklarni keltirib chiqardi. **1973-yili** davlat to'ntarishi amalga oshirilib, hokimiyatga general **Avgusto Pinochet** boshchiligidagi harbiy xunta keldi. Konstitutsiya va deyarli barcha demokratik erkinliklar bekor qilindi. Pinochet hukumati tanlagan modernizatsiyalashning neokonservativ varianti katta ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Ish haqi ayniqsa islohotlarning dastlabki yillarida sezilarli darajada kamaydi, ishsizlik keskin oshdi. 1989-yili o'tkazilgan prezidentlik saylovlarida Xristian-demokratik partiyasi (XDP) yetakchisi **Patrisio Eylvin** g'olib chiqdi. Shu bilan diktatura davri tugadi.

## MEKSIKA – MODERNIZATSIYALASHNING ISLOHOTCHILIK VARIANTI

**1958**-yili Meksika sanoat mahsulotlarining umumiy hajmi bo'yicha Lotin Amerikasida birinchi o'ringa chiqdi. Mamlakatning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishida ancha qudratli davlat sektori asosiy rol o'ynadi. Lotin Amerikasida katta shov-shuvga sabab bo'lgan Kuba inqilobi Meksika rahbarlarini ham ijtimoiy sohaga jiddiy e'tibor qaratishga undadi. Ammo Meksika hukmron doiralari rivojlanishning liberal-islohotchilik yo'lidan chekinmadi.



### YODDA TUTING



**Salvador Alyende**

*1959-yil 1-yanvar kuni F. Kastro boshchiligida qo'zg'olonchilar inqilobi g'alaba qozondi.*

*1970-yili Xalq birligi nomzodi Salvador Alyende Chili prezidenti etib saylandi.*

*1958-yili Meksika sanoat mahsulotlarining umumiy hajmi bo'yicha Lotin Amerikasida birinchi o'ringa chiqdi.*

1980-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Meksika uchun katta sinov bo'ldi. Inqiroz yengib o'tilgan bo'lsa-da, ishsizlik, tashqi qarz keskin oshdi, tashqi dunyoga, birinchi navbatda, AQSHga qaramlik ham ortdi.



## IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

*Kuba rahbari Fidel Kastro 1963-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Bu haqdagi ma'lumotlarni izlab toping va "Sharof Rashidov va Fidel Kastro" mavzusida taqdimot tayyorlang.*



## BADIIY ASAR BILAN ISHLASHGA DOIR TOPSHIRIQ

*Alvaro Yunkening "Muallima uchun atirgul" hikoyasini o'qing va tahlil qiling.*



## ATAMALAR MAZMUNI

**Harbiy rejim** – davlatni boshqarish shakli bo'lib, unda butun hokimiyat harbiylarga tegishli bo'ladi. Odatda harbiy rejimlar harbiy to'ntarish orqali o'rnatiladi.

**Agrar-industrial mamlakat** – asosiy boyligini qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil qiladigan, sanoati qishloq xo'jaligi mahsulotlari va tabiiy boyliklarni qayta ishlashga yo'naltirilgan mamlakat.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1950–1980-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlarida yuz bergan asosiy siyosiy o'zgarishlar haqida gapirib bering.
2. Modernizatsiyalashning Kuba varianti o'zini oqladimi? 1980-yillardan bu variantning qanday kamchiliklari ko'zga tashlandi?
3. Chilida S. Alyende hukumatining islohotlari ma'lum yutuqlarga qaramasdan nima uchun ommalashmadi?
4. Pinochet diktaturasi davridagi islohotlar Chilining keyingi rivojlani-shida qanday rol o'ynadi?
5. Meksikada modernizatsiyalashning islohotchilik varianti Kuba va Chili variantlaridan nimasi bilan farq qiladi?



30-  
mavzu

# Afrikada mustaqillik, qashshoqlik va taraqqiyot muammolari



## FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Afrika qit'asi geografik jihatdan qaysi qismlarga bo'linishini xarita yordamida aniqlang.
2. Yangi davrda Afrika mamlakatlari qaysi davlatlarning mustamlakalari edi?
3. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarida Afrika mamlakatlarining ishtiroki qanday bo'lgan?



## SHIMOLIY AFRIKA MAMLAKATLARI

**Sh**imoliy Afrikadagi arab mamlakatlariga Misr, Sudan, Liviya hamda Mag'rib davlatlari – Jazoir, Tunis, Marokash va Mavritaniya kiradi. Bu mamlakatlarda aholi asosan islom diniga e'tiqod qiladi. Shu sababli mintaqa arab-islom sivilizatsiyasi mamlakatlari hisoblanadi.

### MISR

**U**rushdan keyingi yillarda **Misrda** siyosiy va iqtisodiy muhit o'ta beqaror edi. **1952-yili** mamlakatda inqilob amalga oshirilib, hokimiyatga **Jamol Abdul Nosir** boshchiligidagi **“Yosh ofitserlar”** keldi. Dastlab bu odatdagi harbiy to'ntarishga o'xshab ko'rindi. Ammo voqealarning keyingi rivoji bu antiimperialistik va antifeodal inqilob ekanligini ko'rsatdi. Inqilob uzoq davom etgan milliy-ozodlik harakatiga yakun yasadi va Misrning chinakam mustaqillik davrini boshlab berdi.

Yangi hukumat Misrda bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Mamlakatdagi barcha siyosiy partiyalar tarqatib yuborildi. Yagona rasmiy siyosiy uyushma – **“Ozodlik tashkiloti”** tuzildi va u yangi rejimning tayanchiga aylandi. Yer islohoti natijasida ko'plab dehqonlar yerga ega bo'ldi. Ammo hukumat faoliyatiga **“Musulmon birodarlar”** diniy-mutaassiblik tashkiloti qarshi chiqdi. Aholining katta qismi savodsiz bo'lgan mamlakatda ular kuchli ta'sirga ega edi. 1954-yili **“Musulmon birodarlar”** tarafdorlari bilan **“Ozodlik tashkiloti”** tarafdorlari o'rtasidagi qonli to'qnashuvda **“Musulmon birodarlar”** tashkiloti tor-mor qilindi. J. A. Nosir hukumati Misrni rivojlantirishda SSSR yordamiga tayandi. 1970-yili J. A. Nosir vafot etgandan so'ng Misr prezidenti etib saylangan **Anvar Sadat** SSSR bilan barcha aloqalarni uzib, AQSH bilan yaqinlashdi va uning yordamida iqtisodiy rivojlanishni boshladi. 1981-yil 6-oktyabrda Anvar Sadatning o'ldirilishi ham yangi iqtisodiy kursni o'zgartira olmadi. **Husni Muborak** prezident etib saylangandan so'ng butun 80-yillar va 90-yillar boshlarida Misr jadal rivojlanishda davom etdi.

### SUDAN



#### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Sizningcha, bugungi Afrika taraqqiyotidagi muammolar nimalardan iborat?*

**1956-yili** mustaqil bo'lgan **Sudan** unitar demokratik respublika deb e'lon qilindi. Shundan keyin taraqqiyotning dunyoviy va diniy yo'li tarafdorlari o'rtasida qator to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Oxir-oqibat Sudan rivojlanishning islomiy yo'lini tanladi. Islom – davlat dini, arab tili – davlat tili, shariat – barcha qonunlarning asosi deb e'lon qilindi. 1969-yili

“Ozod ofitserlar” tashkiloti bu rejimni ag‘darib tashladi. Hokimiyat polkovnik **Ja‘far Nimeyri** boshchiligidagi Inqilobiy kengashga o‘tdi.

Mamlakat **Sudan Demokratik Respublikasi** deb e‘lon qilindi. J. Nimeyrining shaxsiy rejimi o‘rnatildi. Mamlakatda inson huquqlari poymol qilindi.

Uzoq harakatlardan so‘ng 1985-yili J. Nimeyri rejimi ham ag‘darib tashlandi. Shundan keyin mamlakat janubidagi islomiy davlat tarafdorlari bilan hukumat o‘rtasida urush boshlandi. Oqibatda Sudan XX asr oxirida ham mintaqaning eng qoloq mamlakati bo‘lib qoldi.

## LIVIYA

1

XX asr boshida Turkiya mustamlakasi edi, Turkiya-Italiya urushidan keyin Italiyaga qaramlik boshlandi.

2

II jahon urushi davrida ingliz va fransuzlar egalladi. 1952-yilda BMT Liviyaga mustaqillik berdi.

3

Liviya Qo‘shma Podshohligi ag‘darilib, Liviya Arab Respublikasi tuzildi (1969).

4

1977-yil LAR o‘rniga Liviya Arab Sotsialistik Xalq Jamahiriyasi e‘lon qilindi.



**Muammar Qazzofiy**

*Liviyaning XX asr solnomasi: mustaqillikdan diktaturaga*

**1949**-yil Italiyaning sobiq mustamlakalari – **Fessan, Kirenaika** va **Tri-politaniya** birlashtirilib, Liviya podshohligi tuzildi. Liviya **1951-yili** mustaqil davlat deb e‘lon qilindi. 1950-yili Liviya hududida neft va gazning katta zaxiralari aniqlandi. Bu boyliklar chet el, birinchi o‘rinda AQSH kompaniyalari tomonidan o‘zlashtirildi. Keyingi yillarda neft qazib olish sanoati juda jadal rivojlandi. Neft sanoatining jadal o‘shishi bilan Liviya ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham tub o‘zgarishlar boshlandi. Bu jarayon faqat qishloq aholisining keskin kamayishiga olib kelmasdan, ayni paytda mamlakatdagi monarxiya tizimining tayanchi bo‘lgan an‘anaviy-diniy hayot tarzi ham buzildi, asta-sekin armiyaning roli ortib bordi. Natijada 1969-yili 29 yoshli **Muammar Qazzofiy** boshchiligidagi “Yosh ofitserlar” tashkiloti monarxiyani ag‘darib tashladi va mamlakatni **Liviya Arab Respublikasi** deb e‘lon qildi. M. Qazzofiy hukmronligi davrida mamlakat iqtisodiy rivojlanish va aholini ijtimoiy himoya qilishda katta yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, fuqarolar huquqlari ta‘minlanmadi, bir qism aholining noroziligi ortib bordi.

## TROPIK VA JANUBIY AFRIKA MAMLAKATLARI

**1945**-yil oktyabrda Angliyaning **Manchester** shahrida **V Panafrika kongressi** bo'lib o'tidi. Unda antimustamlaka, antiimperialistik ruh ustuvor bo'ldi. Kongress butun qit'aga va barcha yirik mintaqalarga qaratilgan yangi inqilobiy talablarni ilgari surdi. Ko'plab Afrika mamlakatlari uchun urushdan keyingi yillar siyosiy partiyalarni tuzish davri bo'ldi. Ular endi bevosita ommaga murojaat qiladigan bo'ldi. Mitinglar, bo'ysunmaslik kampaniyalari o'tkazdi, chet el tovarlarini boykot qildi. 1940-yillar oxiri – 1950-yillar boshlarida ommaviy namoyishlar va politsiya bilan qonli to'qnashuvlar davrning xarakterli jihati bo'lib qoldi. Qurolli chiqishlar, **Madagaskar, Fil Suyagi Qirg'og'i, Keniya va Kamerun** xalqlarining mustamlakachilikka qarshi qurolli qo'zg'olonlari avj oldi. 1950-yillarning ikkinchi yarmi mustamlaka rejimlarini qulatish uchun kurashlar davri bo'ldi. Buyuk Britaniya mustamlakasi **Oltin Qirg'oq** o'z mustaqilligini e'lon qildi va o'zini **Gana** davlati deb atadi. Fransiya mustamlakasi Gvineya ham o'z mustaqilligini e'lon qildi. Bu dastlabki qadamlar butun Afrika tomonidan qit'aning mustamlakachilikdan ozod bo'lishi ramzi sifatida qabul qilindi.

Mustamlakachilikdan ozod bo'lish jarayonlarining eng yuqori nuqtasi 1960-yilga to'g'ri keldi. U tarixga "**Afrika yili**" sifatida kirdi. Jahon xaritasida 17 ta yangi Afrika davlati paydo bo'ldi. Keyingi yillarda Buyuk Britaniyaga qarashli deyarli barcha davlatlar o'z mustaqilligini e'lon qildi.



**Panafrika kongressi**

### TARIXIY MUSHOHADA

*Sizningcha, Afrika xalqlari tarixidagi V Panafrika kongressi hamda "Afrika yili" qanday ahamiyat kasb etadi? Fikringizni asoslagan holda T-chizma grafik organayzeridan foydalanib taqdimot tayyorlang.*

Mustaqillikdan so'ng deyarli birdaniga hayot tubdan yaxshilanadi, degan ishonch keng tarqalgan edi. Ammo ko'p hollarda nokapitalistik rivojlanish yo'lini tanlagan mamlakatlarda qiyin vaziyatlar vujudga keldi, mustaqillik uchun kurashgan kechagi liderlar va hukmron partiyalar hokimiyatga kelgach, zolimlar va diktatorlarga aylandilar, fuqarolar urushlari esa ko'plab qon to'kilishlariga olib keldi. Kapitalistik yo'lni tanlagan boshqa bir qator davlatlarda ham shunday, deyarli bir xil muammolar paydo bo'ldi.

Bir qator Afrika davlatlarida ko'p sonli, tajribasiz va samarasiz, qulog'igacha korrupsiyaga botgan, davlat boyliklarini talon-toroj qiluvchi va shu asosda bir-birini qo'llab-quvvatlovchi byurokratik apparatlar vujudga keldi. Bunday sharoitda armiya yagona tartib va kuchga ega bo'lgan tashkilot bo'lib qoldi. Natijada to'xtovsiz harbiy to'ntarishlar yuz berdi. Qashshoqlikdan, urush va genotsiddan, sanoatning yo'qligi tufayli ishsizlik va ilosizlikdan qutulish uchun millionlab afrikaliklar o'z qit'asini tashlab ketishga majbur bo'ldilar.

## APARTEID REJIMIGA QARSHI KURASH

**A**frikaning janubida irqchilik rejimiga asoslangan **Janubiy Afrika Respublikasi** (JAR) mavjud edi. Bu rejim turli irqdagi kishilar qo‘shilmasdan alohida yashashi, aralashmasligi, turmushda va mehnat jarayonida bir-biri bilan eng kam aloqada bo‘lishini taqozo qilardi. Bu qarash oq tanli kishilarning ustunligi haqidagi g‘oyaga asoslangan edi. Qora tanlilar saylovlarda qatnashish huquqiga ega emasdilar. Hatto boshlang‘ich ta‘lim tizimi ham ular uchun alohida, kamroq bilim berishga mo‘ljallangan edi. Bunday tartiblarga qarshi chiquvchi siyosiy tashkilotlar ta‘qib qilindi.

Apartheid rejimiga faqat huquqsiz qora tanli aholi va bu rejimdan norozi bir guruh oq tanlilar emas, balki xalqaro jamoatchilik va BMT ham qarshi kurashdi. BMT apartheid rejimini boykot qilishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. Natijada JAR hukumati demokratik chora-tadbirlar ko‘rishga majbur bo‘ldi, barcha siyosiy partiyalardan taqiq olib tashlandi, siyosiy mahbuslar ozod qilindi. 1994-yili bo‘lib o‘tgan saylovlardan so‘ng JAR tarixidagi birinchi qora tanli yo‘lboshchi – **Nelson Mandela** mamlakat prezidenti bo‘ldi.

Apartheid rejimining ag‘darilishi bilan Afrikada mustamlakachilik to‘liq yakunlandi.



### ATAMALAR MAZMUNI

**Genotsid** – xalqaro jinoyatlarning bir turi: irqi, millati, dini, etnik tarkibiga ko‘ra, aholi guruhlarini yoppasiga yoki qisman jismonan qirib yuborishga qaratilgan harakat.

**Apartheid** – irqiy kamsitishning eng ashaddiy ko‘rinishi.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Misrda siyosiy va iqtisodiy muhit o‘ta beqaror bo‘lishining sabablari nimalardan iborat edi?
2. XX asrning 40-yillarida Liviya podshohligining tuzilishi va uning keyingi taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
3. 1945-yil oktyabrda Angliyaning Manchester shahrida bo‘lib o‘tgan V Panafrika kongressi qit‘a tarixida qanday ahamiyat kasb etadi?
4. 1940-yillar oxiri – 1950-yillar boshlarida Afrika mamlakatlaridagi ommaviy namoyishlar va politsiya bilan qonli to‘qnashuvlarning xarakterli jihatlari nimalardan iborat?

# 31- mavzu

## XX asrning ikkinchi yarmida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi



### FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. XX asrning ikkinchi yarmiga qadar aniq fanlar sohasida qanday ixtirolar amalga oshirildi?
2. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarida dunyo davlatlari qanday qurollardan foydalanishgan?
3. XX asr boshlarida qaysi adabiy yo'nalishlarda asarlar yozilgan?



## ILMIY-TEXNIK INQILOB VA UNING NATIJALARI

**S**o'nggi yuz yil davomida fanning rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik inqilobga olib keldi. Bu inqilobning asosiy belgilari tabiiy va sintetik materiallardan tovarlarni ommaviy ishlab chiqarish, mashinalardan keng foydalanish, ishlab chiqarishning konveyerli liniyalarini va sanoat robotlarini yaratish bo'ldi. Ilmiy-texnik inqilob jahon iqtisodiyotini kapitalizmning postindustrial davriga olib chiqdi.

Ayni paytda ilmiy-texnik inqilob bir qator salbiy oqibatlariga ham olib keldi. Xususan, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish natijasida ish o'rinlari kamayib ketdi va ishsizlik avj oldi. Energiyaning yangi turlaridan, sun'iy materiallardan foydalanish tabiiy resurslarni o'zlashtirish imkoniyatini kengaytirdi, ammo buning tabiatga zarari ham ortib bordi.

### Ilm-fan yutuqlari

**XIX** asr oxiri – XX asr boshlariga kelib ilmiy tafakkurda yirik o'zgarishlar yuz berdi. Isaak Nyutondan boshlangan va mexanikaga asoslangan dunyoqarash o'z imkoniyatlarini yakunladi va bu yangi davr fanining inqiroziga olib keldi. Bunga **elektron** va **radioaktivlik**ning kashf etilishi katta turtki bo'ldi. Fandagi inqirozni bartaraf etish jarayonida fizikadan boshlangan va fanning barcha sohalarini qamrab olgan ilmiy-texnik inqilob yuz berdi. Bu, avvalo, **Maks Plank** va **Albert Eynshteyn** kabi olimlarning nomi bilan bog'liq. **Elektron** va **radiy**ning kashf etilishi, kimyoviy elementlarning transformatsiyasi, **nisbiylik nazariyasi** va **kvant nazariyasining** yaratilishi mikroolam va katta tezlik sohasida ulkan yangilik bo'ldi. Kvant nazariyasi kimyoviy bog'lanishlarning tabiatini tushuntirib, fan va ishlab chiqarish oldida **moddalarning kimyoviy transformatsiyasi** uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Irsiyat qonunlari sohasiga kirib borish boshlandi, **genetika** fani rivojlandi, **xromosoma** nazariyasi shakllandi.



#### ESGA OLING

*Dunyoda birinchi temiryo'l qachon qurilgan va u nimaga xizmat qilgan?*



#### O'YLAB KO'RING VA MANTIQUIY XULOSA CHIQARING

*Sizningcha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilm-fanning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lgan omillar qaysilar?*

## SOVUQ URUSH DAVRINING TOP-7 KASHFIYOTI

Yana qaysi kashfiyot va ixtirolarni mazkur ro'yxatga kiritgan bo'lardingiz?  
Fikringizni dalillar bilan izohlashga harakat qiling.

### KOMPYUTER

**ENIAC**  
(AQSH, Pensilvaniya universiteti, 1946)



### PLASTIK

Plastik sanoatining yuzaga kelishi (1950-yillar)



### KOSMONAVTIKA

Insonning koinotga ilk parvozi (1961)



### UYALI TELEFON

“Motorola” (1984)



### INTERNET

ARPANET (1969)



### ATOM TEXNOLOGIYALARI

Obninsk AES (1954)



### GEN MUHANDISLIGI

Stenli Kohen,  
Herbert Boyer (1973)



Bu davrda aniq fanlar erishgan eng katta yutuqlardan biri lazerning kashf etilishi bo'ldi. Bu kashfiyot XX asr fizika fanidagi eng yorqin kashfiyotlardan biri sifatida tan olingan. 1960-yili sovet fiziklari – **N. G. Basov**, **A. M. Proxorov** va amerikalik olim **Ch. Tauns** lazer (bu inglizcha *light amplification by stimulated emission of radiation* – “majburiy nurlanish natijasida yorug'likning kuchaytirilishi” iborasining bosh harflaridan olingan) – nurning mutlaqo yangi turini yaratdilar. Bu uchala olimga fizika bo'yicha **Nobel mukofoti** berildi.

Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq yana bir yangilik **kompyuterning** ixtiro qilinishi bo'ldi. Kompyuter (inglizcha *computer* – “hisoblagich”) dastlab axborotni qayta ishlash va hisoblash uchun yaratildi, u elektron hisoblash mashinasi – EHM deb yuritilar va juda katta hajmga ega edi. 1959-yili amerikalik muhandislar – **D. Kilbi** va **R. Noys** tomonidan **yarimo'tkazgichli integral mikrosxemalarning** yaratilishi kompyuter va boshqa asboblarning hajmining keskin qisqarishiga, faoliyat sohasining keskin kengayishiga olib keldi. Integral mikrosxemalarning yaratilishini olimlar XX asrning so'nggi 50 yili ichida qilgan eng mashhur ixtiro hisobladilar. Hozir deyarli barchamiz foydalanadigan uyali telefonlar ham XX asr ixtirosi. Shvetsiya-ning “Televerket” kompaniyasi 1940-yillar oxiridayoq uyali telefonlarni yaratish ustida ish boshlagan edi. Shvedlar tomonidan taklif qilingan birinchi ommaviy uyali telefon aloqasi **MTA** – *mobile telephone system* (mobil telefon tizimi) deb ataldi. 1970–1980-yillari **Ericsson**, **Philips** va boshqa ko'plab mashhur kompaniyalar tomonidan uyali telefon apparatlarining yangi turlari yaratildi. Shu yillari zamonaviy ko'rinishga yaqin apparatlar paydo bo'ldi. Massachusetts texnologiya instituti xodimlari uzoq masofadan turib kompyu-

ter orqali aloqa o'rnatish mumkinligini asosladi va Internetning yaratilishini yaqinlashtirdi. 1969-yili Internetning o'tmishdoshi – **ARPANET** yaratildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin boshlanib ketgan sovuq urush, AQSH va SSSR o'rtasidagi qurollanish poygasi kosmos sohasiga ham ko'chdi. **1957-yil 4-oktyabr** kuni Sovet Ittifoqida Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi uchirildi. Akademik **S. P. Korolyov** boshchiligidagi guruh tomonidan Oyga kosmik kema uchirish borasida tadqiqotlar olib borildi. Natijada **1961-yil 12-aprel** kuni **Y. A. Gagarin** "Vostok" kosmik kemasida dunyoda birinchi bo'lib koinotga parvoz qildi. Kosmonavtika davri boshlanib, u koinot haqidagi bilimlarimizni kengaytirdi.

**Iqtisodiy nazariya** sohasida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Iqtisodiy nazariyadagi eng muhim o'zgarishni XX asrning birinchi yarmida ingliz iqtisodchisi **Jon Keyns** amalga oshirdi. U amalda iqtisodiy nazariyada yangi yo'nalish – **makroiqtisodiyotni** yaratdi. J. Keyns nazariyasi fanda **keynschilik** nomini oldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin keynschilik asosida yaratilgan iqtisodiy nazariya **neokeynschilik** nomini oldi. Bu nazariya iqtisodni yangi davr talabiga moslashtirishga qaratilgan edi.

## Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar

**XX** asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik inqilob va u bilan bog'liq o'zgarishlar inson hayotining hamma jabhalariga ta'sir ko'rsatdi. Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar avvalo san'at va adabiyotda o'z aksini topdi.

San'atda **abstraksionizm** (*mavhumlik*) yo'nalishi keng ommalashdi. Abstraksionizm fotografiya san'atining rivojlanishiga o'ziga xos javob tarzida paydo bo'ldi. Abstraksionizm vakillari endi tasvirda harakatni, hissiyotni ifodalashga intildilar, zotan, ularning fikricha, aynan shu jihatlarni fotografiyada aks ettirishning iloji yo'q edi. Abstraksionizmga qarama-qarshi ravishda **pop art** (*ommaviy san'at*) paydo bo'ldi va tezda Yevropaga tarqaldi. Pop art ixlosmandlarining fikricha, dunyodagi har qanday buyum o'zining dastlabki iste'molchilik ahamiyatini yo'qotib, badiiy-estetik sifat kasb etishi mumkin.

San'atning bu yo'nalishlarida olam qiyofasidagi mantiq va aniqlikning yo'qligi san'atdagi modernizm bosqichi o'z imkoniyatlarini tugatganidan dalolat edi. Endi G'arb va Sharq san'ati, o'tmish va zamonaviy uslublar, folklor va ommaviy madaniyat elementlarini o'zida jamlagan **postmodernizm** uslubi paydo bo'ldi.

## Adabiyot

**U**rushdan keyin bir qator yozuvchilarning romanlari urushni badiiy usullar bilan anglashga bag'ishlandi. Bu davrda ko'pchilik asarlar antifashistik, patsifistik ruhda yozilgan bo'lsa, 1960-yillardan keyin realizm jamiyatdagi yangi dolzarb muammolarni aks ettirish quroliga aylandi. Ularda inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, tabiatdagi halokatlarni inson va jamiyatning ham tubanlashuviga olib kelishi o'ta ta'sirli badiiy obrazlar orqali yorqin ifoda qilindi.

Bayon qilishning realistik shakli XX asrning yangi adabiy yo'nalishi – **ommaviy adabiyot**da o'ziga yo'l topdi. Bunday adabiyot keng ommaga mo'ljallangan bo'lib, aniq andazalar asosida yoziladi va mafkuraviy jihatdan mavjud tartiblarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

Bu yo'nalishda yozilgan asar bozorning barcha qonunlariga rioya qiladigan, xaridorlarning turli qatlamiga mo'ljallangan adabiy tovar hisoblanadi. Bu o'zining ochiq tijoriy xarakteri, ko'ngilochar funksiyasi va voqealar rivojining oldindan ma'lumligi bilan XX asr birinchi yarmidagi adabiyotdan farq qiladi.



## BADIIY ASAR BILAN ISHLASHGA DOIR TOPSHIRIQ

*“Jahon adabiyoti” jurnalida nashr etilgan badiiy-tarixiy asarlarni topib, ta'til davrida ularni o'qib chiqing hamda “Ta'til va mutolaa” mavzusida o'quv portfoliosini tayyorlang.*



## ATAMALAR MAZMUNI

**Konveyer** – yuk tashish, mashinani butlab yig'ish yoki ishlanayotgan narsalarni bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga ketma-ket uzluksiz yetkazib berish uchun to'xtovsiz yoki davriy ravishda aylanib ishlab turadigan lentasimon maxsus transport qurilmasi.

**Postmodernizm** – XX asr o'rtalari va oxirlarida rivojlangan yo'nalish bo'lib, u asosan falsafa, san'at, arxitektura va adabiy tanqidchilikda modernizm an'alaridan chekinishni o'zida ifodalaydi. Atama asosan modernizmdan keyin kelgan tarixiy davrni ifodalash uchun qo'llanadi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Kapitalizmning postindustrial davrida ilmiy-texnik taraqqiyot qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
2. Zamonaviy EHMLar, kompyuterlar va uyali aloqa tarmog'ining yaratilishida integral mikroshemalarning ixtiro qilinishi qanday rol o'ynadi?
3. Internet tarmog'ining paydo bo'lishiga qanday nazariya asos bo'ldi?
4. XX asr adabiyot va san'atidagi qanday yo'nalishlarni ta'riflay olasiz? Adabiyot va san'atning ijtimoiy hayotga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?
5. XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy kashfiyotlarning sodir bo'lishiga qanday omillar sabab bo'ldi?

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### I BOB

#### XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA JAHON MAMLAKATLARI: INDUSTRIAL SIVILIZATSIYANING QAROR TOPISHI

<b>1-mavzu.</b> Industrial sivilizatsiyaning qaror topishi .....	6
<b>2-mavzu.</b> “Yanada Buyuk Britaniya” uchun: yangi iqtisodiy va mafkuraviy tizimning paydo bo’lishi .....	11
<b>3-mavzu.</b> Fransiya va Germaniya: Yevropada yetakchilik uchun kurash.....	16
<b>4-mavzu.</b> Sharqiy Yevropa va Rossiya: jamiyatni isloh qilish muammolari.....	22
<b>5-mavzu.</b> Ikki xil Amerika: Shimoliy va Janubiy Amerikada taraqqiyot yo’nalishlari .....	27
<b>6-mavzu.</b> Yaponiya, Xitoy va Hindiston: islohotlarning osiyocha yo’li .....	32
<b>7-mavzu.</b> Islom sivilizatsiyasi mamlakatlarida an’anaviylik va islohotchilik o’rtasidagi kurash .....	38
<b>8-mavzu.</b> Afrika mamlakatlarida mustamlakachilik va taraqqiyot muammolari.....	43

### II BOB

#### JAHON URUHLARI ORALIG’IDA SIVILIZATSIYA RIVOJINING IKKI YO’NALISHI: LIBERAL DEMOKRA- TIYA VA TOTALITAR-AVTORITAR DIKTATURA

<b>9-mavzu.</b> Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari .....	50
<b>10-mavzu.</b> Liberal-demokratik mamlakatlarda taraqqiyotning yangi muammolari.....	56
<b>11-mavzu.</b> Totalitar va avtoritar diktatura mamlakatlari: yangi urush o’chog’ining paydo bo’lishi .....	61
<b>12-mavzu.</b> Osiyo mamlakatlarida mustaqillik va taraqqiyot muammolari .....	67
<b>13-mavzu.</b> Afrikada milliy uyg’onish va mustaqillik g’oyalarning paydo bo’lishi.....	73
<b>14-mavzu.</b> Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlari .....	77



### III BOB

#### 1945–1991-YILLARDA YEVROPA VA SHIMOLIY AMERIKA MAMLAKATLARI

<b>15-mavzu.</b>	G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.....	86
<b>16-mavzu.</b>	SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.....	91
<b>17-mavzu.</b>	AQSH: yangi liderning paydo bo'lishi.....	95
<b>18-mavzu.</b>	Buyuk Britaniya va Fransiya: yangi Yevropani qurish .....	100
<b>19-mavzu.</b>	Germaniya va Italiya: mag'lubiyatdan keyingi taraqqiyot .....	106
<b>20-mavzu.</b>	G'arbiy Yevropada iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari .....	112
<b>21-mavzu.</b>	Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari: diktatura va demokratiya .....	118
<b>22-mavzu.</b>	Sovet Ittifoqida islohotlar va inqiroz: imperiyaning tugatilishi .....	124
<b>23-mavzu.</b>	Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari totalitarizm va demokratiya oralig'ida.....	130

### IV BOB

#### UYG'ONAYOTGAN DUNYO: 1945–1991-YILLARDA OSIYO, AFRIKA VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI

<b>24-mavzu.</b>	Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.....	138
<b>25-mavzu.</b>	Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya: Osiyo sivilizatsiyasi qadriyatlari va G'arb ishlab chiqarish usuli uyg'unligi.....	143
<b>26-mavzu.</b>	Hindiston va Pokistonda mustaqillikning murakkab yo'li .....	149
<b>27-mavzu.</b>	Turkiya, Eron va Afg'oniston: diniy qadriyatlar va zamonaviy sivilizatsiya muammolari.....	154
<b>28-mavzu.</b>	Suriya, Iroq va Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari.....	158
<b>29-mavzu.</b>	Lotin Amerikasida milliy islohotchilik va taraqqiyotning boshqa yo'llari .....	163
<b>30-mavzu.</b>	Afrikada mustaqillik, qashshoqlik va taraqqiyot muammolari.....	167
<b>31-mavzu.</b>	XX asrning ikkinchi yarmida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi .....	172

Jahon tarixi 10 [Matn]: 10-sinfi uchun darslik/Sh. Ergashev [va boshq.]. –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 180 b.

ISBN 978-9943-8380-9-3

UO'K 94(100)(075.3)

KBK 63.3(0)ya72

*O'quv nashri*

# JAHON TARIXI

*Umumiy o'rta ta'lim  
maktablarining 10-sinfi uchun darslik*

*Muharrir Ilhom Qosimov*

*Musahhih Orifjon Madvaliyev*

*Texnik muharrir Akmal Sulaymonov*

*Rassom Oybek Abdusamatov*

*Sahifalovchi-dizayner Artur Nurullayev*

Bosishga 01.08.2022 ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.

“Arial” garniturası. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.

Shartli bosma tabog'i 20,93. Nashriyot-hisob tabog'i 15,30.

Adadi \_\_\_\_\_ nusxa. Buyurtma № \_\_\_\_\_.

**Ijaraga beriladigan darslik holatini  
ko'rsatuvchi jadval**

No	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						
7						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda  
yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash  
mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Bar-cha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.